

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Alisher UMAROV
Ayubxon RADJIYEV
Boris BLYAXER
Risboy JO'RAYEV
Rustem REIMOV
Lola MO'MINOVA
Sherzod SHERMATOV
Sharibboy ERGASHEV
G'ayrat SHOUMAROV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarining uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqiz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va

psixologik-pedagogik

respublika tashxis markazi

«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT»dan olindi, deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,

Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.

Tel: (0371) 246-21-02

E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

MUNDARIJA

A.I.RASULOV.

O'qituvchining psixologik qiyofasini o'rganish usuli2

N.H.XOLYIGITOVA.

Umumta'lim maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish - ijtimoiy psixologik muammo sifatida.....6

N.M.MULLABAYEVA.

Bullig ishtirokchilariga amaliy yordam ko'rsatishning o'ziga xos jihatlari9

O'.B.SHAMSIYEV.

Ota-onalar va bolalar o'zini-o'zi anglashining mutanosibligi muammosi11

L.M.MAXKAMOVA.

Maktabda o'zlashtirmaslik muammosiga psixologik va neyropsixologik yondashuvlar14

R.M.MUSURMONOV.

Tarbiya muammosi hyech qachon eskirmaydi yoxud o'tmish allomalari tarbiya haqida16

N.N.SHOMUROTOVA.

Inklyuziv ta'limning ijtimoiy-psixologik ahamiyati19

SH.D.SHOKIROVA.

Lab va tanglayning plastik jarrohligidan so'ng bolalarni logopedik tekshirish mexanizmi21

SH.ABUTOVA.

Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan muloqot qilish qoidalari22

SH.E.TOXTIYAROVA, YU.R.MAXAMADIEVA.

Alaliya nutq nuqsoniga ega bolalar nutqi leksik-semantik tomonining o'ziga xos xususiyatlari24

N.M.KAYUMOVA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini multimediya vositalari orqali tashkil etishning ahamiyati26

D.R.BABAYEVA, X.SH.OCHILOVA.

Kichik yoshdagi bolalarni kitobga mehr uyg'otish orqali mustaqil fikrlashga o'rgatish.....28

M.R.AKRAMOV.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekologik ong shakllanishining psixologik mexanizmlari.....30

F.S.TO'RABEKOV.

Texnologik ta'lim o'qituvchisini tayyorlashda axborot talimi muhitidan foydalanishning ijtimoiy jihatdan zarurligi.....32

A.R.MUXAMEDJANOVA.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....33

A.S.NAZAROV.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari rahbarining qaror qabul qilish faoliyatida shaxs kreativligining o'rni35

M.K.SHIRINOV.

5E ta'lim modelidan boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida foydalanish37

SH.E.MAMARAJABOV.

Ta'lim jarayonini differensiallashtirishning imkoniyatlari.....38

A.N.RASULOV.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klasteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fanini o'qitishning zarurligi.....40

X.SH.YUNUSOVA.

Ta'lim sohasidagi klasterli yondashuv-ta'lim richagi sifatida.....42

N.ABDANBEKOVA.

Ingliz tilini o'qitishning innovatsion metodlari44

S.J.ACHILOVA, M.R.RAXMATULLAYEVA.

Dislaliya nutq kamchiligi o'rganishda ilmiy-nazariy asoslarning ahamiyati45

S.X.MARDOV.

Ta'lim turlarida arxitektura qurilish chizmachiligi o'qitishning pedagogik-psixologik asoslari47



O'QITUVCHINING PSIXOLOGIK QIYOFASINI O'RGANISH USULI

A.I.Rasulov, O'zbekiston Milliy universiteti va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori

В деятельности школьных психологов важное значение имеют методы изучения личности учителя. В данной статье представлены подробности методологии, необходимой для профессиональной деятельности практикующих психологов

Ключевые слова и понятия: психодиагностика, опросник, психолог, личность, учитель, портрет.

In the activities of school psychologists, methods of studying the personality of a teacher are of great importance. This article presents the details of the methodology necessary for the professional activities of practicing psychologists.

Key words and concepts: psychodiagnostics, questionnaire, psychologist, personality, teacher, portrait.

Umumta'lim maktabi psixologlari faoliyatida turli xil tashxis metodikalariga zarurat mavjud. Maktab psixologlarining tashxis metodikalariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda psixologik tajribadan o'tgan va talablarga javob beradigan vositalar muhimdir. O'qituvchi shaxsini tadqiq etish metodikalari ham ana shu ehtiyojlardan biri ekanligini ta'kidlash mumkin.

Respublikamizda o'qituvchi shaxsi psixologik tadqiqotlarda anchagina o'rganilgan (Yu.M.Asadov, A.Beknazarov, A.Jabborov, M.Qoplonova, A.Mashkurov, A.Rasulov, Sh.Saparov, Sh.A.Eshmetov va boshqalar). Bugungi kunda Respublikamizda o'qituvchini o'rganishga bag'ishlangan qator metodikalar mavjud: "O'qituvchi – o'quvchilar nigohida", "O'qituvchi haqida hamkasblar fikri", "O'qituvchi haqida ota-onalar fikri", "O'qituvchi – o'zi haqida" [1], "16 faktorli shaxsni o'rganish so'rovnomasi" [2], "O'z-o'ziga munosabati so'rovnomasi" [3], "O'qituvchi shaxsini psixologik tashxis etish" [4] va boshq. A.I.Rasulov tomonidan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari shaxsini tashxis etishda Ye.V.Rezapkina va G.V.Rezapkinalarning testini amaliyotda qo'llash varianti taqdim etilgan [5]. Mazkur tashxis vositasi o'qituvchi shaxsini psixologik tashxis etish bo'yicha olingan natijalarni uning xulq-atvori, pedagogik odobi, shaxsiy fazilati va shaxslararo munosabatlarini baholash uchun qulay ekanligi kuzatildi.

O'qituvchi shaxsiga psixologik tavsif berishda ishonchlilik mezoni katta bo'lgan psixologik testlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Psixologik tashxis natijalari o'qituvchining o'zi to'g'risida haqqoniy xulosa chiqarishga va shaxsiy-kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishga imkon beradi. Buning uchun o'qituvchi o'z shaxsini psixologik nuqtai nazardan muntazam o'rganishi va shaxsiy xususiyatlarini tahlil etishi kerak.

Test natijalari beshta shkala bo'yicha tahlil yetiladi. Ulardan to'rttasi o'qituvchi shaxsini psixologik tashxis etishga yordam beradi. Birinchi shkala bo'yicha – o'qituvchi shaxsining ustuvor qadriyatlar; ikkinchi shkala bo'yicha – psixoemotsional holatlari; uchinchi shkala bo'yicha – o'z-o'zini baholash qobiliyati; to'rtinchi shkala bo'yicha – ta'lim berish usuli; beshinchi shkala bo'yicha – tekshiriluvchining javoblari va test natijalarining haqqoniyliqi aniqlanadi. Testning nazorat shkalasiga egaligi maktab psixologining respondentlar tomonidan berilgan javoblarning xolisligini tekshirish imkonini beradi. Mazkur test nazorat shkalasiga ega bo'lgani uchun yuqorida ta'kidlab o'tilgan so'rovnomalardan mutlaqo farq qiladi. Uning tashxis etish xususiyati yuqori. Ushbu testning o'qituvchining psixologik qiyofasini tashxis etishdagi imkoniyati va qulayligini inobatga olib, ta'lim muassasalarida amaliyotchi psixologlar yoki o'qituvchilar o'z-o'zini tashxis etishda foydalanishlari mumkin.

Quyida "O'qituvchining psixologik qiyofasini o'rganish" testi savollari, javoblar varaqasi va natijalar sharhini keltirib o'tamiz.

Yo'riqnoma. Sizga bir necha test savollari taqdim etiladi. Siz savollar bilan tanishib, o'zingiz ma'qul topgan javoblarni tanlab, ularni javoblar varaqasiga belgilang. Test savollariga xolis javobingiz shaxsiyatingizni baholashga yordam beradi. Testda to'g'ri-noto'g'ri javoblar mavjud emas.

Savolda ko'rsatilgan uchta variantdan faqat sizning fikringiz, his-tuyg'ularingiz, reaksiyangizni aks ettiradiganini tanlang va tegishli katakka biror belgi qo'ying. Savollarga berilgan javoblarni mustaqil tahlil yetganingizdan keyin sizga test natijalari ma'lum bo'ladi.

"O'qituvchining psixologik portreti" testi

1. Sizningcha, tarbiyada eng muhimi nima?

- 1) o'quvchilarga bilim berish va g'amxo'rlik qilish;
- 2) o'quvchilarni katta yoshdagilarni hurmat qilishga o'rgatish;
- 3) ularda ma'lum qarashlar va malakalarni shakllantirish.

2. Agar mashg'ulot vaqtida o'quvchilardan biri sizni chalg'itsa, bundan sizning jahlingiz chiqib, darsni davom yetira olmaysizmi?

- 1) ha, jahlim chiqadi, darsni davom yetira olmayman;
- 2) bu mening kayfiyatimga bog'liq;
- 3) yo'q.

3. O'quvchi dars paytida sizga noma'lum bo'lgan ma'lumotlarni aytsa (taqdim etsa), siz bunday paytda qanday holatga tushasiz?

- 1) ularga katta qiziqish bilan qarayman;
- 2) xijolat tortaman;
- 3) asabiylashaman.

4. Sinfxonadagi tartibsizlik sizga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- 1) sinfxonada tartibsizlik bo'lsa, men darsni boshlay olmayman;
- 2) bunga e'tibor bermayman;
- 3) vaziyatga qarab ish tutaman.

5. Agar o'quvchiga nisbatan nohaqlik qilsangiz, siz buni tan olasizmi yoki yo'q?

- 1) nohaqligimni tan olaman;
- 2) nohaqligimni tan olmayman;
- 3) bunday holatga duch kelmaganman.

6. Sizning ish faoliyatingizda eng muhimi nima?

- 1) o'quvchilar bilan yaxshi munosabat o'rnatish;
- 2) hamkasblarim bilan yaxshi munosabatda bo'lish;
- 3) bilmadim.

7. Sinfdagi ayrim o'quvchilar sizning jahlingizni chiqaradimi (asabingizga tegadimi)?

- 1) tez-tez
- 2) ba'zan;
- 3) hech qachon.



8. Sizning darsingizda begona kishi ishtirok etsa, bu sizga qanday ta'sir ko'rsatadi?

- 1) meni ilhomlantiradi;
- 2) mening ishingiz sira ta'sir ko'rsatmaydi;
- 3) men erkin dars bera olmayman.

9. O'quvchi jamoat tartibini buzsa, unga tanbeh berishni o'z burchingiz deb bilasizmi?

- 1) albatta;
- 2) yo'q;
- 3) vaziyatga qarayman.

10. Siz barcha o'quvchilar bilan bir xilda iliq munosabatda bo'lasizmi?

- 1) bu haqda biror so'z aytishim qiyin;
- 2) yo'q;
- 3) ha.

11. Tanaffus vaqtida siz kimlar bilan muloqot qilishni afzal bilasiz?

- 1) o'quvchilar bilan;
- 2) hamkasblarim bilan;
- 3) yolg'iz qolganim ma'qul.

12. Siz darsga hamisha ko'tarinki kayfiyatda borasizmi?

- 1) yo'q;
- 2) har doim emas;
- 3) ha.

13. Boshqalardan ko'ra sizning ustunligingizni ko'rsatadigan sifatlarining bormi?

- 1) ha;
- 2) biror gap aytishim qiyin;
- 3) yo'q.

14. Siz qanday rahbarlar bilan ishlashni afzal bilasiz?

- 1) aniq ko'rsatmalar beruvchi;
- 2) mening ishingiz aralashmaydigan;
- 3) ijodiy ishlashim uchun imkoniyat yaratib beruvchi.

15. Siz o'zingiz yaxshi bilmagan narsalar haqida mulohazalar bildirganmisiz?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) eslay olmayman.

16. Siz o'quvchilaringiz bilan ta'lim muassasasidan boshqa joylarda tasodifan uchrashib qolsangiz qanday holatga tushasiz?

- 1) bunday uchrashuvlar menga huzur bag'ishlaydi;
- 2) noqulay ahvolga tushaman;
- 3) bu menda hech qanday tuyg'u o'yg'otmaydi.

17. Siz biror sababsiz holda ham o'zingizni baxtli yoki baxtsiz his etasizmi?

- 1) tez-tez;
- 2) kamdan-kam hollarda;
- 3) hech qachon.

18. Sizga hamkasblaringiz va ma'muriyat tomonidan berilgan tanbehlar qanday ta'sir ko'rsatadi?

- 1) tanbehlariga e'tibor bermayman;
- 2) ba'zan mening asabimga tegadi;
- 3) tez-tez asabimga tegadi.

19. Dars paytida siz belgilangan rejaga hamisha qat'iy amal qilasizmi?

- 1) hamma vaqt amal qilaman;
- 2) tayyorgarlik ko'rmasdan dars o'tishni afzal bilaman.
- 3) vaziyatga qarab ish tutaman.

20. Siz hamkasblaringiz haqida noo'rin gapirganmisiz?:

- 1) ha;
- 2) yo'q;

3) eslay olmayman.

21. Siz «O'quvchi qanday xulq-atvoriga ega bo'lsa, uni shundayligicha qabul qilish kerak», degan mulohazani ma'qullaysizmi?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) bu gapda ma'lum haqiqat bor.

22. Siz yaqin qarindoshlaringiz, do'stlaringiz va hamkasblaringizning iliq munosabati va qo'llab-quvvatlashiga muhtojmisiz?

- 1) ha;
- 2) ba'zan;
- 3) yo'q.

23. O'quvchilar yoki hamkasblaringiz bilan bo'lajak uchrashuvingiz haqidagi fikr sizni qanday holatga soladi?

- 1) menga huzur bag'ishlaydi;
- 2) alohida tuyg'u uyg'otmaydi;
- 3) qiyin ahvolga soladi.

24. Agar o'quvchi darsda asabingizga tegadigan qiliqlar qilaversa, siz qanday yo'l tutasiz?

- 1) uni jazolayman;
- 2) unga parvo qilmayman;
- 3) uning nima uchun bunday qilayotgani sababini aniqlashga urinaman.

25. Siz darslarga sidqidildan tayyorlanasizmi?

- 1) odatda;
- 2) ba'zan;
- 3) har doim.

26. Ishda siz uchun eng muhimi nima?

- 1) o'quvchilarga bo'lgan mehmim;
- 2) meni hamkasblarimning tan olishi;
- 3) boshqalar uchun kerakligimni his yetish.

27. Sizning darsni muvaffaqiyatli tashkil etishingiz ruhiy va jismoniy holatingizga bog'liq bo'ladimi?

- 1) tez-tez;
- 2) ba'zan;
- 3) bog'liq emas.

28. Hamkasblaringizning sizga samimiy munosabatda bo'lishiga ishonasizmi?

- 1) ishonaman;
- 2) ishonch yo'q;
- 3) bu savolga javob berishim qiyin.

29. Agar o'quvchi siz qabul qila olmaydigan nuqtai nazarni bildirsa, qanday yo'l tutasiz?

- 1) men uning xatosini tushuntirish va tuzatishga harakat qilaman;
- 2) darhol suhbat mavzusini o'zgartiraman;
- 3) uning nuqtai nazarini tushunishga harakat qilaman.

30. Siz ishga kech kelasizmi?

- 1) ishga doimiy ravishda kech kelaman;
- 2) kamdan-kam holda ishga kechikaman;
- 3) ishga hech qachon kech qolmayman.

31. Agar sizning ko'z o'ngingizda o'quvchini sababsiz jazolashsa, unga qanday munosabat bildirasiz?

- 1) men uni darhol himoya qilaman;
- 2) hamkasbimni alohida xonaga chaqirib, unga tanbeh beraman;
- 3) bironing ishiga aralashishni noo'rin hisolayman.

32. Ish jarayonida kuchli ruhiy va jismoniy zo'riqish sezasizmi?

- 1) odatda;
- 2) ba'zan;



3) kamdan-kam holda.

33. Siz o'z kasbiy mahoratingiz yuksakligiga ishonasizmi?

- 1) albatta;
- 2) unchalik ishonmayman;
- 3) o'ylab ko'rmagan ekanman.

34. Sizningcha, o'quvchilar jamoasi uchun eng muhimi nima?

- 1) tartib-intizomga rioya yetish;
- 2) ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik;
- 3) o'quvchilarning ijodiy ishlashlari uchun imkon yaratish.

35. Siz "bugungi ishini ertaga qoldirma" maqoliga amal qilasizmi?

- 1) doimo;
- 2) ba'zan;
- 3) hech qachon.

36. Siz "Bu o'quvchi meni yoqtirmaydi, shuning uchun unga beradigan maslahatlarim befoyda" degan mulohazani ma'qullaysizmi?

- 1) ha, to'la ma'qullayman;
- 2) yo'q;
- 3) bu gapda ma'lum haqiqat bor.

37. Ish bilan bog'liq fikrlar sizga uyqu bermaydigan holatlar bo'ladimi?

- 1) tez-tez;
- 2) kamdan-kam;
- 3) hech qachon xalaqit bermagan.

38. Majlis va pedagogik kengashlarda o'zingizni qiynagan masalalar bo'yicha so'zga chiqasizmi?

- 1) tez-tez;
- 2) ba'zan;
- 3) boshqalarni tinglashni afzal bilaman.

39. Siz o'qituvchining o'quvchilarga baland ovoz bilan gapirishi, do'q urishi lozim deb hisoblaysizmi?

- 1) agar o'quvchi shunga loyiq ish qilgan bo'lsa;
- 2) bu savolga javob berishim qiyin;
- 3) yo'q.

40. Siz ziddiyatli vaziyatlardan chiqib ketishning to'g'ri yo'llarini topa olasizmi?

- 1) hamma vaqt emas;
- 2) bilmayman;
- 3) hamisha topa olaman.

41. Siz ta'til vaqtida o'quvchilar bilan muloqot qilishga ehtiyoj sezasizmi?

- 1) ha;
- 2) yo'q;

3) ba'zan.

42. Siz qiyinchiliklarni bartaraf yeeish uchun o'zingizda yetarlicha kuch topa olasizmi?

- 1) ba'zan;
- 2) odatda, topishga harakat qilaman;
- 3) doimo topaman.

43. Siz o'z ishiga nолоyiq odamlarning buyrug'ini bajarganmisiz?

- 1) ha;
- 2) eslay olmayman;
- 3) yo'q.

44. Darsdagi kutilmagan vaziyatlar haqidagi fikringiz...

- 1) ular o'quv jarayoniga xalaqit beradi;
- 2) yaxshisi ularga e'tibor bermaslik kerak;
- 3) ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanish lozim.

45. Siz odamlarga nisbatan nosamimiy munosabatda bo'lganmisiz?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) eslay olmayman.

46. Siz o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatli holatni kuzatsangiz nima qilasiz?

- 1) o'quvchini qo'llab-quvvatlayman;
- 2) o'qituvchini qo'llab-quvvatlayman;
- 3) betaraf qolaman.

47. O'quv yili boshi yoki oxirida sog'lig'ingiz borasida muammolar tug'ilganmi?

- 1) ha, bunday bo'lishi tabiiy;
- 2) ba'zan;
- 3) yo'q.

48. O'quvchilaringiz sizga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lishadimi?

- 1) ha;
- 2) hammasi emas;
- 3) bilmayman.

49. Rahbarning talablari mutlaqo asossiz bo'lsa, ular sizda norozilik kayfiyatini uyg'otadimi?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) javob berolmayman.

50. Ba'zi test savollariga javob berishda qiynaladingizmi?

- 1) ha;
- 2) yo'q;
- 3) eslay olmayman.

1-jadval.

"O'qituvchining psixologik qiyofasini o'rganish" testining javoblar varaqasi

№	1			№	2			№	3			№	4			№	5		
	Javoblar variantlari:				Javoblar variantlari:				Javoblar variantlari:				Javoblar variantlari:				Javoblar variantlari:		
	1-var.	2-var.	3-var.		1-var.	2-var.	3-var.		1-var.	2-var.	3-var.		1-var.	2-var.	3-var.		1-var.	2-var.	3-var.
1				2				3				4				5			
6				7				8				9				10			
11				12				13				14				15			
16				17				18				19				20			
21				22				23				24				25			
26				27				28				29				30			
31				32				33				34				35			
36				37				38				39				40			
41				42				43				44				45			
46				47				48				49				50			
Jami:																			



Javoblar varaqasida har bir shkalaga doir savollar raqami va javoblar varianti tartib bilan joylashtirilgan. Bu esa javoblarni tartib bilan belgilash va shkalalar bo'yicha natijalarni oson umumlashtirishga yordam beradi.

Test natijalari beshta shkala bo'yicha tahlil qilinadi. Birinchi navbatda beshinchi shkalaga e'tibor qaratiladi. Test natijalarining haqqoniyligiga ishonch hosil qilingach, shkalalar bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlil etiladi. Har bir shkala bo'yicha olingan ma'lumotlar o'qituvchining ma'lum shaxsiy (psixologik) xususiyatlarini ifodalaydi. Quyida ularning tavsifi keltiriladi. Natijalar qaysi variantning ustunligiga qarab izohlanadi.

I. O'qituvchining ustuvor qadriyatlar

1.1. Agar o'qituvchining javoblarida birinchi variant ustuvor bo'lsa, u holda uni o'z kasbining fidoyisi deb atash mumkin. U o'quvchilarning qiziqishi va muammolariga befarq emas. Ular bilan muloqotga kirishish u uchun shunchaki ishga bog'liq zarurat emas balki ma'naviy ehtiyojdir. O'quvchilar uni shaxs sifatida tan olishadi, u ularning qiziqishlariga e'tibor bilan qaraydi, ishonchini qozona oladi, hurmatiga sazovor. Ular uning darslarida o'zlarini xavfsiz va yengil his etishadi. Bunday maqbul emotsional holatlar uning samarali va ijodiy ishlashiga imkon beradi. Bu hol o'zi va o'quvchilar salomatligi uchun ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1.2. Agar o'qituvchining javoblarida ikkinchi variant ustuvor bo'lsa, u holda u ancha qiyin bo'lgan o'qituvchilik faoliyatida hamkasblarining qo'llab-quvvatlashi va e'tirofiga muhtoj. U uchun ularning fikr-mulohazalari alohida ahamiyatga ega. Ayni vaqtda uni hamkasblari nafaqat kasbiy mahorat egasi, balki ularning muammolarini tushunuvchi va qo'llab-quvvatlovchi "hamkor" sifatida qadrlashadi. Biroq o'quvchilar ham uning e'tibori va qo'llab-quvvatlashiga muhtoj ekanini ham unutmaslik lozim. Hoynahoy, ular uni o'zlariga "hamkor" deb hisoblashmaydi. U hamkasblari bilan bo'lgan munosabatlarida shaxsiyati yoki o'ziga xosligini yaxshi ma'noda namoyon eta olmaydi. Buning oqibatida ularda unga nisbatan ishonchsizlik va begonashuv tuyg'usi paydo bo'lishi mumkin. Bu esa ta'lim-tarbiya jarayonida ular bilan hamkorlik qilishini qiyinlashtiradi.

1.3. Agar uning javoblarida uchinchi variant ustuvor bo'lsa, bu hol uning o'quvchilar bilan "til topisha olmasligini" bildiradi. Ehtimol, uning qiziqishlari faqat maktab hayoti yoki o'quvchilar bilangina bog'liq emas, o'zini namoyon etishning boshqa imkoniyatlari mavjud. U o'z muammo va kechinmalariga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. O'zi uchun tayanch izlaydi. Uni o'zidan va ta'lim muassasasidan tashqarida topishga urinadi. Yoki o'ziga yetarlicha ishonadi-yu, ammo hamkasblar va o'quvchilarning fikr-mulohazasiga qiziqmaydi yoki u ishdan juda toliqqan va bu hol uni ko'p narsaga befarq qilib qo'ygan.

II. Psixoemotsional holati

2.1. Agar uning javoblarida birinchi variant ustuvor bo'lsa, u holda o'quvchilar bilan ishlash undan ancha ruhiy va jismoniy kuch talab etadi. U vaziyatni o'zgartirish imkonini yo'qligidan tez-tez asabiy holatga tushadi, jahli chiqadi, tashvish chekadi, o'zini ojiz his qiladi.

Ehtimol, u o'ziga va tevarak-atrofdagilarga haddan ortiq talablar qo'yadi va shuning uchun ham iztirob chekadi. Agar u yuzaga kelgan vaziyatlarga nisbatan o'z munosabatini o'zgartira olsa, u holda o'qituvchi faoliyati uchun xarakterli bo'lgan stresslardan ozod bo'ladi va o'zining psixoemotsional holatini yaxshilaydi.

O'quvchilar va jamoa bilan muloqot unga huzur-halovat bag'ishlashi uchun o'zini va tevarak-atrofdagilari bilan uyg'unlikka erishish yo'llarini axtarishi zarur. Insonning ruhiy imkoniyatlari cheksiz. Agar izlansa u yaxshi psixoemotsional holatga erishadi

hamda o'z-o'zini muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan vosita va usullarni topa oladi.

2.2. Agar javoblarda ikkinchi variant ustuvor bo'lsa, bu sinalluvchining asab tizimi sezgirligidan dalolat beradi. U o'zga kishining holatini qabul qilish va unga hamdard bo'lishga qodir. Ehtimol, uning kayfiyati ko'proq tashqi omillarga bog'liq. Noqulay vaziyatlar uni qiyin ahvolga solib qo'yishi mumkin. Bunday hollarda u asabiylashib, bezovtalanadi. Ojizligini namoyon etishi mumkin. Bularning barchasi ishini samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Noqulay holatlarni bartaraf etishga u hamisha ham qodir emas. Ammo o'zini, his-tuyg'ularini boshqara olishi kerak va lozim.

2.3. Agar o'qituvchining javoblarida uchinchi variant ustuvor bo'lsa, undagi ijobiy psixoemotsional holat ishini samaradorligini belgilab beradi. U favqulodda holatlarda o'zini yo'qotib qo'ymaydi, ularning oqibatlari uchun mas'ul qarorlar qabul qilishga qodir. Uning hissiy barqarorligi, uzoqni ko'ra bilishi va mehnatsevarligi ta'lim muassasasidagi psixologik muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

III. O'z-o'zini baholash

3.1. Agar o'qituvchining javoblarida birinchi variant ustuvor bo'lsa, u holda o'zini ijobiy qabul qila oladi. U ijodiy fikrlaydi, darsda jonli muloqot muhitini yaratishga qodir, o'quvchilar bilan hamjihatlikda ishlab, ularga psixologik yordam ko'rsata oladi. U o'quvchilarni shaxs sifatida qabul qiladi va ularni qadrlaydi. Bu esa o'quvchilarning hissiy rivojlanishiga va o'zlari haqidagi tasavvurlarining reallikka aylanishiga olib keladi. O'qituvchi shijoati, yorqin xulq-atvori, ijodiy yondashuvi va demokratik tamoyillarga amal qilishi bilan ajralib turadi.

3.2. Agar o'qituvchining javoblarida ikkinchi variant ustuvor bo'lsa, u holda uning o'z-o'zini baholashi nobarqaror. U tashqi shart-sharoitga, kayfiyatga, atrofdagilarning fikriga bog'liq. Uning mehnatiga berilgan ijobiy baho va ko'tarinki kayfiyat ijodiy parvozigacha turtki beradi. U erkin, o'ziga ishonadi, o'quvchilarga ta'sir ko'rsata oladi va ularning shaxs sifatida shakllanishiga to'g'ri yo'nalish beradi. O'z-o'ziga berilgan past baho (muvaqqiyatsizlikdan keyin) tevarak-atrofdagilar bilan munosabati samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kasbiy va hayotiy muammolarni hal etishida qiyinchilik tug'diradi.

3.3. Agar o'qituvchining javoblarida uchinchi variant ustuvor bo'lsa, bu hol uning atrofdagilar bilan har doim ham erkin muloqotga kirisha olmasligini ko'rsatadi. Bu uning shaxsiyati ahamiyatini pasaytiradi. Xulq-atvorida o'zgarishlar bor. Ko'p hollarda bu unda tevarak-atrofdagilarga nisbatan salbiy munosabat tug'diradi. Bu jonli, ishonch bilan harakat qilishiga va darsda yaxshi ijodiy muhit yaratishiga xalaqit beradi. Sinfda o'zini ishonchsiz his qiladi. Psixologik himoyaga zarurat sezmaydi. O'zi va o'quvchilar imkoniyatini cheklaydi.

IV. Ta'lim berish usuli

4.1. Agar o'qituvchining javoblarida birinchi variant ustuvor bo'lsa, bu uning yetakchilik xususiyatga egaligi va "kuchli pedagog" ekanidan dalolat beradi.

O'quvchi u uchun teng huquqli hamkor emas, balki ta'sir ko'rsatish ob'ekti hisoblanadi. U o'quvchilarga keskin va talabchanlik bilan munosabatda bo'ladi. Vaziyatlar va o'quvchilarning fikr-mulohazasini hisobga olmagan holda qarorlar qabul qiladi.

Uning o'qitish usulidagi yakka hokimlik (avtoritarlik) darslarda ijobiy psixologik muhit va ishonchli munosabat o'rnatishga to'sqinlik qiladi. Oqibatda o'quvchilar o'z faolligi va mustaqilligini yo'qotadi, ular o'z-o'zini ancha past baholaydi, o'zini psixologik himoya qilish maqsadida agressiv kayfiyatga



beriladi.

Ehtimol, uni endi "o'qituvchi-boshliq" vazifasi unchalik qanoatlantirmas va shuning uchun ham kasbiy va shaxsiy sohada o'zini kamol toptirishga, o'zaro muloqot tamoyillarini yanada chuqurroq o'zlashtirishga qodirdir?

4.2. Agar o'qituvchining javoblarida ikkinchi variant ustuvor bo'lsa, u holda u tinchlik tarafdori. U ruhiy zo'riqishdan, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi. U ko'p hollarda o'zini aybdor his qiladi va o'zgalar yumushini o'z zimmasiga oladi. O'quvchilar faoliyatini tashkil etish va nazorat qilishda izchillik yo'q. Unda ikkilanish va qat'iyatsizlik kuzatiladi.

Ta'limdagi bunday erkin usul o'quvchilarda o'qituvchiga nisbatan hurmat rivojlanishiga, ishini samarali tashkil etish va mas'uliyat hissining ortishiga olib kelmaydi. U ko'p yo'qotishlarga yo'l qo'yadi. Unda o'zidan qoniqmaslik, bezovtalanish, qo'rquv va ishonchsizlik hissi yuqori. Bunday holatda tevarak-atrofidagilar va o'quvchilar bilan yangi hamkorlik munosabatlarini o'rnatish maqsadga muvofiq.

4.3. Agar o'qituvchining javoblarida uchinchi variant ustuvor bo'lsa, u holda u uchun o'quvchi teng huquqli hamkor. U o'quvchilarni qaror qabul qilishga jalb etadi, ularning fikr-mulohazalarini tinglaydi, mustaqil fikrlashini rag'batlantiradi, nafaqat bilimlarni o'zlashtirishini, balki shaxsiy sifatlarini ham e'tiborga oladi.

Maslahat, iltimos, faoliyatga rag'bat uyg'otish, ruhlantirish uning asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi hisoblanadi. O'z kasbiy faoliyatidan qanoatlanadi. O'zini va boshqalarni tushunishga va qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi. O'quvchilar va jamoa bilan erkin muloqotga kirishadi. Ruhiy-hissiy holati ijobiy. Bu tarbiyalanuvchilar ruhiyatiga yaxshi ta'sir ko'rsatib, ta'lim samaradorligini oshiradi.

V. Javoblarning ishonchliligi

Birinchi-ikkinchi variantning ustuvorligi o'z-o'zini baholashda xolis va haqqoniy ekanini bildiradi. Uchinchi variant javoblarining ustuvorligi esa uning ijtimoiy me'yorlarga bog'liqligini bildiradi.

O'zini yanada mukammal bilishni istasa ta'lim muassasasi psixologi bilan doimiy hamkorlikda bo'lishi lozim.

Mazkur metodikadan maktab psixologlari o'qituvchilarni muttasil o'rganish maqsadida yoki o'qituvchilarning o'zlari shaxsiy-kasbiy kamolotlarini baholash maqsadida foydalanib borishlari mumkin.

Adabiyotlar

1. Бекназаров А.А. Психологические особенности особенности взаимоотношений между учителем и учащимся: Дис. канд.психол.наук. – Т.: ТГПИ. 994.
2. Асадов Ю.М. Индивидуально – психологические особенности учителя как фактор развития профессионализма: Дис. канд.психол.наук. – Тошкент.: НУ УЗ, 2007.-155 с.
3. Jabborov A.M. O'zbek maktabi o'qituvchisining etnik xususiyatlari: Psixolog. fan. dokt. diss.. – T.: O'zMU. 1999.
4. Капланова М. Психологические особенности личности учителя узбекской школы: Дис. канд.психол.наук. – Т.: ТГПИ. 1993.
5. Mashkurov A.M. Pedagogika oliy o'quv yurtlari ta'limi jarayonida matematika o'qituvchisining kasbiy sifatlarini shakllantirish: Psixol. fan. nomz. diss... – T.: TDPI. 1994.
6. Rasulov A.I. O'qituvchi shaxsini psixodiagnostik tashxis etish // Zamonaviy ta'lim. – T.: 2018. № 10.
7. Резапкина Е.В., Резапкина Г.В. Психологический портрет учителя. Опыт самодиагностики. – Балашиха.: МОЦО. 1999.
8. Сапаров Ш.Б. Личностно-профессиональные особенности преподавателей специальных дисциплин средних специальных профессиональных учебных заведений: Дис. канд.психол.наук. – Т.: ТГПИ. 1999.
9. Eshmetov Sh. A. Ustoz - shogird munosabatlarining ijtimoiy-psixologik fenomenlari: Psixol. fan. nom.diss... – T.: O'zMU. 2005.

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH - IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

N.H.Xolyigitova, Toshkent shahridagi YoDJU texnika instituti, "Pedagogika va psixologiya" kafedrası dotsenti v/b

В данной статье рассматриваются вопросы социально-психологического подхода к профессиональной ориентации учащихся общеобразовательных школ. Она будет полезна школьным психологам, учителям и родителям.

Ключевые слова и понятия: профессия, психология, фактор эффективности, объективный фактор, внимание, память, мотивация, личность, знания, квалификация, способности.

This article discusses the issues of the socio-psychological approach to the professional orientation of students in general education schools. It will be useful to school psychologists, teachers and parents.

Key words and concepts: profession, psychology, efficiency factor, objective factor, attention, memory, motivation, personality, knowledge, qualifications, abilities.

Shaxsni va xususan, o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularda barqaror kasbiy ustanovkalarni shakllantirish ijtimoiy psixologiyaning tipik muammosi emas. Ma'lumki, ushbu muammo qisman umumiy psixologiyaning, asosan esa yosh davrlari, pedagogik va rivojlanish psixologiyasining muammosi hisoblanadi. Lekin psixologiyadagi shaxs va jamiyat o'zaro bog'liqligi prinsipidan kelib chiqadigan bo'lsak, ushbu masalada shaxs yolg'iz emasligini, kasbiy ustanovkalarning jamiyat ta'sirida va uni o'rab turgan ijtimoiy borliqning qadriyatlarini

ta'sirida shakllanishini anglash qiyin emas. Shu bois ham biz yoshlardagi kasbiy motivatsiyani ham aynan shu tamoyillar asosida shaxslararo va guruhlararo munosabatlar tizimida ham nazariy, ham empirik asosda o'rganishga qaror qildik va bu muammoning ijtimoiy psixologiyaning ham muammosi sifatida talqin etamiz.

Umumta'lim maktablari bitiruvchilarining tanlangan kasblar va mutaxassisliklarni egallab olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shart-sharoitlarni yanada kengaytirish maqsadida o'rta



maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Professional mahorat va kasb motivatsiyasi haqida gap ketganda ularga ta'sir etuvchi ikki guruh omillar nazarda tutiladi: ob'ektiv hamda sub'ektiv.

Ob'ektiv omillar – bu inson faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan, shu faoliyat talab qiladigan tamoyillar, normalar va cheklovlar hamda inson tomonidan talab etiladigan professional bilimlar, malaka va ko'nikmalar, professional muhim sifatlaridir. Bu omillarga yana ishlab chiqarish sharoitlarining o'zi, ularning qanchalik yangi davr talablariga binoan modernizatsiya qilinganligi rol o'ynaydi.

Xodimning bilim, malaka va ko'nikmalari ham katta ahamiyat kasb etadiki, bu holat zamonaviy kadrlarning hamisha o'z ustida ishlashi, kasbiy malakasini muttasil oshirib borishini taqozo etadi. Shu bois ham ayrim yigit va qizlar modernizatsiyalashgan ishlab chiqarish korxonasida yoki kompaniyada ishlash uchun maxsus tayyorgarlikdan o'tishni, kerak bo'lsa, qo'shma korxonada ishlash ishtiyoqida xorij tillarini mukammal o'zlashtirish, xorijda malakasini oshirib kelishga juda katta ahamiyat bermoqdalar. Bunda yuqori texnologiyalar va axborot vositalaridan boxabarlik ham katta rol o'ynaydi.

Sub'ektiv omillar – insonda avvaldan mavjud bo'lgan layoqat, qobiliyat, mehnatga nisbatan motivatsiya, ish faoliyatdagi davogarlik darajasi, o'ziga nisbatan shakllangan baho va turli xil xato va kamchiliklardan o'zini-o'zi psixologik jihatdan himoya qilish qobiliyatidir. Bu omillar guruhi ham juda ahamiyatli bo'lib, ular ko'proq tashqi omillardan ko'ra insonning o'ziga bog'liq. Agar bir insonda ilk yoshlikdan biror hunar turi bilan shug'ullanishga ishtiyoq va qiziqish bo'lgan bo'lsa, bunga oilada ham sharoit bo'lib, genda ya'ni, avlodida ham kimlardir shu ish turi bilan shug'ullangan bo'lsa, albatta, bu holat uning kasbiy mahorati muttasil oshib borishi uchun muhim turtki bo'ladi.

Fikrimizcha, kasbga yo'nalganlik psixologik tayyorlikni, kasbiy ustanovkalarining barqarorligini, bu boradagi motivlarning anglanganligini muhim omil sifatida talab etadi. Chunki kasbga, biror ish hunarni bajarishga, inson avvalo ruhan tayyor bo'lishi, keyin mutaxassislik sir-asrorlarini egallashi kerak. Bu o'rinda biz kasbiy ustanovka atamasini ishlatishni joiz deb bilamiz.

Kasbiy ustanovka – shaxsning tanlagan kasbiga yoki muayyan hunarga ichki ruhiy tayyorligi bo'lib, u bu kasbni nafaqat biladi, balki uni yoqtiradi, hayotda shu yo'ldan borishga, uning qiyinchiliklarini qabul qilib, amalda bajarishga hozir bo'ladi. Lekin amalda har doim ham kasbiy ustanovka o'zgarmas va doimiy bo'lmayligi mumkin. Buning ham ob'ektiv hamda sub'ektiv sabablari bo'ladi. Masalan, bir kasb hunar o'rni yangi zamonaviy hunar turlari paydo bo'lishi mumkin. Yoki biror kasbni tanlagan shaxs ma'lum vaqt o'tgach undan boshqa bir kasbni yoqtirib qolishi yoki o'zini shu jabhada ko'rsata olmasligi mumkin. Shunday sharoitlarda shaxsning kasbiy motivatsiyasida o'zgarishlar ro'y beradi. U muayyan vaqt ishsiz ham qolishi mumkin. Demak, u yangi kasb turini egallashga qaror qiladi.

Hozirgi zamon mehnat birjalarida reorientatsiya (qayta kasbga yo'llash) ishlari olib borilishi markazlashtirilgan. Maxsus xodimlar tomonidan ish izlab kelgan shaxs kompyuter xotirasiga joylashtirilgan shahar, tuman bo'yicha ixtisoslar bo'yicha yoki ixtisoslararo mutaxassislar ro'yxati (zaruriyati, ehtiyoji, talabi) bilan tanishtiriladi. Aksariyat mehnat birjalarida psixologlar yetishmaganligi tufayli ish bilan ta'minlash, bo'sh o'rinlarni to'ldirish bilan shug'ullaniladi, xolos. Aslida esa bu xizmat qator omillarni tekshirish, o'rganishni taqozo etadi, ilmiy psixologik qonuniyatlar asosida ish yuritishni talab qiladi, chunonchi:

1. Shaxsning fazilatlarini, xarakterologik xislatlari.
2. Hissiy jabhalari va irodaviy sifatlarini.
3. Insonning kognitiv va regulativ imkoniyatlari.
4. Ehtiyoji, motivi, motivatsiyasi, motivirovkasi.
5. Kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.
6. Professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yaroqligi.
7. Iqtidori (iste'dodi), qobiliyati, salohiyati.
8. Kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, mahorati.
9. Umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e'tiqodi).
10. Salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi.
11. Izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati.
12. Ijtimoiy yetukligi, tashkilotchilik qobiliyati.
13. Ekstrovertligi va introvertligi.
14. Yuksak insoniy tuyg'ularga (axloqiy, aqliy, nafosat, praktik) egaligi.
15. Fidoiylilik, altruistik, vatanparvarlik fikazilatlarini ustuvorligi va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan mezonlar bo'yicha tekshirish ishlari bir nechta metodlar, metodikalar orqali ko'p seriyali tajribalar negizida amalga oshiriladi. Buning uchun testlardan qobiliyatga, shaxsga ijodiyotga, xotiraga shaxslararo munosabatga (oid) maxsus ishlab chiqilgan materiallardan, maqsadli vaziyatlardan, qiyinlashtirilgan topshiriqlardan, muammolardan, psixologik treninglardan, psixodramalardan va boshqalardan foydalaniladi.

Ma'lumki, an'anaviy kasbiy maslahat "kasbga yo'naltiruvchi o'qituvchi" qabulida olib boriladi. Bu holatda o'quvchi passiv, "axborot va maslahatni qabul qiluvchi" - ob'ekt bo'lib qolaveradi. Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida qo'llaniladigan amaliy psixologik texnologiyalar esa, o'quvchi shaxsiga shu jarayonning sub'ektiv sifatida yondashadi hamda uning ongli va mustaqil kasb tanlashi uchun ijtimoiy-psixologik muhit yaratadi. Bunday yondashuvda kasbga yo'nalganlik faqat tashqi ta'sirning aksi emas, balki ichki va tashqi ta'sirlarning integratsiyasi asosida shakllanadigan ichki pozitsiyasi sifatida talqin etiladi.

Shuni ta'kidlash joizki, kasb tanlash jarayonida o'smir-yoshlar o'z hayotlarining juda murakkab va nozik davrini boshdan kechiradilar: ular oldida turgan eng dolzarb muammo "kim bo'lsam ekan, qaerga borsam ekan?" degan muhim hayotiy savollarga javob berishdir. Bu muammolarning qanday yechilishi esa, ko'p jihatdan shaxsning kasbiy kelajagini belgilab beradi.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasi, psixologiyada kasbiy yo'nalganlik haqida ko'plab qarashlarni, nazariyalarni mavjudligini ko'rsatdi. Misol uchun, juda keng tarqalgan va atroflacha o'rganilgan kasbiy yo'nalganlik doirasidagi ilmiy yondashuvlardan biriga binoan, shaxsning hayot jarayonida orttirilgan barcha ijtimoiy va tabiiy xislatlari tizimi quyidagi tarkibiy qismlarga ajratiladi.

1. Ichki ehtiyojlar, motivlar, qoniqish va intilishlar, istaklar;
2. Qobiliyatlar, layoqatlar, moyilliklar, bilimlar ko'lamini («imkoniyat»);
3. Atrofdagilarning, yaqin kishilarning ta'siri, har xil ijtimoiy me'yorlar asosida shakllangan madaniy va ma'naviy qadriyatlar tizimi («ijtimoiy muhit»).

Bu tarkibiy qismlar shaxsda bir butunlikni tashkil etib, bir-birini taqozo etadi, biri ikkinchisiga nisbatan goh sabab, goh oqibat, goh esa sharoit sifatida namoyon bo'ladi va kishining bunyodkorlik faoliyatida, ichki kechinmalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tarkibiy qismlar muayyan kasbni tanlash, o'z oldiga aniq va ongli maqsadlar qo'yish va ularga intilish jarayonida xatti-harakatlarga yo'nalganlik, shiddat va sifat beradi. Ayniqsa, uchinchi omillar kompleksi biz



uchun ahamiyatli, chunki mentalitetimiz xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bolaning barcha ijtimoiy xulq-atvorida tashqi muhit, bolani bevosita o'rab turgan ma'naviy muhitning roli katta, deb hisoblaymiz. Bundan kelib chiqadiki, kasbiy yo'nalganlik deganda shaxsning tarkibiy (*istak-imkoniyat-ijtimoiy muhit*) qismlarining muayyan bir yo'nalishdagi **kasb talablariga mosligi, uyg'unligini** tushunish maqsadga muvofiq. Ya'ni, kasb motivatsiyasining barqarorligiga tashqi muhit katta ta'sir qiladi, ayniqsa, oiladagi kutishlar bilan bolaning xohishlari mos kelsa, kasbga yo'nalganlik va ustanovkalarining kuchi samarali bo'ladi.

Ijtimoiy psixologik so'rovnoma

1. Ismingiz _____
2. Familiyangiz _____
3. Yoshingiz _____
4. Millatingiz _____
5. Jinsingiz _____
6. Tanlagan kasbingiz _____
7. Qiziqishingiz _____
8. Siz o'zingizni oldinda turgan katta hayotga tayyorman deb o'ylaysizmi?

- a) Ha, tayyorman
- b) Yo'q, hali tayyor emasman
- v) Bu haqda hali o'ylab ko'rmaganman
- g) Boshqa.....

10. Bo'lajak kasbingizni oilaviy an'analarga tayangan holda tanladingizmi?

- a) Ha bu mening tanlovim
- b) Yo'q bu menga bog'liq emas
- v) Muhimi kasb egasi bo'lish
- g) Kelajakda kareram uchun muhim

11. Sizni shu kasbni tanlashingizga sabab bo'lgan omillar nimalar?

- a) O'z qiziqishlarim sababli
- b) Ota-onam sababli
- v) Do'stlarim sababli
- g) OAV, internet ma'lumotlari, turli e'lonlar

12. Sizning fikringizcha hozirgi kun yoshlariga to'g'ri kasb tanlashlarida kim xolisona, to'g'ri maslahat bera oladi?

- a) Ota-ona va boshqa oila a'zolari;
- b) Birga o'qiyotgan yaqin do'stlari;
- v) Mutaxassis (masalan psixolog)
- g) O'qituvchi, murabbiy-ustozlar

13. O'zingizni qiziqitirgan kasblar haqida qayerdan ma'lumotlar olasiz?

- a) Ota-ona va yaqin qarishdoshlardan;
- b) Internet, OAV, reklamalardan
- v) O'zim o'qiyotgan guruhdagi do'stlarimdan
- g) O'qituvchi, murabbiy-ustozlar

14. Kasb tanlashingizga qaysi tashqi omillar ko'proq ta'sir ko'rsatgan?

- a) Hayotingizdagi yaqin insoningiz, oilangizdagilarning shaxsiy namunasi;
- b) Yoshligingizdan ota-onangiz olib borgan to'garaklar;
- v) Hozirda birga o'qiyotgan do'stlaringiz o'rtasidagi umumiy qiziqishlar;

15. Siz qanchalik tanlagan kasbingiz to'g'risida turg'un fikrga egasiz?

- a) Fikrim o'zgarmasligiga ishonaman;
- b) Fikrim o'zgarib ketgan kerak, deb o'ylayman, yana bilmadim;
- v) Bilmadim, o'zgarishi mumkin.

16. Qaysi tashqi yoki ichki omillarni inobatga olgan holda hozirgi kunda kasb tanlash kerak?

- a) Jamiyat ehtiyojlaridan, ya'ni hozirgi kunda jamiyatimizga kerak bo'lgan kasblarni inobatga olgan holda kasb tanlash muhim
- b) Nima bo'lganda ham mo'may daromad keltiruvchi kasbni tanlash kerak

- v) O'zimni qobiliyatim, qiziqishim va ehtiyojlarimdan kelib chiqib tanlashim kerak

- g) O'zim yoqtiradigan kasbni tanlashim kerak

17. Nima uchun aynan shu kasbni tanladingiz?

- a) Mo'may daromad olish uchun
- b) Yuksak obro'-e'tibor, muvaffaqiyat qozonish uchun
- v) Nimalarga qodirlikimni isbotlash uchun
- g) Yaqin o'rtoqlarim, do'stim shu kasbni tanlagani uchun

18. Siz o'zingiz sevgan kasbingiz haqida to'liq ma'lumot olishda kimga murojaat qilgansiz?

- a) Birga o'qiyotgan yaqin do'stlarimga
- b) Ota-onam va yaqinlarimga
- v) Internet va boshqa axborot uzatuvchi kanallarga
- g) O'qituvchi, murabbiy-ustozimga

19. Kasb tanlashingizga do'stlaringiz sababchi bo'lishganmi?

- a) Ha
- b) Yo'q

20. Sizni o'zingizga qanday kasblar ko'proq yoqadi? Yoqqan 3 tasini yozing

- a)
- b)
- v)

Shunday ekan, maktab damlaridan oq yoshlarga bo'lajak kasbni to'g'ri tanlash bo'yicha yo'l-yo'riqlar berish, amaliy yordamlar ko'rsatish ishlari imkon qadar barvaqt va oqilona amalga oshirilishi shart. Zero, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'quvchi-yoshlarning aksariyati kasb tanlashda kattalarning, psixolog va pedagoglarning ko'magiga katta ehtiyoj sezadilar.

Shunday qilib, psixolog va kasbga yo'naltiruvchi mutaxassislar yoshlarning nafaqat kasbiy yo'nalganlik xislatlarini ilmiy tadqiqotlarda o'rganishlari, balki shu bilan birga, ularda to'g'ri, ijobiy kasbiy ustanovkalarni shakllantirish muammolari bilan ham bevosita shug'ullanishlari zarur, toki har bir o'quvchida bo'lajak kasbni ongli ravishda tanlashga nisbatan ijobiy munosabatlar, mustaqil intilishlar paydo bo'lsin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbiy qarorlarni qabul qilishga tayyorlik shaxsning kasbiy ustanovkalarida o'z aksini topadi. Umuman olganda, ustanovka deganda shaxsning biron bir muammoni hal etishga ichki tayyorgarligi, shu muammoga nisbatan keng ma'noda ijobiy yoki salbiy munosabati tushuniladi. Demak, kasbiy ustanovkalarining shakllanishiga shaxsning hayot jarayonida turli muammolarni hal etish bo'yicha to'plagan tajribalari katta ta'sir ko'rsatadi. Hayotiy vazifalarni bajarishga, to'siqlarni yechishga doir to'plangan barcha ko'nikma va malakalar umumlashib, shaxs tarkibida qandaydir bir "salohiyatlilik kompleksi"ni vujudga keltiradiki, bu shaxsning yangi-yangi hayotiy muammolarni, jumladan, kasb tanlash masalasini yechishdagi harakatchanligi, tirishqoqligi, erishgan yutuq va kamchiliklarini teranlik bilan idrok etish xususiyatlarini, umumiy bir nazarni o'zida mujassam etadi.

Birinchi yo'nalish – kasb tanlashda qat'iyatsizlik omili bo'lib, kasbiy shakllanish nuqtai nazaridan kelajak xaqida aniq tasavvurlar, mezonlarning yo'qligi, kasblar olami xaqida to'liq axborotga ega emaslik, shuningdek, o'z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik, bir qarorga kela olmaslik, ikkilanishlarning ko'pligi bilan tavsiflanadigai tuyg'ular hamda shunga mos xulq-atvorlarda o'z ifodasini topadi.



Ikkinchi yo'nalish – kasb tanlashda ratsionallik, teranlik omili bo'lib, bo'lajak kasbiy hayotni ongli ravishda, ogohlik bilan belgilash, bilib turib, aniq reja asosida, aql bilan mustaqil ravishda harakat qilish, har bir qadamini obdon o'ylab, donolik bilan bosish kabi ustanovkasidir.

Uchinchi yo'nalish – bo'lajak kasbning istiqboliga nisbatan optimistik munosabat, ya'ni o'z kasbiy kelajagini ideallashtirish, omad kulib boqishiga umid bog'lash, hayotdagi har qanday muammoning o'z-o'zidan hal bo'lib ketishi mumkinligiga ba'zan haddan ortiq ishonish bilan bog'liq bo'lgan dunyoqarashlarning ustunligi.

To'rtinchi yo'nalish – kasb tanlashda o'z imkoniyatlarini yuqori baholash, ya'ni shaxsning o'z kuchiga va qobiliyatlariga haddan ortiq baho berishi, har qanday qiyinchiliklarni yengishga o'zini tayyor deb o'ylashi, ko'tarinki ruhda orqa - oldini o'ylamay, ba'zan yengiltaklik bilan, har qanday to'siqlarga qarshi yurishdan qo'rqqanligi, o'ziga haddan ortiq ishonishi kabi xislatlari va barqaror e'tiqodlari ustanovkasi.

Beshinchi yo'nalish – kasb tanlashda boshqalarga bog'liqlik. Bu omil shaxsning ijtimoiy yetilmaganligidan dalolat beradi.

Keltirilgan fikr-mulohazalardan xulosa shundan iboratki, rivojlanayotgan shaxsning yaqin kelajakda ma'lum bir kasbga yoki faoliyatga yo'nalganligini ta'min etuvchi muhim individual-psixofiziologik va psixologik xususiyatlari majmuasi uning kasbiy muvofiqligini tashkil etadi. Yoshlarning o'z kasbiy yo'nalganlik xislatlarini chuqur tushungan holda faol izlanib,

bo'lajak kasbu-korni to'g'ri tanlashlariga imkon beruvchi ichki bir anglanilgan salohiyat majmuasi esa kasb tanlashga tayyorlik darajasini belgilab beruvchi omil sanaladi. Shaxsning kasbiy shakllanishida kasbiy yo'nalganlik va kasb tanlashga tayyorlik xislatlari birgalikda, bir butun holda rivojlanib, bir-birini taqozo etgan holda takomillashib borishi, bizningcha, yana muhim sifat, ushbu kasbiy ustanovkalar barqarorligini ta'minlashdir. Bunda bolani o'rab turgan muhit, u tarbiyalanayotgan muhitdagi shaxslararo va guruhlararo munosabatlarning roli kattadir.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2829-son qarori. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 11-son, 156-modda.
2. Karimova V.M. Kasbiy psixologiya. – T.: "Fan va texnologiya". 2013.
3. B.R.Qodirov, K.B.Qodirov Kasbiy tashxis metodikalari to'plami. Amaliyotchi psixologlar uchun metodik qo'llanma. – T.: O'zbekiston Milliy Universiteti. - 2003.
4. G'oziyev E.F., Asamova R.Z. Kasb psixologiyasi. – T.: "Universitet", 2000.
5. Немов Р.С. Психология / Учебник. – М.: Высшее образование, 2005.
6. www.psychology.net.ru

BULLING ISHTIROKCHILARIGA AMALIY YORDAM KO'RSATISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

N.M.Mullabayeva, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti dotsenti

Данная статья посвящена теме буллинга, причинам его возникновения и видам проявлений, а также оказания помощи жертвам травли.

Ключевые слова и понятия: буллинг, физический буллинг, словесный буллинг, кибербуллинг, социальный буллинг, подростки.

This article is devoted to the topic of bullying, the causes of its occurrence and types of manifestations, as well as providing assistance to victims of bullying.

Key words and concepts: bullying, physical bullying, verbal bullying, cyberbullying, social bullying, teenagers.

Hozirgi kunda ta'lim muassasalarida psixologik yordam ko'rsatish sohasida "bullying" tushunchasi juda tez-tez qo'llanilmoqda. Bulling inglizcha so'z bo'lib, u masxara qilish, ta'qib qilish, qo'rqitish ma'nolarini anglatadi. Ko'pgina bolalar tomonidan o'z vaqtida ukalari, singillari va do'stlarining g'ashiga tegish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Agar bunday holatlar o'yin paytida, do'stona va ikki tomonlama bo'lsa, bolalarga nisbatan salbiy zarar keltirilmaydi. Biroq so'z orqali masxaralar inson uchun haqoratli bo'lsa va ular salbiy, doimiy xarakterga ega bo'lsa, bunday xatti-harakatlarni to'xtatish zarur.

Bulling sabablari. Psixoterapevtik amaliyotda bullying qurbonlari haqida gap ketganda bullying ishtirokchilariga doir ko'plab xususiyatlar tahlil qilinadi. Psixologik konsultatsiyaga bullying ishtirokchilari ham, bullying qurbonlari ham kelishadi. Qanday sabablarga ko'ra bullying ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Asosan bullingning vujudga kelishi turli sabablarga bog'liq bo'lishi mumkin. Biroq u birinchi navbatda oiladagi munosabatlar jarayonida namoyon bo'lib, ularga shaxsning oila a'zolari tomonidan kamsitilishi, oiladagi zo'ravonlik va boshqalar kiradi. Oilada ota-onalarning farzandiga nisbatan e'tiborsiz munosabatlari

ham bullying kelib chiqishining asosiy sabablaridan biri sifatida qayd etilishi mumkin.

Bulling qurboni kim?

Maktabdagi zo'ravonlik qurboni bo'lib aksariyat holatlarda ikkichilar, a'lochilar, o'qituvchilarning sevimli o'quvchilari, jismoniy jihatdan zaiflar, ota-onalar tomonidan haddan tashqari e'tibor beriladigan bolalar, oiladagi zo'ravonlik qurbonlari, chaqmachaqlarlar, kasalliklarga ega bo'lgan bolalar va umuman, boshqalardan ajralib turadigan bolalar hisoblanadilar. Bulling qurbonlari sifatida eng qimmat gadjetga ega yoki gadjetga ega bo'lmaganlar, vunderkind (ya'ni o'ta iste'dodli bolalar), boshqacha fikrlaydigan bolalar bo'lishlari mumkin ekan.

Bulling qurbonlari shaxs xususiyatlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: aksariyat holatlarda zo'ravonlik qurbonlari bu – hissiyotga beriluvchan, o'zlarining zaifligini (qo'rquvi, alami yoki jahlini) ko'rsatadigan bolalar va o'smirlar bo'ladi. Ularning reaksiyalaridan kuch olgan agressorlar bunday bolalarga nisbatan zo'ravonlik qo'llovchi kuch sifatida ko'rsatiladi.

O'g'il bolalar aksariyat holatlarda maktabdagi zo'ravonlikning qurboni yoki tashabbuskori (amalga oshiruvchisi) bo'lishlari



mumkin ekan. Zo'ravonlik usullari jins xususiyatlariga ko'ra farqlanadi: o'g'il bolalarda asosan kuch ishlatish holatlari bilan bog'liq bo'lgan bullinglar amalga oshiriladi, qizlardagi bulling esa asosan har xil mish-mishlarni tarqatish tarzida namoyon bo'ladi.

Bulling holatlarida qurbon o'ziga nisbatan ishonchni yo'qotadi. Bulling turli-tuman psixosomatik kasalliklarni, psixik og'ishlarni keltirib chiqarishi, uning juda og'ir ko'rinishlari esa hattoki o'z joniga qasd qilishga ham sababchi bo'lishi mumkin. Ba'zi holatlarda bulling qurbonlari o'zlarining qurbon ekanligini anglatmasliklari ham mumkin. Bunday holatlarda uning bulling qurboni ekanligini, unga nisbatan zo'ravonlik ishlatilayotganligini tushuntirish zarur.

Bullingning asosiy ko'rinishlari

Quyida bulling ko'rinishlari, o'ziga xos jihatlari, kechish xususiyatlari hamda bullingga qarshi kurashish shart-sharoitlarini keltirib o'tamiz:

Verbal bulling bu – so'z orqali kamsitish, qo'rqitish, doimiy haqorat qilish, tahdid, noo'rin fikrlar, hurmatsizlik bilan (tashqi ko'rinishiga, diniga, etnik jihatlarga, nogironligi, kiyim-kechaklarining o'ziga xosligiga va b.) baho berish hisoblanadi. Masalan, bir bola ikkinchi bolaga nisbatan: "Sen onangga o'xshagan juda semizsan" deb aytishi mumkin.

Xarakterli ko'rinishlari: verbal bullingga uchragan bolalar odamovi bo'lib qoladilar, yolg'izlikka intiladilar, ishtahaning pasayishi kuzatiladi. Ularga nisbatan aytilgan kamsituvchi so'zlarni boshqalarga aytib, "Shu rostmi?" - deb so'rashlari mumkin.

Nima qilish kerak: birinchidan farzandingizni hurmat qilishga o'rgating, har qanday inson yaxshi munosabatga loyiq ekanligini tushuntiring, o'qituvchilarga tashakkur ayting, do'stlarini yaxshilashga harakat qiling, hych kimga nisbatan kamsituvchi munosabat bildirmang. Bolalarga o'zini hurmat qilishni o'rgating va o'zining kuchli tomonlarini ko'rsatishga harakat qiling. Eng yaxshi himoya bu – bolalarda o'ziga nisbatan hurmatni oshirish, bolaning mustaqilligini shakllantirish, zarur bo'lsa, kerakli chora-tadbirlarni qo'llashni o'rgatishdir. Maktabdagi sinfdoshlarining alamli so'zlariga va faoliyatiga nisbatan qanday javob qaytarishini muhokama qiling va ko'rsatib bering. Birgalikda zo'ravonga nisbatan qo'llaniladigan javoblarni o'ylab toping, bola o'ziga ishonch bilan quyidagi so'zlarni aytib o'tishi mumkin: "Sening so'zlaring yoqimsiz", "Meni tinch qo'y" va shunga o'xshash so'zlar.

Jismoniy bulling – bolalarga nisbatan jismoniy kuch ishlatish bilan bog'liq bo'lgan bulling turi hisoblanadi. Asosan, turtish, tepish, itarish istalmagan joyiga tegish tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, bolalar jamoat joyida bo'lganda ularning yubka yoki shimlarini yechishga urinishadi.

Xarakterli ko'rinishlari: ko'pincha bunday holatlar ro'y berganda bolalar ota-onalariga bu haqida og'iz ochmaydilar, shu sababli ham bolalardagi fiziologik, psixologik o'zgarishlarga e'tibor bilan qarash zarur, masalan, qae'ridadir qirilgan, ko'kargan, lat yeyish holatlari, kiyimlarida yirtiq joylari mavjudligiga alohida ahamiyat berish kerak. Bunday holatlarda bolalar tez-tez bosh og'rig'i, qorin og'rig'idan shikoyat qiladilar.

Nima qilish kerak: agar siz o'z farzandingizga nisbatan bulling qo'llanilayotganidan shubhalansangiz, u holda tasodifiy suhbatni boshlang, maktabda ishlar qanday ketayotganini, tanaffusda va uyga qaytish vaqtida nimalar bo'lganini so'rang. Savollarga javob berish vaqtida kunning qaysi vaqtida unga nisbatan jismoniy bulling bo'lganini noverbal xatti-harakatlar orqali anglash mumkin. Yoki maktabda unga nisbatan qandaydir kuch ishlatishlar bo'layotganligi yoki bo'lmayotganligi haqida so'rashingiz ham mumkin. O'z emotsiyalaringizni boshqarishni

o'rganing. Bolaga ota-ona, sinf rahbari va maktab psixologi bilan ochiq gaplashish muhimligini tushuntiring. Bu holatlarning qachon bo'lganligini, nechta bola ishtirok etganligini, ularning reaksiyalarini hujjatlashtirishga harakat qiling. Zo'ravon bolaning ota-onalariga murojaat qilmang, bu muammoni ular bilan yechishning iloji yo'q. Agar farzandingizga nisbatan jismoniy bulling davom etayotgan bo'lsa, qo'shimcha yordamga, mahalliy huquq-tartibot bo'limlariga murojaat qiling. Qonun mavjudligi va bolalar qonun ximoyasi ostida ekanligini tushuntiring.

Sotsial bulling ijtimoiy faoliyatga nisbatan qo'llaniladigan bulling bo'lib, bolalarni ajratib qo'yishga intilish bilan bog'liq bo'lgan xulq-atvor ko'rinishlari hisoblanadi. Ular quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin: guruhiiy faoliyatlarga, ovqatlanishga, jamoaviy o'yinlarga, sport bilan shug'ullanishga, jamoat ishlariga yaqinlashtirmaslik va h.k.z. Masalan, sport to'garagidagi qizlar tug'ilgan kunni muhokama qilishmoqda. Ular rasmlarni bir-biriga ko'rsatishmoqda, guruhdagi bitta qizga nisbatan mutlaqo e'tibor bermayaptilar va u qizni guruhda yo'qdek qabul qilmoqdalar.

Xarakterli ko'rinishlari: o'z farzandingizning kayfiyatini kuzatib, tengdoshlari bilan ma'lum bir tadbirlarda ishtirok etmaslik holatlarini tahlil qiling, yolg'izlikka intilishning namoyon bo'lishi ularning sotsial bullingga duch kelayotganlaridan darak berishi mumkin. Sotsial bulling, asosan, qizlarda ko'proq namoyon bo'ladi. Ularga nisbatan ko'pincha noverbal yoki emotsional qo'rqitish holatlari qo'llanilishi mumkin. Bunday bullingning psixologik jarohati jismoniy bullingnikiga nisbatan yuqori bo'lishi va bu holat uzoq muddat saqlanib qolishi mumkin.

Nima qilish kerak: bolalar bilan har kuni kechqurun kunning qanday o'tganligi haqida so'zlashing, kun davomida bo'lgan ijobiy va salbiy hodisalar haqida so'rang. Farzandingiz bilan birgalikda ijobiy tomonlarni izlang, farzandingizning yutuqli tomonlarini ko'rsatishga intiling, uni sevuvchi insonlar mavjudligini ongiga singdiring. Ularning qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlashga harakat qiling, zero, bolalar maktabdan tashqari vaqtlarda ham ijtimoiy aloqalar o'rnatishni o'rganishlari zarur.

Kiberbulling – kiberqo'rqitish elektron pochta, matnli xabarlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil mish-mish tarqatish, yolg'ondan ayblash, haqorat qilish va tahdid qilish hisoblanadi. Bolalarga nisbatan irqiy, diniy, etnik kamchiliklariga nisbatan ta'sir ko'rsatish albatta bolalarning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan: ijtimoiy tarmoqlar orqali quyidagi matn keltirilishi mumkin: "Zafar omadsiz bola. Kimdir u bilan gaplashayotganligining o'zi ahmoqlik".

Xarakterli ko'rinishlari: farzandingizni ijtimoiy tarmoqlarda va internetda vaqtini ko'p sarflashi yoki sarflamasligini kuzatib, internet orqali vaqtini o'tkazganda uning kayfiyati qanday ekanligiga e'tiborni qarating. O'z kompyuteri, telefoni yoki planshetida yoqimsiz xabarlarini o'qiganda va buning natijasida ularning kayfiyati tushishi ham kiberbulling sodir bo'lganligidan guvohlik berishi mumkin. Bolalarning uyqusi tinch yoki notinchligiga e'tiborni qarating, uyda qolishni afzal ko'rishi, yolg'izlikka intilishini kuzatib boring.

Nima qilish kerak: haqorat mazmunidagi xabarlar anonim va juda tez tarqala boshlaydi, bu esa doimiy ravishda kiber qo'rqitishga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, internetdan foydalanishning tartib-qoidalarini ishlab chiqish zarur. Farzandingizning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda u bilan kelishib oling. Mashhur bo'lgan saytlarning barchasidan xabardor bo'lishga intiling. Farzandingiz mesenjerlardan foydalanishidan avval qanchalik xavfsizligini tekshiring. Farzandingiz uning xabarlarini kuzatishingizdan xabardor bo'lsin. Agar u kiberbullingga uchrasa, u shu xabarlariga javob bermaslikka intilishini ta'minlang. Faqat



kiberbullingga uchragan vaqtda aybdorga xabar nashr qilingan vaqt va soati qayd etilganligini, unga nisbatan ogohlantirish berilishini tushuntiring. Kiberbulling haqida maktabga va internet provayderlariga xabar bering. Agar kiber qo'rqitish haddan oshib ketsa va jinsiy xarakterga ega bo'lsa, huquq-tartibot organlariga xabar bering.

Bulling haqida qanday gaplashish lozim?

Agar farzandingiz bullingga uchragani haqida so'zlasa, uni diqqat bilan tinglashga harakat qiling, bunga kuch topib ayta olgani uchun undan faxrlanishingizni ayting va bu bo'yicha ma'lumotlarni to'plashga intiling (bunda hych qachon farzandingizni ayblamaslikka harakat qiling). Chaqma-chaqarlik va to'g'ri gapni aytish o'rtasidagi farqlarni ko'rsatishga intiling, bunda har doim katta kishilardan yordam olish mumkinligini tushuntiring.

Bolalar bilan bulling haqida so'zlashish usullaridan yana biri bu – filmlar bo'yicha, bu usul oilaviy tarzda shu mavzudagi kinofilmlarni tomosha qilishni nazarda tutadi. Kinofilmlarni tomosha qilish jarayonida farzandingizning sinfida sodir bo'layotgan voqyealarni tahlil qilishga harakat qiling.

Xulosa qilib aytganda, bulling ishtirokchilariga amaliy yordam ko'rsatish, xususan, haqoratga, bullingga nisbatan har doim chora ko'rishga harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bulling zo'ravonlik bilan birgalikda sodir bo'ladigan bo'lsa, buni albatta maktab o'qituvchilari, sinf rahbari yoki maktab direktori bilan muhokama qilish va doimiy nazorat ostiga olish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Гришина Т.Г. Исследование буллинга среди школьников: обзор зарубежных исследований. Современная прикладная психология: теория и практика: сборник статей Международной научно-практической конференции: в 2 т. / под ред. Т.Н. Мельникова, Н.Т. Колесник. Т. 2. – М.: ИИУ МГОУ, 2017. С. 14-17.
2. Джимерсон С.Р. и др. Справочник по вопросам школьного насилия и школьной безопасности: международное исследование и практика. Нью-Йорк, 2012.
3. Екимова В.И., Залалдинова А.М. Жертвы и обидчики в ситуации буллинга: кто они? Современная зарубежная психология, 2015. т. 4. № 4.
4. Петросянц В.Р. Психологические характеристики старшеклассников, участников буллинга в образовательной среде // Письма в Эмиссия. Оффлайн (The Emissia. Offline Letters): электронный научный журнал. Ноябрь 2010, ART 1479. - СПб., 2010 г. – URL
5. Эрлинга Руланна «Как остановить травлю в школе: Психология моббинга» / Пер. с норв. – М.: Генезис, 2012.
6. Mullabaeva N. M., Kadirov K.B., Boymirzaeva D.D., Bondareva E. V. Relationship Between Propensity To Risky Behavior and Psychogeometrical Types Of Personality // European Journal of Molecular & Clinical Medicine ISSN 2515-8260 Volume 07, Issue 01, 2020

OTA-ONALAR VA BOLALAR O'ZINI-O'ZI ANGLASHINING MUTANOSIBLIGI MUAMMOSI

O'z.B.Shamsiyev, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)

В статье утверждается, что в системе социальных представлений о личности восприятие ребенком себя и своих качеств является, прежде всего, важным механизмом определения своего места и статуса в обществе, его содержание составляет основу общественных отношений и социального поведения.

Ключевые слова и понятия: мать, младенец, ребенок, самосознание, понятие «Я», образ «я», эмоциональная реакция, факторы, влияние.

The article states that in the system of social ideas about the personality, the child's perception of himself and his qualities is, first of all, an important mechanism for determining his place and status in society, its content forms the basis of social relations and social behavior.

Key words and concepts: mother, infant, child, self-awareness, the concept of «I», the image of «I», emotional reaction, factors, influence.

Yangi O'zbekistonda ko'plab yangi sohalar qatori oilaviy munosabatlar, aholiga psixologik maslahatlar berish hamda psixologik xizmat sohasini rivojlantirishga xizmat qiladigan tadqiqotlarga bo'lgan muayyan ehtiyoj tobora ko'proq sezilmoqda. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi".¹ Shundagina oiladagi ota-ona va farzandlar o'zini-o'zi anglash darajalari ham o'zaro mutanosiblikda shakllanadi. Shuning uchun ham oiladagi o'zini-o'zi anglash muammolarini tadqiq etib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

¹ <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-oila-kichik-vatan>

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ota-onalarning o'ziga va farzandiga bo'lgan munosabatlarini bilish va baholash xususiyatlarini tadqiq etish maqsadida T.V.Dembo-S. Ya.Rubinshteyn metodikasida keltirilgan shkalalar asosida "aql", "chiroy", "salomatlik", "omad", "baxt", "xarakter" mezonlari bo'yicha natijalarni tahlil etildi. Quyida keltirilgan 1-jadvalda ota-onalarning o'zini va o'z bolasi tomonidan baholanishi darajasiga oid ma'lumotlar keltirilgan[3]. Ma'lumki, bunda baholar uch darajada, baholash jami 10 balli shkala bo'yicha o'tkazilib, quyidagi darajalar belgilangan: 0-3 past, 4-6 o'rta, 7-10 baland.

Tadqiqotda ota-onalarning o'zini-o'zi baholashi hamda



farzandlariga bergan bahosini uch tomonlama tahlil etib, ularning test me'yorlariga muvofiq namoyon bo'lish darajasini foizlar hisobidan ajratish, natijalar orasidagi ishonchliklikni topishga e'tibor qaratildi.

Natijalarga ko'ra, ota-onalarning o'z bolasini baholashi quyidagicha taqsimlandi: $W_n = \text{ona } 5-10$, ota $5-9$ ball. Ota-onalarning o'zlarini baholashlari esa $W_n = \text{ona } 4-9$, ota $4-9$ ball. O'zini va bolasini baholashdagi farq – $W_n = \text{ona } 1-4$, ota $1-4$ ballni tashkil etib [3], ota-onalarning baholash darajalari ko'proq o'rtacha darajada, farzandlarning ota-onalarini baholashlari esa yuqori darajalarda ifodalandi.

Alohida tahlillar ota-onalarning o'z bolalarini "salomatlik", "chiroy", "omadlilik", "xarakter", "baxt" va "aql" tavsifnomalari bo'yicha baholashlari darajasi ularning xuddi shu xislat va xususiyatlar bo'yicha o'zini baholashiga nisbatan 1-4 ballga balandroq ekanligi ma'lum bo'ldi. Bolalarni baholashning umumiy darajasi 5-10 ball oralig'ida bo'lib, o'zini baholash esa 4-9 ball atrofida [3]. Ota-ona o'zini baholashiga nisbatan bolasini baholashi ortishi o'rtacha ko'rsatkichi 1,6 yoki taxminan 2 ball atrofida bo'ldi.

Natijalarga ko'ra, ota-onalarning ikki guruhi ajratib ko'rsatilgan: o'zini o'rtacha baholaydiganlar o'rtacha 58,5 foizni tashkil etdi, ulardan 53foizi onalar bo'lib, qolgani otalardir. O'zlarini yuqori – baland baholaydiganlar o'rtacha 40,15 foiz bo'lib, ularning orasida onalar salmog'i otalarnikidan ortiqroq – 47 foizni tashkil etdi. Oxirgilar orasida o'z bolasini o'rtacha baholaydiganlar – 10 foizni va yuqori – baland baholaydiganlar – 90 foizni tashkil etadi. Otalarning orasida o'zlarini o'rtacha baholaganlar 64 foizni; yuqori baholaganlar 36 foizni tashkil etgan bo'lsa, shu otalarning 16 foizi o'z bolasini o'rtacha va 84 foizi yuqori – baland ballarda baholovchilardir [3]. Shunday qilib, yuqoridagi ma'lumotlar asosida ishonch hosil qildikki, o'zini o'rtacha baholovchi ota-onalar ham o'z bolasini "sog'lik, chiroy, aql va xarakter" ko'rsatkichlari bo'yicha ham, "omad va baxt" ko'rsatkichlari bo'yicha ham o'ziga nisbatan yuqori baholaydi [4]. Otalar va onalarning o'z bolasini baholashlari baribir nisbatan o'xshash bo'lib, bu holat nuklear oilaga juda xosdir, lekin absolyut raqamlar tahlildan kelib chiqsak, otalarning o'zini baholashlari onalarnikidan biroz past, bolasini tavsiflashi ham biroz pastroqdir.

Natijalar tahlilining ikkinchi miqdoriy ifodasi quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Unga ko'ra, ota-onalarning o'ziga-o'zi va bolalariga munosabatlari bahosida o'ziga xos ma'lumotlar olishga erishildi, deyish mumkin.

1-jadval

Ota-onalarning o'ziga-o'zi va bolalariga munosabatlari

	Onaning o'zini-o'zi baholashi	Otaning o'zini-o'zi baholashi	Onaning bolasiga bahosi	Otaning bolasiga bahosi
X	6,55	6,11	8,00	7,81
σ	2,04	1,88	1,49	1,71
t	2,84*		-0,128	

Izoh: * $p < 0.01$

Ota-onalarning o'zini va farzandlarini baholashidagi farqlarni topish maqsadida amalga oshirilgan miqdoriy tahlil va natijalarda keskin tafovutlanuvchi holatni deyarli uchramadi.

Chunki, onaning o'ziga bahosi 6,55 ball, otaning bahosi esa 6,11 ballni tashkil etgan sharoitda farzandlariga berilgan baholarida ham nisbiy tenglik o'rin olganligining guvohi bo'ldik: onaning bolasiga bergan bahosi 8,00 ball va otaning farzandiga bergan bahosi 7,81 ballni tashkil etadi [3]. Natijalarning bunday farqli munosabatni aks ettirmaganligining sababini ota-ona o'z farzandiga munosabati orqali tarbiyaviy ta'siri, o'zining orzu-niyatlarini ko'rishga harakat qilishi bo'lsa, ikkinchidan, farzandiga beriladigan baho uning o'ziga beriladigan bahoning yana bir ko'rinishi sanaladi. Ota-onaning farzandiga bergan bahosida ota-onaning o'z shaxsiga bergan bahosi ("Men"iga), oilaviy muhitga (qadriyatlariga) va faoliyat natijalari (farzandini tarbiyalashga ko'rsata olgan ta'siri)ga qaratilgan deb xulosalash mumkin. O'z o'rnida ushbu mulohaza baholashlarning ichki bog'lanishlarini o'rganish statistik tahlilida ham o'z aksini topdi (2-jadal).

3.2.2-jadal

Ota-onalarning o'zini-o'zi va bolalariga munosabatlarining interkorrelyatsiyasi (n=85)

	Ota-onalarning o'zini-o'zi baholashi va bolaning baholari	Onaning o'zini-o'zi baholashi	Otaning o'zini-o'zi baholashi	Onaning bolasiga bahosi	Otaning bolasiga bahosi
1.	Onaning o'zini-o'zi baholashi	1	0,451**	0,580**	0,487**
2.	Otaning o'zini-o'zi baholashi		1	0,355**	0,362**
3.	Onaning bolasiga bahosi			1	0,368**
4.	Otaning bolasiga bahosi				1

Izoh: ** $p < 0.01$

Ota-onalarning o'zini va farzandini baholashidagi ichki korrelyatsiya deyarli yaqqol ijobiy bog'lanishdagi koeffitsientlarda ifodalandi. Onaning o'zini-o'zi baholashi boshqa ko'rsatkichlar bilan ($r=0,451$, $r=0,580$, $r=0,487$; $p < 0.01$); otaning o'zini-o'zi baholashi ham ($r=0,355$, $r=0,362$, $p < 0.01$); onaning farzandiga bergan bahosi ham ($r=0,580$, $r=0,355$, $p < 0.01$); otaning farzandiga bergan bahosida ham ($r=0,487$, $r=0,362$, $r=0,368$; $p < 0.01$) ijobiy ichki korrelyatsion bog'liqlik kuzatildi [3]. Natijalarning bunday tus olishining o'ziga xos psixologik sabablari bo'lishi, tabiiy, ya'ni oilaning bola ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatuvchi institut ekanligi ota-onaning ta'siri orqali o'zini anglashiga, dastlabki ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishiga olib kelishi bilan bog'liq. Natijalarning bunday bo'lishida oilaviy muhit, ota-onaning farzandiga munosabatida bolalikning dastlabki davrlaridayoq o'ziga ishonchni, mustaqillikni, atrofdegilar bilan munosabatda faol va vazmin bo'lish, vaziyatlarni tahlil etishga o'rgatishi asosidagina erishiladi [1], deyish mumkin. Bu holat tarbiya muhiti psixologik qonuniyatlarga tayanib olib borilayotgan oilalarda ko'proq uchrashini e'tirof etamiz.

Demak, onaning hissiy-emotsional yaqinligi o'z bolasini afzal sifatlar egasi sifatida tasavvur qilishiga imkon beradi, ayni shunday munosabat bolalar munosabatida qanday aks etishiga e'tibor qaratamiz.

Bundan asosiy maqsad maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolaning o'zini baholashi, uning uchun ahamiyatga ega bo'lgan



boshqa shaxslar baholashi bilan bog'liq holda shakllanish xususiyatlarini o'rganish hisoblanadi. Dembo Rubinshteyn shkalasida baholashning verbal omillari bilan o'zaro yaqin darajada bog'liq bo'lgan varianti yordamida ayni paytda o'zini baholashi, uning vaqt bo'yicha ekstrapolyasiyasi va kutilayotgan ota-onalar bahosi tahlil qilingan. O'zini baholash mezonlari sifatida quyidagilardan foydalanilgan: "yaxshi – yomon", "chiroyli – xunuk", "aqli – aqlsiz", "uquvli – uquvsiz", "baxtli – baxtsiz". O'zini baholashda fikrning asoslanishiga, baholash mulohazalarining chuqurligi va turli-tumanligiga e'tibor qaratildi [3]. Sinalayotgan shaxslarni beshta shkala bo'yicha baholashdan olingan natijalarga qarab taqsimlash quyidagi jadvalda keltirilgan raqamlarda umumlashtirilib ifodalangan (3-jadval).

3-jadval
Bolaning o'zini-o'zi baholash natijalari (n=85)

Munosabat pog'onasi		X	σ	t
Bolaning o'z "Men"iga munosabati	Men-hozirda	4,87	0,41	2,12
	Men-ilgari	4,60	0,73	1,75
	Men- kelajakda	5,00	0,00	0,75
Boshqalarning bola "Men"iga munosabati	Ona	4,81	0,39	1,75
	Ota	4,85	0,35	0,71

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarning aksariyati (96,7%) o'zini ayni holatini qoniqlik hisoblaydi, bunda 90 foiz bolalar o'zini "juda yaxshilar", 6,7 foiz bolalar esa "yaxshilar" qatoriga kiritgan [3]. Ko'rib turibmizki, bu yoshdagi bolalarda "juda katta Men" bo'lib, o'zini baholashi adekvat emas.

Bolaning o'zini u yoki bu pog'onaga joylashtirishi asoslarini aniqlash natijasida qiziqarli ma'lumotlar aniqlandi. Masalan, o'zini beshinchi pog'onaga joylashtirgan bolalar o'z tanlovini izohlash uchun quyidagi dalillardan foydalandi: "Men yaxshiman", "Men quloq solaman", "Men chiroyliman", "Men baxtliman" va hokazo. O'zini "juda ham yaxshi" deb hisoblamaydigan kam sonli bolalar "Chunki mening qo'lmdan doim ham hamma narsa kelavermaydi", "Men hali hamma narsani qila olmayman", "Men eng chiroyli emasman", "Ba'zida men quloq solaman, ba'zida esa – yo'q" deb aytishgan. Shuni qayd etib o'tish kerakki, "yaxshi" tushunchasi bolalar uchun 50foizdan ortiq holatlarda "quloq soluvchan" tushunchasi bilan, "baxtli" atamasi esa "quvnoq" atamasi bilan bir xil ma'noni anglatadi. Pog'onani tanlashning qoniqsiz, yuzaki "bilmayman", "men shunday istayman" izohlarini 10 foiz bola bergan [3]. Bu yerda shuni aytib o'tish joizki, "uquvli-uquvsiz" toifasi bo'yicha boshqacha holat kuzatiladi, bolalarning 90 foizi o'zini II pog'onaga qo'yib, o'zini baholashning ob'ektivlikka biroz bo'lsa-da, yaqinlashayotganligini namoyish etadi. Bolalarning o'zi uchun ahamiyatga ega bo'lgan kattalar tomonidan baholanishi ko'proq differensiyalangan bo'lib, har bir bola o'z ota-onalarini ularga nisbatan o'ziga xos munosabatdadir, deb hisoblashadi, onaning bahosi bola uchun o'z bahosidan biroz pastroq ahamiyat kasb etadi. Onaning baholashi va pog'onani tanlash motivatsiyasi bola tomonidan bashorat qilinganda, bolaning onaga munosabatini namoyish etadi [5]: "Onam meni dunyoda hammadan ko'proq yaxshi ko'radi", "Onam menga doim sen eng aqllisan deb aytadi", – 4-5 pog'ona, "Ba'zida men onamga quloq solaman, ba'zida esa – yo'q" – 3 pog'ona. Bolaning o'zini ota tomonidan baholashi bizning tadqiqotda ona tomonidan baholashidan unchalik

farq qilmagan: "Otam ham meni hammadan ko'proq yaxshi ko'radi", bolalarning o'zini otasi tomonidan salbiy baholashini izohlashi esa "uzoqlashish va bo'ysundirishga talabchanligi" bilan tavsiflanadi; faqat 10 foiz bolalar otasining ijobiy tavsifnomasini bergan va 20 foizi otasi nuqtai nazaridan o'ziga munosabatni izohlab bera olmagan.

Shuningdek, Dembo-Rubinshteynning metodikasidagi ma'lumotlar bolaning psixik rivojlanishi hamda ijtimoiylashuvida "Men"iga munosabatini ruhiy rivojlanishining uch davri orqali tahlil berishlikni taqozo etmoqda. Bu esa bolaning "O'tmishdagi Men", "Hozirgi (real) Men"i va "Kelajak Men"lari orasidagi o'zaro bog'liqlik va tafovutlarni kuzatishga imkon beradi. Natijalarning birlamchi tahlilida bolaning o'zini-o'zi baholashi bilan ota-onaning farzandiga bergan baholaridagi o'zaro mutanosibligining guvohi bo'lamiz. Ularning natijalarida ota-ona farzandining kechinmalari bilan o'zining tuyg'ularini uyg'unlashtira olgan [3]. Shuningdek, ota-onaning farzandiga bergan bahosida ham keskin differensiallashuv kuzatilmadi. Natijalarning bunday tus olganligi bir tomondan bola "Men"ining ikki davri, ya'ni "Hozirgi" va "O'tmish Men"i o'rtasida o'zaro moslikka ega deyishimizga asos bor. Chunki bola ushbu davrlarda ijtimoiy muhit ta'sirida bo'lgan, shaxsi shakllanishida har xil o'zining yoshiga xos emotsional va xulqiy jihatlarga xos ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlarni boshdan kechirgan[6]. Bu esa bolaning baxt va baxtsizlik, yaxshi va yomon, salomatlik yoki kasallikka aloqador munosabatlarini individual tarzda ifodalay olishidan hamda o'zini anglashiga imkon beruvchi taassurotlar manbaiga egaligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. – T.: "Fan va texnologiya". 2008.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: Darslik. – T.: "Fan va texnologiya". 2012.
3. Shamsiyev O.B. Oilada maktabgacha yoshdagi bola shaxsi o'zini-o'zi anglashining ijtimoiy-psixologik omillari: Psixol. fanlar nomzodi... diss. – T.: 2010.
4. Shamsiyev O.B. "Oilaviy munosabatlar tizimida bolaning o'zini-o'zi anglash jarayoni" O'quv-uslubiy qo'llanma "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2012,
5. Shamsiyev O.B. "Bolaning o'zini-o'zi anglash muammosi" O'quv-uslubiy qo'llanma "Tafakkur" nashriyoti, 2012.
6. Shamsiyeva M.B. Umumiy tilshunoslik kursi / Ferdinand de Sossyur. Rus tilidan tarjimai; mas'ul muharrir H. Boltaboev. – T.: "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2017.



MAKTABDA O'ZLASHTIRMASLIK MUAMMOSIGA PSIXOLOGIK VA NEYROPSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

L.M.Maxkamova, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti o'qituvchisi

В статье проанализированы проблемы неуспеваемости в школе учеников младшего школьного возраста с точки зрения психологических и нейропсихологических подходов. Изложены факторы, приводящие к неуспеваемости в школе, психологические особенности неуспевающих учеников.

Ключевые слова и понятия: младший школьный период, неуспеваемость, ученики, психология, нейропсихология, подходы, диагностика, коррекция.

The article analyzes the problems of underachievement in school of primary school age students from the point of view of psychological and neuropsychological approaches. The factors leading to failure in school, psychological characteristics of failing students are described.

Keywords and concepts: primary school period, academic failure, students, psychology, neuropsychology, approaches, diagnostics, correction.

Kichik maktab yosh davri inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etishi hyech kimga sir emas. Uning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz shakllanishiga inson hayotidagi juda ko'p narsalar, jumladan, uning shaxsiy sifatleri ham bog'liq bo'ladi. yetuklik davridagi insonlarning juda ko'p muammolarini ularning maktabda o'qish yillariga murojaat qilgan holda yaxshiroq tushunish imkoniyati bo'ladi. Bir qator olimlar fikriga ko'ra, insonning maktabda qanchalik muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz o'qishi emas, balki u maktabda o'zini qanchalik qulay his qilgani, maktabga qanday kayfiyatda borgani, o'qituvchilar va sinfdoshlari bilan munosabatlari qanday shakllanganligi uning hayotida muhim rol o'ynaydi. Aynan shu holatlar ta'siri ostida uning psixologik xususiyatlari shakllanadi. Ko'pincha bu o'quvchining o'ziga emas, balki uning jamiyatga munosabati, maktabda o'qishdan maqsadi, o'z vazifalarini qanchalik his qila olishiga bog'liq bo'ladi.

Bugungi kunda bolalarni ta'lim tizimiga erta jalb qilish, uning kognitiv xususiyatlarini rivojlantirish dolzarb masala sifatida nafaqat pedagoglar, balki psixologlar oldiga ham bir qator vazifalarni yuklamoqda. Ota-onalar ham farzandlari kelajakda yaxshi inson bo'lishi uchun har tomonlama bilimli bo'lishlarini istaydilar va bu yo'lda ularni ta'lim jarayoniga ertaroq berishga harakat qilmoqdalar. Biroq har doim ham bola maktabga chiqqanda yaxshi o'zlashtiravermaydi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'zlashtira olmaslik muammosi ko'ndalang turadi [1,2,4,6].

Maktabda o'zlashtirmaslik muammosiga to'xtalar ekanmiz, avvalambor qanday o'quvchini o'zlashtirmovchi, deb hisoblash mumkin degan savolga javob berishimiz va qanday sabablar o'qishdagi qiyinchiliklarga olib kelishi mumkinligini aniqlab olishimiz lozim.

O'zlashtirmovchi o'quvchi – bu boshqa bolalarga nisbatan bilim, ko'nikma, malaka, fikrlash tezligini namoyon qila olmaydigan boladir. O'qishda orqada qoluvchi bolalar intellektini maxsus tadqiq etishlar shuni ko'rsatdiki, asosiy intellektual ko'rsatkichlar bo'yicha ular yaxshi o'zlashtiradigan o'quvchilardan xattoki yaxshiroq ko'rsatkichga ega ekanlar [6]. O'zlashtirmaslik deganda, shunday vaziyat tushuniladiki, unda o'qishdagi natijalar va xulq maktabning tarbiyaviy va didaktik talablariga javob bermaydi. O'zlashtirmovchi o'quvchi o'qish, hisoblash, yozish, tahlilning intellektual malakalari, umumlashtirishni zaif egallagan bo'ladi. Sistematik o'zlashtirmaslik shaxsda salbiy sifatlarining yuzaga kelishiga olib kelishi tadqiqotlarda isbotlangan. Bunday

bolalar ko'pincha maktabni tashlab ketadilar va xavfli guruhlariga qo'shib qoladilar. Shuning uchun o'zlashtirmaslik murakkab va va ko'p qirrali hodisa bo'lib, uni o'rganishga turli yondashuvlar talab etiladi.

O'zlashtirmaslik o'quvchilarning maktabdagi majburiy ta'lim talablariga mos holda tayyor emasliklari, bilim, ko'nikma, malakalarning yetarlicha rivojlanmaganligi, ijodiy faoliyat tajribasi va bilish munosabatlarining tarbiyalanganligi shakllanmaganligi bilan xarakterlanadi. O'zlashtirmaslikning oldini olish uning barcha elementlarini o'z vaqtida izlab topish va bartaraf etishni taqozo etadi.

Bir qator tadqiqotchilar maktabda o'zlashtirmaslik asosida bir emas, bir nechta omillar majmuasi yotishini ta'kidlaydilar. Ular orasida quyidagilar sanab o'tiladi:

- dars berish metodlarining takomillashmaganligi;
- pedagog bilan pozitiv aloqaning yo'qligi;
- boshqa o'quvchilardan yaxshiroq bo'lib qolishdan qo'rqish;
- qandaydir konkret sohada iqtidor bo'lishi;
- fikrlash jarayonlarining shakllanmaganligi va h.k.z.
- bola jismoniy salomatligining yaxshi emasligi, surunkali somatik kasalliklar bilan xastalangan bo'lishi;
- oiladagi ijtimoiy-psixologik vaziyat va h.k.z.

Barqaror o'zlashtirmaslik odatda turli omillar majmuasi orqali yuzaga keladi, masalan, nutq rivojlanishidagi kamchiliklar, ish qobiliyatining zaifligi va boshq. Bu barcha buzilishlar bosh miyadagi yengil organik yetishmovchilik, markaziy nerv sistemasidagi turli darajadagi yetishmovchiliklar natijasidir. Ular bosh miya qon aylanishi yetishmovchiligiga chalingan, bosh miyada ichki gipertenziyasi bo'lgan, bosh miyada jarohatlarni kechgan yoki meningit, ensefalit, revmatizm kabi kasalliklarga chalingan bolalarda kuzatiladi.

Bunday buzilishlarning asosiy ko'rinishlari bosh og'rig'i, harakatning tormozlashgani yoki giperaktivlik, diqqat konsentratsiyasining yetishmasligi, sensor qo'zg'atuvchilarni ko'tara olmaslik (shovqin, yorqin yorug'lik), uzoq muddat aqliy zo'riqishga qodir bo'lmaslik, materialni o'zlashtirish maromining sustlashuvi, bir topshiriqdan ikkinchisiga o'tish, esda olib qolishdagi qiyinchiliklarda namoyon bo'ladi.

Ommaviy maktablarning boshlang'ich sinflaridagi kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, dars davomida organik xarakterdagi buzilishlar oqibatlarini xulq-atvor o'zgarishlari ko'rinishida yaqqol ko'zga



tashlanadi. Giperaktiv bolalar doim qo'zg'alib turish, partadagi sinfdoshlariga o'girilib olish, darsliklari, qamlari, chizg'ich va boshqa shunga o'xshash o'quv qurollarini taraqturu qilish holatida bo'ladi. Ular istagan paytda darsdan chiqib ketadilar, darslik o'miga konfet olib yeb o'tirishlari, gaplashib o'tirishlari, pedagog tushuntirishlariga quloq solmasliklari mumkin. Esda olib qolishning buzilishi, alohida so'zlarning qisqa muddat ichida tushib qolishi (dinamik amneziyalar, tomirdagi sklerotik o'zgarishlar) shunda ko'rinish turadiki, o'quvchi ba'zan esda saqlaydi, ba'zan esdan chiqaradi, ba'zan to'g'ri javobni o'rinda o'tirgan joyida baqirib aytib yuborishi mumkin.

Shunday qilib bosh miyada minimal disfunktsiyaga ega bo'lgan bolalar o'quv bilimlari zahirasiga ega bo'lmaydilar, yangi materialni o'zlashtira olmaydilar, o'z xotiralarini mashq qilmaydilar, uzoq muddat bir ish bilan maqsadga yo'nalgan holda mashg'ul bo'la olmaydilar. Natijada bunday bolalar dasturiy materialni to'liq ko'lamda o'zlashtirmaydi, o'quv ko'nikmalarini egallash jarayoni keskin buziladi, maktabdagi o'zlashtirmaslik barqaror tus oladi. Bunday bolalarda o'qitishning dastlabki bosqichlarida kayfiyatning tebranishi qaysarlik, beqarorlik, sustkashlik, uyquchanlik, yig'loqilikda namoyon bo'ladi. Bunday qarama-qarshi yo'nalishdagi jarayonlarning bir vaqtdagi birikmasi klinikada serebral asteniya yoki "qo'zg'aluvchan zaiflik" deb ataladi. Maktabdagi mashg'ulotlarda vaqtda bunday bolalar xulq atvorida keskin o'zgarishlar kuzatiladi.

O'zlashtirmaslikni tushuntirishga pedagogik yondashuvlardan tashqari psixologik yondashuvlar ham mavjud. Ular quyidagilar:

Psixologik yondashuv. Maktabda o'qishdagi qiyinchiliklar diagnostikasiga bunday yondashuv maktabdagi o'zlashtirmaslikni polikauzal shartlanganlik bilan bog'lagan holda, o'qishdagi qiyinchiliklarni birinchi navbatda o'quvchining kognitiv-shaxslilik rivojlanishidagi kamchiliklarni konkret sabab sifatida baholaydi. Makur yondashuv har qanday psixik hodisaning 2 ta darajasini ajratadi: uning tashqi namoyon bo'lish darajasi (pedagogik) va ichki psixologik jarayonlar darajasi (psixologik). Psixologik yondashuv doirasidagi diagnostika o'qishdagi qiyinchiliklarning konkret tashqi namoyon bo'lishi va ularning psixologik sabablari o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Bu yerda psixodiagnostik vositalar orqali kognitiv jarayonlar yoki shaxs xususiyatlari rivojlanishidagi yetishmovchiliklar aniqlanadi. So'ngra psixologik topshiriqlar tizimi yordamida tahlil qilingan qiyinchiliklarning aniqlangan sabablariga maqsadga yo'naltirilgan korreksion-rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatiladi. Buning natijasida maktabda o'zlashtirmaslik bartaraf etiladi.

Ikkinchi yondashuv neyropsixologik yondashuv bo'lib, mazkur yondashuvda maktabdagi qiyinchiliklar alohida bosh miya tuzilmalari rivojlanishidagi yetishmovchilik natijasi sifatida qaraladi. Bunda garchi mazkur yondashuv tarafdorlari emotsional-motivatsion omillar roli va rivojlanishning ijtimoiy vaziyati ahamiyatini inkor etmasalar-da, o'qishdagi o'zlashtirmaslik sababini monokauzal (bir sababli) deb hisoblab, bosh miya minimal disfunktsiyasi bilan tushuntiradilar [3].

Mazkur yondashuv diagnostik jihatdan bosh miyaning ma'lum tuzilmalari uchun mo'ljallangan psixologik topshiriqlarni o'z ichiga oladi va bosh miyaning u yoki bu qismidagi yetishmovchiliklarni va ularning maktabda o'qishdagi kognitiv qiyinchiliklarning yuzaga kelishidagi ta'sirini aniqlab beradi. Korreksion-rivojlantirish bosqichida psixologik topshiriqlarning aynan o'sha tizimi qo'llaniladi, bu tizim bosh miya tuzilmalari rivojlanishidagi nuqsonlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bir qator mualliflar maktab o'quvchilarining o'qishdagi qiyinchiliklarini aniqlashda mazkur yondashuvlar ahamiyatini

baholab, shuni ta'kidlaydilar, pedagogik yondashuv ularning oldida ancha past samaraga ega. Faqatgina, o'quvchi kasallanib, maktabga kelolmagan va mavzuni tinglamagan hamda uni mustaqil o'zlashtirishga qiynalgan vaziyatlar bundan mustasno. Bunday vaziyatda pedagogik yondashuv yaxshi natija berishi mumkin.

Neyropsixologik yondashuv o'z prinsiplariga ko'ra psixologik yondashuv bilan uyg'unlashib, maktabda o'zlashtirmaslikni korreksiyalashtirishda yaxshi natija berishi mumkin. Psixologik yondashuvni ham juda ko'p mutaxassislar o'quvchilarning maktabdagi qiyinchiliklarini yengishda amaliy natijaga erishish jihatidan yetakchi o'rinni egallashini e'tirof etadilar.

O'qitish bolaning rivojlanish darajasi bilan u yoki bu darajada aloqador bo'lishi kerakligi empirik tadqiqotlarda isbotlangan. Savodxonlikka bolani ma'lum bir yoshdan boshlab o'rgatish, masalan, algebrani o'rganishi uchun ham bola ma'lum bir yoshga yetgan bo'lishi kerakligi esa isbot talab qilmaydigan faktlardir. Shunday qilib, rivojlanish darajasini aniqlash va uning o'qish imkoniyatlariga munosabati shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, bola rivojlanishida uning aktual va yaqin rivojlanish zonalarini bilish talab etiladi. Bola aqliy rivojlanishini aniqlashda biz drom uning aktual rivojlanish zonasiga to'qnash kelamiz.

Rivojlanishning yaqin zonasi bola o'zi bajara olmaydigan, lekin kattalar yordamida bajara oladigan imkoniyatlaridir. Bu zonani o'qitish yuzaga keltiradi, o'qitish rivojlanishdan oldin yurishi va rivojlanishni ta'minlashi kerak [3]. Mazkur zona rivojlanishning bir qator ichki jarayonlarini harakatga keltiradi, bolaning ichki erishuvi hisoblanadi. Rivojlanish zonasi bolada qanchalik keng bo'lsa, u yuqori darajalarga o'tishga shunchalik yaxshi tayyorlangan bo'ladi. Bugun rivojlanishning yaqin zonasi bo'lgan narsa ertaga aktual zonaga aylanadi.

Xarakterdagi salbiy xususiyatlarning shakllanishidagi birinchi va eng muhim omil o'qishni xohlamaslik, o'zlashtirmovchi o'quvchining har qanday o'quv ishlariga nafrat bilan qarashidir. Materialni o'zlashtirishdagi turg'un qiyinchiliklar, doimiy muvaffaqiyatsizlik hissi shunga olib keladiki, bunday bolalar dars tayyorlash jarayonidan qochadilar, daftarlarini yirtib tashlaydilar, darsliklarni berkitib qo'yadilar, maktab talablariga salbiy munosabatda bo'ladi. Ular darslarni tez-tez qoldiradigan, uyda aldaydigan, "hyech narsa bilmayman" deyidigan, "hyech qanday topshiriq berilmagan"ligini ta'kidlaydigan bo'lib qoladilar. Bunday xatti-harakatlarda emotsional buzilish, salbiy xarakter qirralarining birlamchi ko'rinishlari ko'zga tashlanadi. Xulq atvoring bunday xususiyatlari tez shakllanadi va bola maktabda ko'zga tashlana boshlaydi.

Ikkinchi sinfga kelib yana bir omil qo'shiladi – o'qituvchilar bilan nizolarga kirishish. Bunday olib qaraganda bu munosabatlar salbiy xarakterga ega, ba'zida o'qituvchilarning o'zlashtirmovchi o'quvchilarga nisbatan befarqlik holati bo'lib ham tuyulishi mumkin. O'qituvchilar ham ularga nisbatan qo'pol muomalada bo'ladi, ularga baqiradilar, haqoratli shaklda ularga murojaat qiladilar, ota-onalarga shikoyat qiladilar, boshqa o'quvchilar oldida ularni ochiqchasiga muhokama qiladilar. Shu bilan birga suhbat va muntazam kuzatish shuni tushunish imkoniyatini beradiki, bunday xulq-atvor o'qituvchilarning ilojsizligidan, bunday bolalar bilan ishlay olmasligidan, ularga e'tibor bera olmasligidan kelib chiqadi. Shuning uchun bu yerda barcha imkoniyatlardan foydalaniladi – yuqori tonda gapirish, va'zxonlik qilish va axloqqa chaqirish yo'li orqali pedagoglar o'zlashtirmovchi o'quvchilar diqqatini qaratishga, ularni o'qish bilan shug'ullanishga majbur qilishga harakat qiladilar. Turg'un nizo vaziyati shunga olib keladiki,



o'zlashtirmovchi o'quvchilar qisqa muddatdan keyin javoban o'qituvchiga qo'pollik qilishga, siltab tashlashga, darslardan namoyishkorona chiqib ketishga, dars jarayonini buzishga harakat qiladilar.

O'zlashtirmovchi o'quvchilarda salbiy xarakterning turli qirralari – nizokashlik, alamzadalik, affektiv qo'zg'aluvchanlik yuzaga keladi va mustahkamlanadi. Shunday muammolar o'zlashtirmovchi o'quvchilarda ota-onalarga nisbatan ham kuzatiladi. Ota-onalarning xulq-atvori yanada murakkab va qarama-qarshidir. Ko'pincha ota-onalar asosiy e'tirozni maktabga nisbatan bildiradilar, o'qituvchilarni ayblaydilar, o'quv dasturlarini ro'kach qiladilar, biroq norasmiy kuzatishda yaqqol namoyonki, bu ota-onalar bolalarini aynan o'quv muammolari bo'yicha urishadilar. Charchagan bolalarni darhol o'quv mashg'ulotlaridan keyin dars qilishga o'tkazadilar, repetitorlar yollaydilar, ko'pincha jismoniy jazo qo'llaydilar, baqiradilar va h.k.z. Bu bilan ota-onalar o'z farzandlari ishonchini yo'qotadilar, uydagi vaziyatni murakkablashtiradilar va o'zlashtirmovchi o'quvchilar endi ko'chaga "otlanadilar".

Uydan ketib qolish doimiy tusga ega bo'ladi, bolalar yolg'on gapira boshlaydilar, bu esa uchinchi sinfning oxiriga kelib kuchayib ketadi. Kichik maktab yoshida aniq ko'rinadiki, xarakterning salbiy qirralari, xulq-atvor buzilishlari o'qishdagi qiyinchiliklardan bir oz vaqt o'tib, ota-onalar va o'qituvchilar bilan munosabatlarining yomonlashuvidan keyin ma'lum bir muddatda ko'zga tashlana boshlaydi. Tabiiyki, o'qituvchilar va ota-onalar bilan nizoga borganidan keyin bolaning o'zi agressiv, urishqoq, boshqarilib

bo'lmaydigan, tengdoshlariga nisbatan alamzada bo'lib qoladi. Birinchi sinflarda yaxshiroq o'qiydigan va rivojlangan bolalar ham ularga nisbatan salbiy munosabatda bo'la boshlaydilar. Bu juda nozik shaklda – o'zlashtirmovchi o'quvchilarga nisbatan laqablar qo'yishda, ustidan kulishda, ularni inkor qilishda namoyon bo'ladi. O'zlashtirmovchi o'quvchilar ularga javoban so'kinadilar, o'g'irlik qiladilar, dars mashg'ulotlarini qoldiradilar. To'rtinchi sinfga kelganda bunday bolalar xulq-atvori xarakterning salbiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'zlashtirmaslikni bartaraf etish uchun ular bilan nafaqat pedagogik, balki psixologik va neyropsixologik korreksion dasturlarini amalga oshirish yaxshi samara beradi.

Adabiyotlar

1. Блонский П.П. Школьная успеваемость. – М.: Просвещение. 2001.
2. Божович Л.И. Психологический анализ значения отметки как мотива учебной деятельности школьников. – М.: Известия АПН РСФСР, 2001. №36.
3. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: 1999.
4. Локалова Н.П. Школьная неуспеваемость. – М.: 2017.
5. Haydarov F.I., Xalilova N. Pedagogik psixologiya. – T.: 2008.
6. Z.Sh.Sherimbetova Boshlang'ich sinflarda o'zlashtirmovchi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari. Psixol.fanlari nomzodi dis.avtoreferati. T. 2007.

TARBIYA MUAMMOSI HECH QACHON ESKIRMAYDI YOXUD O'TMISH ALLOMALARI TARBIYA HAQIDA

R.M.Musurmonov, Chirchiq davlat pedagogika instituti, "Pedagogika va menejment" kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

В данной статье речь идёт о взглядах восточных мыслителей и учёных, на воспитание подрастающего поколения, подчеркивается важная роль семьи и общества в этом деле.

Ключевые слова и понятия: воспитание, семья, взгляды востоковедов, функции родителей, семейная жизнь, девиантное поведение, социальная значимость.

This article deals with the views of Eastern thinkers and scientists on the upbringing of the younger generation, emphasizes the important role of the family and society in this matter.

Key words and concepts: upbringing, family, orientalists' views, parental functions, family life, deviant behavior, social significance.

Ma'lumki, insoniyatning jamiyatda yashash tarzi, birinchi navbatda, uning odob-axloqi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham insoniyat tarixida odob-axloqqa oid ta'limotlar yuzaga kelib, har bir sohaning, jumladan shaxs tarbiyasi, uning shakllanish jarayonining har bir bosqichi uchun o'ziga xos me'yoriy talablar shakllangan va asrlar davomida takomillashib borgan. Maktab yoshidagi bolalar mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim uchun joriy etilgan Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari darajasida ta'lim olishlari shartligi belgilab qo'yilgan. Ta'limni esa tarbiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniy o'z davrida millat farzandlarini tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berib: - "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir"-degan edi.[3]. Shakllanib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalashning vositalari sifatida sharq falsafasi, xalq pedagogikasida qadim zamonlardan

alohida e'tirof etib kelingan hamda ilm olishda amal qilinishi lozim bo'lgan axloqiy me'yorlar haqida ko'plab didaktik asarlar bitilgan.

Ilm olishning axloqiy me'yorlari Zardo'shtiylikning muqaddas kitobi – "Avesto"da, qadimiy turk bitiklari va boshqa ko'plab yozma manbalarda, Sharq xalqlari o'rtasida keng tarqalgan rivoyatlar, pandnomalar, odobnomalar va o'gitlar shaklidagi didaktik asarlarda yosh avlod tarbiyasi, uning axloqiy intizomiga oid falsafiy-pedagogik qarashlar o'z aksini topgan. Bu manbalarda ilm olish odobidan tashqari ota-onaga, ustozlarga, umuman, katta-kichiklarga hurmat-izzatda bo'lishga oid ibratli fikrlar bildirilgan.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "O'zbekistonning istiqbol va taraqqiyot yo'li" nomli asarida "Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillilik, millatidan qat'iy nazar



odamlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, o'zgalar kulfatiga hamdard bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi kishilar o'rtasidagi munosabatlarning me'yori hisoblanadi. O'zbeklar diyoriga, o'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom - O'zbekiston aholisiga xos fazilat" ekanligini qayd etar ekan, o'zbek xalqi ma'naviyatining asosi - axloqqa alohida e'tibor bergan. [1]

Axloq barkamol inson tarbiyasining muhim ko'rsatkichi bo'lib, ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida barcha zamonlarda e'zozlanib kelingan. Zero, axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida har bir kishining jamiyat va oiladagi majburiyatlari, amal qilishi lozim bo'lgan me'yorlar - uning bilim olishidan tashqari yurish-turishi, muayyan sohada faoliyat ko'rsatishini tartibga solib turuvchi qonun va qoidalarining yig'indisi sifatida baholanadi. Shuning uchun axloq har bir shaxsning, shu jumladan o'quvchi-yoshlarning maktabga, maktab jamoasi - o'qituvchi-ustozlar, sinfdoshlari va maktabdoshlariga, keng ma'noda jamiyatga, oilaga, o'qish faoliyatiga bo'lgan munosabatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Inson xatti-harakatidagi, xulqidagi yo'nalishlar, eng muhim belgilar mujassamlashib shaxs faoliyatida, uning kamol topishida xulq qoidasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Intizomning ajdodlarimiz tomonidan qo'llanib kelingan va bugungi hayotimizga singib ketgan "odob" ("adab", arabcha بجا) shaklidagi talqini insonning ma'naviy-axloqiy yetukligini baholovchi mezondir. Shuning uchun ham odob deganda tarbiya (tarbiyali) tushunchasi anglanadi. Odob insoniy fazilat, kishi qadrini baland qiluvchi qimmatli sifatdir. U ta'lim-tarbiyaning mahsulidir. Aqlning suyanchig'i hisoblangan odob insonda shakllantiriladigan barcha ijobiy sifat, fazilatlarining asosidir. Shuning uchun ham shaxs tarbiyasiga uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ustuvor tarzda qaraladi. Zero, birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'бири bilan aytganda, "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi".[2]

Dono xalqimiz "Odob bozorda sotilmas", "Odob aqlli kishi uchun ulug'lik va fazilatdir", "Odobi yo'qning aqli yo'q", "Chiroyli xulq do'st orttiradi, yomon xulq esa yaqin kishilaringizdan uzoqlashtiradi" kabi maqol va naqlar bekorga aytilmagan. Shuning uchun ham tarixiy genezisi ("genezis", yunoncha genesis - sodir bo'lish, yuzaga kelish; rivojlanayotgan hodisalarni yuzaga kelishi hamda shakllanish jarayoni. Bizning misolimizda odob - dars intizomining genezisi) qadimiy, ayni paytda hozirgi kun maktabi hayotida o'quvchi odobi (intizomi)ni biri-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan maktab ta'limi bilan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Demak, insonda har ikkovi ham shakllangan taqdiridagina u barkamol shaxs sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Musulmon olamining muqaddas kitobi Qur'oni karim, shuningdek, Hadisi sharifda ham bu borada ibratli hikmatlar bitilgan. Ularga amal qilgan O'rta Osiyo xalqlari tarixida, uning xalq pedagogikasida o'ziga xos an'analar yuzaga kelgan. Shu ma'noda sharq allomalarining odob-axloq (intizom) haqidagi qimmatli fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Abu Nasr Forobiy yozadi: "Aqlli deb shunday kishini aytamizki, unda o'tkir zehnidrok bo'lishi bo'lishi bilan birga u fazilatli ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Shunday odamnigina aqlli va butun fikr yurituvchi deb atash mumkin". [5]

Forobiyning bu fikrini bugungi kun maktab ta'limiga nisbatan tatbiq qiladigan bo'lsak, aqlli (maktab ta'limi tizimidagi o'quv

fanlari asosini egallagan, bilimli) hamda odobli (maktabda o'rnatilgan hamda o'quvchi amal qilishi lozim bo'lgan intizom me'yorlariga amal qiluvchi) bolani tarbiyalash (barkamol shaxs sifatida shakllantirish) bugungi kunning muhim ijtimoiy-pedagogik muammolaridan biridir.

Shu o'rinda ajdodlarimizning odob, intizom tarbiyasi haqidagi hikmatomuz fikrlarini keltirish o'rinlidir. Mashhur alloma Naqshbandiya tariqatining asoschisi Bahouddin Naqshband "Agar adabdan ozgina nuqsonga yo'l qo'ysang, ham nimaiki qilsang beadablik ko'rinadi", "Adabni saqlash - muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxti, yana muhabbat urug'i hamdir",-degan ibratli fikrlarni aytib o'tgan [9].

Tarixchi, olim va shoir, ulamo va davlat arbobi Hoja Samandar Termiziy:

"Go'daklikdan yomon fe'lga o'rgansa,

Yuz mehnat-la uni kam qilib bo'lmas.

Yaxshi yo'lga solay debon urinma,

O'sib qotgan shoxni xam qilib bo'lmas",- degan satrlarida tarbiya bilan bolaning go'daklik chog'idan shug'ullanish lozimligiga ishora qiladi [10].

Husain Voiz Koshifiy ijtimoiy-axloqiy fazilatlarini yuzaga chiqarishning asosiy vositasi deb ilm-ma'rifat bilan axloqiy tarbiyani tushunadi. U axloq va insoniylikni esa hayot kechirishdagi eng zarur, havo kabi kerakli vosita deb tushunadi hamda insonning qadr-qimmatini, avvalo, uning ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatлари bilan o'lchanishini uqtiradi.

Buyuk sohibqiron Amir Temur ham axloq, intizom masalasida qat'iyat bilan ish yuritgan. U o'zining "Temur tuzuklari" kitobida jamiyatni boshqarish, qo'mondonlik masalalarida mas'uliyat va intizom muhim o'rin tutishini hayotiy dalillar bilan izohlab bergan.

Sharqning buyuk mutafakkirlaridan biri, tibbiyot ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sino ham ta'lim va tarbiyaga oid boy ma'naviy-ma'rifiy meros qoldirgan. Allomaning "Oila tadbiri", "Mantiq risolasi", "Axloq risolasi" kabi asarlarida ijtimoiy hayotning o'ziga xos muammolari -komil inson tarbiyasi, shaxs va jamiyat, umuman inson to'g'risidagi pedagogik qarashlari, g'oyalari zamonaviy sharoitda ham o'z nufuzini yo'qotgan emas. Jumladan, ibn Sino o'zining tarbiya metodlari haqidagi xulosalarida rag'batlantirish va jazolash xususida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Uning fikricha, bola tarbiyasida jazolash metodi faqatgina iloji qolmagan taqdiridagina qo'llanilishi aytilgan. Ota-ona va ustozlar bolani doim yaxshi xulqlar va odoblar asosida tarbiyalashga intilishlari lozim. Ibn Sino aytadiki, yomon fe'l-atvorlar va nafratli odatlar bolani buzadi, ulardan bolani chetlashtirish lozim. Allomaning fikri bo'yicha, bolaga ilm va odobni birinchi navbatda o'rgatish lozim.

Tarixiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, odob-axloqlilikning turli masalalari yuqorida tilga olingan allomalardan tashqari Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abduxoliq G'ijduvoni, Abu Hamid G'azzoliy, Mahmud Zamaxshariy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxruddin kabi allomalarning didaktik asarlarida ham o'z ifodasini topgan.

Intizomlilikni talqin etish va uning mohiyatini ochib berishga asoslangan g'oyalar qadimdan ma'lum. Antik davr faylasuflari, tarixchilari tomonidan "intizom" tushunchasi asosan "yaxshi tartib, kelishilgan xatti-harakatlar" sifatida talqin qilingan.

Xususan, Abu Rayhon Beruniy intizomlilikni badan va ruhning tozaligi bilan bog'laydi. Agar oilada tozalik va intizom bo'lsa, ma'naviy poklik ham bo'ladi. Ushbu g'oyani faqatgina badan tozaligi bilan belgilamaslik kerak. Uni asoslash uchun ko'pgina harakatlarni amalga oshirish lozim. Ushbu harakatlar



mehnat qilishni nazarda tutadi. Allomaning ruh va xatti-harakatlar haqidagi fikrlari inson ruhi va tanasining birligi g'oyasi bilan uyg'unlashgan. O'zaro bog'liqlik haqidagi ushbu fikr bolalarni jismoniy sog'lom, ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash haqidagi hozirgi davrimiz talablari bilan hamohangdir.

Mashhur Sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiy intellektual jihatdan yuksak, ma'naviy pok kishilarni tarbiyalash ikki yo'l bilan: shaxsning mustaqil va uni majburlash hisobiga bo'ladigan xatti-harakati orqali amalga oshirilishini ko'rsatib bergan. Biroq, maqsad bittaligicha qoladi – ya'ni, yuksak fazilatlariga ega bo'lgan, jamiyatning ideal a'zosiga qo'yiladigan talablarga javob beradigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Olimning fikricha, ta'lim va tarbiya oilada ota-ona, maktabda o'qituvchi, ideal jamiyatda odil rahbar orqali amalga oshiriladi [5].

XX asr boshlarida pedagogik fikrlar taraqqiyotining asoschisi Abdulla Avloniy kishilarda tarbiyalanadigan axloqni ta'riflab, uni insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir mukammal ilmga qiyoslaydi. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitobni "axloq" deb ataydi va "Axloq ilmini o'qib, bilub amal qilgan kishilar o'zining kim ekanin, janobi haq na uchun xalq qilganin, yer yuzida nima ish qilmoq uchun yurganin bilur. Bir kishi o'zidan xabardor bo'lmasa, ilmni, ulamoni, yaxshi kishilarni, yaxshi narsalarni, yaxshi ishlarning qadrini, qimmatini bilmas, o'z aybini bilub, iqrar qilub, tuzatmag'a sa'y va qo'shish qilgan kishi chin bahodir va pahlavon kishidir", deydi [3].

Abdulla Avloniy intizom masalasining muhimligini e'tirof etib shunday degan: "Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar. Janobi Haq yer-u osmonlarni, oy va yulduzlarni, inson va hayvonlarni, qurt va qushlarni shunday bir nizom ila tarbiyat berib yaratmishdurki, aql bilmakdan, qalam yozmakdan, til so'zlamakdan ojizdur. Dunyoga kelgan payg'ambarlarning har birlari din va shariatlarini tarbiyat va nizom ila yurutmishlar».[3]

Yuqoridagi fikrdan xulosa shuki, maktab intizomining asosi – axloq, uni shakllantirish qadimiy tarixga ega, bu jarayonda o'qituvchi murabbiylarga kattamas'uliyat yuklatiladi. Zero, axloqiy madaniyatni shakllantirishning asosiy maqsadi – xalqimizning milliy merosiga vorislik qila oladigan va umumbashariy boyligini qadrlaydigan shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Maktabda intizomni ta'minlashning birinchi sharti jarayonning ongli tarzda kechishini ta'minlashdan iborat. Zero, ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z axloqiy burchini o'zi anglaydi, o'z xatti-harakatiga o'zi baho bera oladi.

Yuqoridagi tahlillardan ayon bo'ladiki, intizom muammosi odob-axloq tarbiyasi tarzida asrlar osha doimiy o'rganib kelingan. Pedagogika fan sifatida shakllana boshlagan davrlarda ham ta'lim oluvchilarning odob-axloqi, xususan, dars intizomi uzoq yillar davomida pedagoglar va psixologlarning diqqat markazida bo'lgan. E'tirof etish mumkinki, bu muammo bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Zamonaviy sharoitlarda maktab ta'limida qo'llanilayotgan tarbiyaning demokratik usuli o'quvchilarning intizomiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Jamiyatda sodir bo'layotgan globallashuv, axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'sir doirasi ortib borayotgan bugungi kunda o'quvchilar tobora faolroq, tashabbuskor, faoliyatda mustaqillikka intiluvchi, ayni paytda maktab ta'limida o'rnatilgan intizomga qat'iy amal qilishni unchalik ham xush ko'rmaydigan shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kun o'quvchisi shaxsiyatida kuzatilayotgan bu jihatlarning ham ijobiy, ham salbiy tomonlari mavjud, ya'ni bu

o'zgarishlar qaysidir ma'noda ijobiy bo'lsada, ta'lim jarayonida sezilarli qiyinchiliklarni keltirib chiqarib, uning natijasiga va o'quvchilarning bilim darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Intizom o'quvchilardan darslarga muntazam qatnashish, uy vazifalarini vaqtida vijdonan bajarish, darslarda va tanaffus vaqtida intizom saqlash, barcha o'quv vazifa va topshiriqlarni aniq bajarishni talab etadi. Shuningdek, o'quvchining o'qituvchi va pedagoglar, maktab ma'muriyatining talablarini so'zsiz bajarishidir. Intizomning buzilishi darslarni o'tishda qiyinchiliklar tug'diradi, kelgusida ham bu o'quvchilarning jamiyatda, mustaqil hayotda ham o'zini tutishga xalaqit beradi. Intizomsiz o'quvchilar ko'p hollarda maktabni bitirib ketgandan keyin ham mehnat intizomini buzadilar, jamiyatga zarar keltiradigan qonun va huquqbuzarliklarni sodir etaveradilar. Aynan shuning uchun ham barcha zamonlarda yosh avlodning tarbiyasiga, uning intizomiga jiddiy e'tibor qaratilgan.

Umuman olganda odob-axloq va uning tarixiy manbalardagi talqini bo'yicha turli fikrlar mavjud. Intizom deganda nima nazarda tutiladi?

Intizom (arabcha "nizom", نـزـم) – tartib, qoida, tizim. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "intizom" so'ziga shunday izoh berilgan: "Tartib, tartibli tuzilish, izchillik. Jamiyatning yoki ma'lum jamoa a'zolarining amal qilishi, bo'ysunishi lozim bo'lgan qat'iy tartib, qoida.

Intizom – inson o'zini tutishining ma'lum bir tartibi, jamiyat tomonidan o'rnatilgan qonun-qoidalar, ma'naviy qadriyatlarga odamlar tomonidan rioya etilishidir. Bu tartib-qoidalar jamiyatning yoki ma'lum sinflarning yoki alohida jamoat guruhlarining manfaati uchun o'rnatiladi. Intizom tushunchasi keng ma'noda talqin qilinib, uning yordamida jamoat tartib-qoidalari amalga oshiriladi.

Intizom jamiyatning barqaror rivojlanishining muhim shartidir. Aynan intizom tufayli insonlarning xatti-harakatlari tartibga solinishi natijasida jamiyat a'zolarining ijtimoiy faoliyati ijobiy mazmun kasb etadi.

Intizom inson taraqqiyotining dastlabki bosqichida jamoa bo'lib mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ushbu jarayonda yuzaga kelgan holatlar jamoaning umumiy manfaatlarini aks ettirgan. O'sha paytlarda odamlar umumiy aloqa, intizom, o'rganib qolgan xatti-harakatlar, udumlar, urug' boshlig'iga hurmat asosida faoliyat ko'rsatishgan. Intizomlilik esa – intizomni mahkam tutuvchi, unga amal qiluvchi, bo'ysunuvchi, tartibli shaxsga xos xususiyat – deb belgilanadi.

Lug'atda intizomga berilgan ta'riflardan biri "izchillik"dir. Unga ko'ra intizom izchil, uzluksiz, muntazam bo'lmog'i kerak, shundagina u yaxshi samara beradi. Qat'iy intizomga yoshlikdan o'rgatilsa, bola katta bo'lganda ham intizomli bo'ladi. Intizomli odam sabr-qanoatli bo'ladi, u nafaqat o'zining, balki boshqalarning ham vaqtini tejaydi. Intizomli odam ahdiga vafodir. Intizomning o'zi ham qaysidir ma'noda odamni tarbiyalaydi. Masalan, aksariyat hollarda intizomli o'quvchi yoki talaba darslarni yaxshi o'zlashtiradi. Chunki u o'zini nazorat qilish, diqqat-e'tiborni jamlashni biladi. Intizom tilimizdagi tartib, qoida kabi so'zlar bilan muayyan holatlarda ma'nodosh bo'lib keladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar, tahlillardan xulosa qilish mumkinki, odob va intizom tushunchasi insoniyat rivojlanishi uchun muhim omillardan biri bo'lib, barcha davrlarda bu muammoga yetarli darajada ahamiyat berib kelingan. Intizom masalasi xozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va ta'lim jarayonini takomillashtirishning ustuvor vazifalari sirasiga kiradi.

Sharq allomalarning farzandlar tarbiyasi to'g'risidagi fikr-mulohazalari, tavsiya va nasihatlar hozirgi ayni globallashuv



sharoitida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Faqat ularga amal qilish yana muhimdir.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li". – T.: O'zbekiston. 1992.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat. 2008.
3. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: 2000.
4. Amonashvili, Sh.A. Lichnostno-gumannaya osnova pedagogicheskogo protsessa. – M.: 1980.
5. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri (Tuzuvchi M.Mahmudov). – T.: Meros, 1993.

6. Bekmurodov M.B. Movorounnahrda jamoatchilik fikri tarixidan. – T.: Fan. 1994.

7. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar. t.I. – T.: Fan. 1968.

8. Asadov Yu.M., Musurmanov R. O'smirlar deviant xatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya) O'quv-metodik qo'llanma. – T.: O'zPFITI, 2011.

9. <http://kutubxona.com/Баха-ад-Дин-Накшбанди-Афоризмы>

10. <http://ziyo.uz/index.php/component/content/article/3-2014-02-10-12-05-28/1132-2015-06-22-10-05-37>

INKLYUZIV TA'LIMNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

N.N.Shomurotova, Qo'qon universiteti dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi

В данной статье обсуждаются эффективные аспекты организации инклюзивного образования, влияние инклюзивного образования на образовательные мотивации учащихся, его роль в психическом развитии.

Ключевые слова и понятия: инклюзивное образование, деинституционализация, дискомфортные влияния, личные интересы, мотивация.

In this article, the effective aspects of the organization of inclusive education, the impact of inclusive education on the educational motivations of students, its role in mental development are discussed.

Keywords and concepts: inclusive education, deinstitutionalization, discomfort influences, personal interests, motivation.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi PF-6155-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"[1] ning ta'lim va fan sohasini rivojlantirish va yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [2] qarori ijrosini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarda ta'limni sifatli va innovatsiyalarga asoslangan tarzda tashkillashtirish, uzluksiz ta'lim bilan qamrab olishda imkoniyati cheklangan bolalarni ham e'tiborda tutish masalalariga asosiy muammo sifatida qaralmoqda.

"Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860 sonli Prezident qarori bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni 2020-2021 yillarda amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» tasdiqlandi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish orqali ta'limdagi tenglik, inson qadri va kamoloti jamiyat hayotida eng muhim omil sifatida e'tirof etilishini ko'rish mumkin.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berishni inklyuziv ta'lim qamrab oladi. Inklyuziv ta'lim haqida gap ketganda, avvalo ushbu tushunchaning mazmun va mohiyatini bilib olishimiz lozim. Inglizcha "inclusive", "inclusion" so'zlari "uyg'unlashmoq", "qamrab olmoq" ma'nolarini anglatadi. Bunday ta'lim jarayonida bolalar o'zlarining jismoniy, psixologik, intellektual, etnik-madaniy, til va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar umumiy ta'lim tizimiga birlashtirilgan bo'ladi. Bunday ta'limda ular sog'lom tengdoshlari bilan birga jismoniy imkoniyatlari hisobga olinadigan va kerakli maxsus yordam ko'rsatiladigan umumta'lim maktablarida tahsil olishadi.

Inklyuziv ta'limda rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar

maktab qoshida tashkil qilingan maxsus guruhlarda emas, balki o'z tengdoshlari bilan bir sinfda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Inklyuziv tizimda tashkillashtirilgan maxsus darslarni bevosita kuzatgan xalqaro YuNISEF tashkiloti vakili Robert Bertli darslar yuqori saviyada tashkil etilganini e'tirof etdi. Bugungi kunda inklyuziv ta'lim dunyoning turli mamlakatlari ta'lim tizimiga tatbiq etilmoqda. Maxsus metodik qo'llanma asosida tayyorgarlikdan o'tgan ustoz va murabbiylar tomonidan olib borilayotgan dars mashg'ulotlari o'z samarasini bera boshladi.

Inklyuziv ta'limda psixologik qo'llab-quvvatlash orqali ta'limdagi faollikni va o'quv motivatsiyalarini oshirish "Hamma maktab o'quvchilari tengdirlar", "Hamma o'quvchilar o'z tengdoshlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishlari kerak" kabi qoidalar kuchli ijtimoiy-psixologik ta'sirga ega hisoblanadi. Bola qanchalik o'z tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyatda bo'lsa uni fikrlashida, faoliyatida, o'ziga bo'lgan ishonchini, motivatsiyalarni shakllanishida kuchli ahamiyat kasb etadi.

Imkoniyati cheklanganlik darajasida bo'lish ayb emasligini, nogironlardan ko'plab buyuk shaxslar yetishib chiqqanligini imkoniyati cheklangan bolalarga bildirish ulardagi yashashga, ilm olishga, o'zini rivojlantirishga bo'lgan ishtiyoqni oshiradi. Pifagor, Yuliy Sesar, Gyote, Lyudvig van Betxoven, Bayron, Albert Eynshteyn, Fyodor Dostoevskiy kabi taniqli insonlarni amalga oshirgan ulkan ishlari, buyuk kashfiyotlari ba'zi bir tani sog' odamlarning ham qo'lidan kelmasligi hayratimizga sabab bo'lishi tabiiy. Masalan, buyuk yunon faylasufi va matematigi Pifagor epilepsiya kasalligi bilan og'rikan. Bu kasallik unda tez-tez xuruj qilib, ma'lum holatlarda noqulaylik tug'dirar edi. Ammo shunday og'ir dard ham uning geometriya, astronomiya, falsafa kabi o'nlab fanlarda ilmiy kashfiyot qilishiga to'sqinlik qila olmadi.

Gap insonning sog' yoki nosog'lomligida emas, balki o'zini rivojlantirishi, aqliy salohiyati bilan yaratadigan ma'naviy merosidir.



Inklyuziv ta'limning maqsadi – alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Inklyuziv ta'limning vazifalari quyidagilardan iborat: rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish; jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish; ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish; barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish; o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga yordam berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik saviyasini oshirish.

Bugungi kunda internat muassasalarida tarbiyalanayotgan bolalarning ko'pchiligini nogiron bolalar tashkil etadi. Xalqaro tashkilotlarning tavsiyanomalarida deinstitutionallashtirishda inklyuziv metodni asosiy usul sifatida tatbiq qilish kerakligi ta'kidlangan. Ammo imkoniyati cheklangan o'quvchilarni oilasidan uzoqda o'qitilishi ularning konvensiyadagi haq-huquqlarini buzilishiga olib keladi. Bu yerda bolani "kamsitmaslik" tamoyili va oilasi bilan yashash huquqi mahrum etilmoqda. Bolaning "shaxsiy manfaatlari" tamoyili ham mavjud bo'lib, uyiga yaqin bo'lgan umumta'lim maktabida 30 nafar va undan ko'p bo'lgan o'quvchilar ta'lim olayotgan sinfda o'qitilishi bu tamoyilni buzilishiga olib keladi. Bola bu sharoitda o'ziga yetarli e'tiborni olmaydi. Aksariyat maktablarda defektolog mutaxassislarning yo'qligi bois o'quvchi maxsus muassasadagidek maxsus nazoratda bo'lmaydi va ta'lim olishdan, rivojlanishdan ortda qoladi. Bu kabi diskomfort ta'sirlar esa bolaning "shaxsiy fikri" tamoyili buzilishiga olib keladi.

Dunyoning ijtimoiy himoyalash bo'yicha yetakchi o'rinlarida turadigan Shvetsiya davlatida ham bunday vaziyatlar mavjud bo'lib, o'quvchilar alohida maxsus internatlarda o'qitiladi. Bunday vaziyatni Respublikamizdagi aqli zaif o'quvchilarga mo'ljallangan maktab-internatlarda ham kuzatish mumkin. Shu bois, deinstitutionallashtirishda inklyuziv ta'limni joriy qilinishida muhitni to'laqonli o'rganib, muhim chora-tadbirlar qo'llanilishi zarur hisoblanadi. Har bir bolaning o'z oilasida yashashi va tengqurlari qatorida sifatli bilim olish haq-huquqlariga ega bo'lishini inklyuziv ta'lim orqali ta'minlash asosiy maqsad qilib olinadi. Buning uchun biz murakkab masalalarni hal qilishimiz, bu ishni turli yo'nalishda olib borishimiz lozim.

Imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishida nihoyatda yuqori e'tiborni talab qiluvchi umumta'lim tizimining sohasi hisoblansa, imkoniyati cheklangan bolalar esa jamiyatning ijtimoiy qatlamidir, chunki ularning ko'pchiligi kam ta'minlangan oilalarda voyaga yetganlar. Inklyuziv ta'lim – bu imkoniyati cheklangan bolalarni barcha zaruriy vositalar bilan ko'pchilik bolalar uchun amalga oshiriluvchi ta'lim tadbirlariga jalb etishdir. Shundagina imkoniyati cheklangan barcha bolalar jamiyat hayotida faol

ishtirok etishga erishishlari mumkin.

Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim borasida, balki bolalarning ma'naviy va jismoniy o'sishlari, shuningdek vositalarni iqtisod qilish borasida ham samaralidir.

Inklyuziv ta'limni samarali tashkillashtirishda quyidagicha tavsiyalar beriladi:

- Maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim sharoitida o'qitishni tashkillashtirish;

- Inklyuziv ta'limni rivojlantirish uchun umumiy ta'lim tizimiga tarkibiy o'zgartirishlar kiritish;

- Inklyuziv ta'limni joriy qilishda muassasa hodimlarini ish vazifalarida islohotlarni amalga oshirish;

- O'qituvchi-defektologlar, ota-onalar va boshqa mutaxassislardan hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'yish;

- Imkoniyati cheklangan bolaning shaxsiy xususiyatlariga ko'ra yakka tartibda korreksion metod va moslashtirilgan o'quv reja, dasturlar va boshqa omillardan foydalanib, atrofdagi jamoatchilik bilan birgalikda o'qitishning turli shakllarini tashkil qilish;

- Bolalar uchun ta'lim sharoitini yaratish va ta'lim samaradorligini oshirish;

- Sinfdagi o'quvchilar soni muammosini hal qilish;

- Ota-onalar uchun nogiron bolalarni o'qitish tizimi, inklyuziv ta'lim tizimi haqidagi o'quv seminarlari tashkil etish va o'quv qo'llanmalar yaratish;

- Nogiron bolalar oilasi va maktab o'rtasida uzviy aloqa o'rnatish;

- Nogiron bolalarni maktabga kelishi uchun transport bilan ta'minlash masalalari;

- Ta'lim muassasalari uchun kadrlar yetishtirish;

- Muassasa binolarida maxsus yordamga muhtoj bolalar uchun qulayliklar yaratish.

Inklyuziv ta'limni tashkillashtirishdagi islohotlar ham ta'lim sifatiga, ham ijtimoiy hayotni yaxshilanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

Bolalik davri hamma uchun bir xil, bu davrdagi taassurotlar xotirada, tasavvurlarda muhrlanib qoladi. Bolalarni bu davrdagi ilmga, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash, sharoitlar yaratib berish ertangi kun millat taraqqiyoti, yuksalishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2017 yildagi PF-4947-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktyabrda PQ-4860-sonli qarori.

3. Алёхина, С. В. Инклюзивное образование: история и современность: учебно-методическое пособие / С.В.Алёхина. – М.: Педагогический университет «Первое сентября». 2013.

4. Z.Botirova Defektologiya asoslari. Farg'ona. 2012.

5. D.S.Qaxxarova. Inklyuziv ta'lim texnologiyasi. – T.: "Fan va texnologiya". 2014.



LAB VA TANGLAYNING PLASTIK JARROHLIGIDAN SO'NG BOLALARNI LOGOPEDIK TEKSHIRISH MEXANIZMI

Sh.D.Shokirova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Logopediya kafedrası doktoranti, falsafa doktori, dotsent

Данная статья посвящена механизму логопедического обследования детей после пластики губ и неба. Также в статье раскрывается комплексный подход, способы организации логопедического осмотра.

Ключевые слова и понятия: логопедия, дошкольник, нарушение речи, ринорея, обучение, коррекция, реабилитация.

This article is devoted to the mechanism of speech therapy examination of children after lip and palate surgery. The article also reveals an integrated approach, methods of organizing a speech therapy examination.

Key words and concepts: speech therapy, preschooler, speech impairment, rhinorrhea, training, correction, rehabilitation.

Tanglay plastik operatsiyasidan keyin bolalar nutqini o'rganish ko'plab mutaxassislarning e'tiborini tortdi. Zamonaviy logopediyada bolalar nutqini baholashning bir necha usullari mavjud. Biroq ularning aksariyati rehabilitatsiya samaradorligini nazorat qilish vositasi bo'lib, o'z zahirida, asosan, juda murakkab materiallarni jamlab turadi.

Ayni paytda, tanglay plastik operatsiyasidan keyin bemorlarning nutqini baholashning standart usuli mavjud emas. Bu tug'ma yuz-jag' patologiyali bolalarni davolash uchun turli markazlar turli vaqtlarda rehabilitatsiyani amalga oshirishlari va logopedlar nutqning holatini yagona sxema bo'yicha baholamasliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tekshirish logopediyaning asosiy umumiy pedagogik va metodologik tamoyillariga muvofiq amalga oshirilishi lozim: murakkablik, individual yondashuv va yuklamaning miqdori, tekshirishning ko'rgazmaliligi va emotsionalligi.

Tekshiruvning kompleks tamoyili shundaki, tanglay patologiyasiga ega bo'lgan har bir bola turli mutaxassislar tomonidan tekshirilishi kerak. Kompleks tekshiruv nutq vazifasini samarali davolash va normallashtirishni amalga oshirish imkonini beradi.

Tekshirish paytida yuklamaning miqdori va individual yondashuv tamoyili. Tekshirishga individual yondashish buzilish dinamikasining xususiyatini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, bolaning yoshini hisobga olishni o'z ichiga oladi. Tekshirish vaqti va foydalanilgan materialning miqdori bolaning yoshi va individual imkoniyatlariga mos kelishi kerak. Agar tekshirish cho'zilib ketsa, bola charchaydi va kuzatishlar natijalari haqiqiy ko'rsatkichlardan ancha past bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, charchoq bolaning logopedga, butun tekshiruv jarayoniga va kelajakda - barcha logopedik mashg'ulotlarga salbiy munosabatni shakllantirishiga olib kelishi mumkin.

Tekshirishning ko'rgazmaliligi va emotsionalligi tamoyili. Tekshirish qiziqarli, emotsional, jonli bo'lishi va ijobiy his-tuyg'ularni berishi kerak. Ko'rgazmali materialning muayyan turidan foydalanish undan foydalanishning maqsadi va bola qiziqishlariga bog'liq. Tekshiruvning emotsionalligiga o'yin shakli, yorqin rang-barang materiallardan foydalanib, faoliyat shakllarining tez-tez almashib turishi bilan erishiladi. Tekshirishning ko'rgazmaliligi va emotsionalligi tufayli tadqiqotchi bola bilan yaqindan aloqa qilishi mumkin bo'ladi, bu esa tadqiqotning ko'p qirrali bo'lishini ta'minlaydi va bola deyarli charchamaydi.

Tekshirish o'tkazish usullari. Irsiyat, homiladorlikning borishi, tug'ish, jismoniy va ruhiy rivojlanish, jarrohlik davolash muddatlari, operatsiyadan keyingi davr haqidagi anamnestik ma'lumotlarni (bolaning ambulator kartasiga ko'ra, ota-onalar bilan suhbatlashish orqali) o'rganish. Bolaning tug'ilishdan to hozirgi kungacha nutqining rivojlanish xususiyatlari aniqlanadi.

Turli yo'nalishdagi shifokor-mutaxassislarning xulosalarini

o'rganish. Pediatr xulosasida boshidan kechirgan infeksiyalar, surunkali kasalliklar mavjudligi va umumiy somatik holat haqida ma'lumotlar mavjud. Ushbu ma'lumotlar bolaning ambulator sharoitida nutq terapiyasi mashg'ulotlariga qatnashish qobiliyatini baholash, shuningdek, sog'liq tufayli mashg'ulotlarni o'tkazib yuborishini taxmin qilish imkonini beradi.

Bolalar nevrologining xulosasi, nutqda dizartrik komponentning namoyon bo'lishi, diqqat-e'tiborning yetishmasligi va nevrologik ko'rinishdagi boshqa og'ishlarning giperaktivligi buzilishi, bolaning nutq rivojlanishiga va uning o'rganish jarayoniga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Jarrohlik holatini o'rganish bolaning tanglay-xalqum halqasining anatomik va fiziologik xususiyatlarini juda aniq baholash imkonini beradi. Xirurgik davolash barcha bosqichlarining aniq muddatlari, operatsiyadan keyingi davrning kechishi, tekshirilayotgan vaqtda to'qimalarning holati muhim ahamiyatga ega.

Otolaringologning xulosasida eshitish funksiyasi, burun-xalqum, og'iz-xalqum, burun bo'shlig'i holati tavsiflari keltiriladi.

Ortodont va tish shifokorining xulosalari jag'-tish tizimining holati, artikulyasion apparatning tarkibiy va funksional buzilishlari mavjudligi haqida ma'lumot beradi. Agar bola ortodontik qurilma taqib yurgan bo'lsa, unda ushbu mutaxassislarning xulosasiga ko'ra, ortodontik davolashning maqsadi aniqlanadi.

Shuningdek, psixolog va otolaringolog tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ham e'tibor qaratiladi.

Nutqning talaffuz tomonini har tomonlama maxsus tekshiruvini o'tkazish. Tekshirish nutq apparatining periferik bo'limi, jumladan, nafas olish a'zolari, ovoz hosil bo'lishi va artikulyasiya ishini o'rganishni o'z ichiga oladi. Bolaning so'zning fonematik tarkibini to'g'ri idrok etishi va talaffuzining belgilangan namunaga mos kelish-mos kelmasligini baholashi uchun zarur bo'lgan fonematik vakolatlik holatiga ham e'tibor qaratiladi.

Tekshirish jarayonida quyidagilar o'rganiladi:

1. Nafas olish funksiyasining holati:

1.1. Tinch holatda nafas olish: nafas olish turi, uning chuqurligi va kuchi. Fiziologik nafas olish davrining xususiyatlari.

1.2. Fonatsion nafas olish: uning turi, kuchi, nutq chiqarish davomiyligi. Fonatsiya vaqtida burun orqali havo sizib chiqishi mavjudligi.

2. Ovoz tembri - tovushlarning yakkalanib aytilishida hamda nutq oqimida nazalizatsiya darajasi.

3. Artikulyasion apparat organlarining tuzilishi va vazifasi.

4. Fonematik idrokning holati.

5. Tovush talaffuzi holati.

Vazifalarni bajarishda qiyinchilik tug'ilganda quyidagi yordam ko'rsatiladi:

- takrorlash va qo'shimcha ko'rsatmalar;
- xuddi shunday vazifa bo'yicha materialni tushuntirish;
- misollar keltirish.



Tekshirish natijalari nutq xaritalarida aks ettiriladi va korreksion-pedagogik ish dasturini tuzishda hisobga olinadi.

Tug'ma tanglay patologiyasini jarrohlik yo'li bilan davolashning yangi imkoniyatlari paydo bo'lishi bilan nutq rivojlanishi bir xil patologiyali bemorlardan juda farq qiladi, lekin katta yoshda operatsiya qilingan bolalar logopedik amaliyotda juda ko'p topiladi. Shuning uchun, tekshirish davomida bolaning nutqini tug'ma yoriq lab va tanglayning plastik jarrohligidan keyingi baholash mezonlariga e'tibor qaratish kerak.

1. Fiziologik nafas olishning ko'krak yoki qovurg'a-qorin turi. Og'zaki nafas chiqarish va fonatsion nafas olishning shakllantirilishi.

2. Rezonans muvozanati, burun emissiyasi va mimik mushaklarining kompensator harakatlarida buzilishlarning mavjud emasligi.

3. Tilning og'iz bo'shlig'idagi normal holati. Tilning ildizi tushirilgan, tarang emas. Pastki tishlarning uchi nutq davomida artikulyatsiyada faol ishtirok etadi.

4. Tovush hosil bo'lishining to'g'ri yo'li va joyi. Laringeal va faringeal yoylarning mavjud emasligi, shuningdek, tovushlarni burundan chiqarish va tiloldi tovushlarning tilorti tovushlarga almashtirish.

Ba'zan yoriq tanglay jarrohligi davolanishidan so'ng, bolada tanglay-halqum yetishmovchiligi (THH) rivojlanishi, yutish va fonatsiya paytida tanglay-halqum halqasi (THH) patologik holati tanglay-halqum yopilishi (TXYo) teshigi bilan nomukammal tarzda amalga oshiriladi.

Bolani logopedik tekshirish jarayonida olingan natijalarni tahlil qilishni boshlashda nutq patologiyasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni hisobga olish kerak:

1. Vujudga kelishining biologik yoki ijtimoiy omili.

2. Rivojlanishning organik yoki funksional sababi.

3. Nutq apparatining markaziy yoki periferik qismda mahalliylashuvi.

4. Boshlanish vaqti.

5. Nuqsonning og'irlik darajasi.

Rinolaliyaning og'irlik darajasi har xil, lekin u buzilishning umumiy xususiyatiga ega. Ya'ni, odatda, artikulyativ jihatdan murakkab tovushlarga emas, balki unilar, lab-tish, lab-lab hamda til orqa tovushlari ham buziladi.

Shunday qilib, rinolaliyada to'g'ri tashkil etilgan diagnostika bola bilan korreksion ishlar yo'nalishlarini juda ham aniq belgilash va nutqni tiklash jarayonini tezlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Логопедия. Методическое наследие: Пособие для логопедов и студ. Нарушения голоса и звукопроизводительной стороны речи: В 2 ч. – Ч. 2. Ринолалия. Дизартрия.

2. Ермакова И.И. Коррекция речи и голоса у детей и подростков. – М.: Просвещение. 1996.

3. Shokirova Sh.D. Rinolaliyalı bolalar nutqining intonatsion ifodaliligini tekshirish algoritmi. T.: Bola va zamon jurnali, 3-son.

4. http://www.un.org/esa/socdev/uniyin/documents/children_disability_rights.pdf, 7-24 p.

MAKTABGACHA YOSHDAGI DUDUQLANUVCHI BOLALAR BILAN MULOQOT QILISH QOIDALARI

Sh.Abutova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, o'qituvchisi

В статье рассматривается вопрос психолого-педагогической поддержки и помощи детям с тяжелыми нарушениями речи, а именно с заиканием. Полезными могут быть и советы для педагогов и родителей, оказывающих детям с заиканием психолого-педагогическую помощь и поддержку в ходе комплексной коррекционной работы.

Ключевые слова и понятия: тяжелые нарушения речи (ТНР), заикание, логофобия, правила речи для устранения заикания.

The article deals with the issue of psychological and pedagogical support and assistance to children with severe speech disorders, namely stuttering. Tips for teachers and parents who provide children with stuttering with psychological and pedagogical assistance and support in the course of complex correctional work can also be useful.

Key words and concepts: severe speech disorders, stuttering, logophobia, speech rules to eliminate stuttering.

Har yili 22 oktyabrda Butunjahon duduqlanishdan xabardorlik kuni nishonlanadi. Dunyo bo'ylab millionlab odamlar ushbu muammodan aziyat chekmoqda. Logopediyada qabul qilingan psixologik-pedagogik tavsifnomaga ko'ra bu muloqot vositalari qo'llanilishining buzilishidir.

Duduqlanish – og'ir nutq buzilishi sanaladi. Logopediya bo'yicha darsliklarda ushbu nutq nuqsonining quyidagi ta'riflari keltirilgan. Duduqlanish – nutq apparati mushaklarining tortilishi bilan bog'liq nutqning temp-ritmik tomoni buzilishidir.

Duduqlanish nutq apparati mushaklaridagi tortilishlar tufayli yuzaga keladi. Tortilishlar ba'zi bolalarda artikulyatsiya bo'limida, boshqalarida ovoz yoki nafas olish bo'limlarida yuzaga kelishi mumkin. Periferik nutq apparatining turli qismlarida og'zaki muloqot jarayonida vaqti-vaqti bilan paydo bo'ladigan tutilish turiga ko'ra, duduqlanishning uchta shakli (yoki turi) ajratiladi: klonik, tonik, aralash.

Duduqlanishning eng erta va yengil shakli klonik bo'lib, u nutq jarayonidagi tutilishlar – tovushlar yoki bo'g'inlar takrorlanishida

namoyon bo'ladi. Ushbu bosqichda bolaga o'z vaqtida va yetarli darajada psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish duduqlanishning keyingi rivojlanishini to'xtatishi mumkin. Bolaga har tomonlama psixologik-pedagogik yordam nafaqat mutaxassis tomonidan, balki maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog hodim (defektolog, musiqa rahbari, jismoniy tarbiya bo'yicha instruktor, tarbiyachi) lari va ota-onalar tomonidan ham ko'rsatilishi kerak. Barcha ishtirokchilar tomonidan ma'lum bir "nutq rejimi", "nutq qoidalari"ga amal qilinishi va psixik-emotsional yuklamalarga nisbatan korreksion tavsiyalarga rioya qilish nutqda duduqlanishni qo'zg'atadigan tutilishlarning chastotasi va faolligini kamaytirishga yordam beradi.

Agar duduqlanishning klonik shakliga ega bolaga har tomonlama psixologik-pedagogik yordam ko'rsatilmasa, unda duduqlanish mustahkamlanib, nutqning doimiy patologik stereotipi shakllanadi. Keyinchalik, vaqt o'tishi bilan, duduqlanishning klonik shakli yanada og'irroq tonik shakliga aylanadi, bunda nutqda so'z boshida yoki o'rtasida uzoq to'xtashlar va pauzalar paydo bo'ladi.



Bu bosqich bolada uzoq vaqtdan beri duduqlanish borligidan hamda duduqlanishning oldini olishga qaratilgan maxsus psixologik-pedagogik yordam olmaganligidan dalolat beradi. Bola nutqida tutulishli turg'un patologik stereotipi shakllangan bo'ladi. Bunday duduqlanishni bartaraf etish uzoq vaqt davomida kompleks tibbiy-psixologik-pedagogik yondashuvni va davolanishni talab qiladi. Shu sababli, ushbu sohadagi mutaxassislar duduqlanishni bartaraf etishdan ko'ra, uni oldini olish osonroq deya ta'kidlashadi.

Duduqlanishning aralash, ya'ni, tortishishlarning ustunlik xususiyatiga ko'ra klonik-tonik yoki tonik-klonik turi ham mavjud. Ushbu turdagi duduqlanish ikki turdagi tutilish mavjudligini, duduqlanishning yanada og'irlashayotganligi va mustahkamlanayotganligini ko'rsatadi.

Duduqlanish juda murakkab nutq nuqsoni bo'lib, unda odam nutqining yaxlitligi va ravonligi buziladi. Bu tovushlar, bo'g'inlar yoki so'zlarning takrorlanishi yoki cho'zilishi, so'z o'rtasida pauza shaklida namoyon bo'ladi. Duduqlanish tez-tez to'xtash yoki gapirishni boshlashda ikkilanish shaklida o'zini namoyon qilishi mumkin. Duduqlanish bolaning boshqalar bilan to'laqonli og'zaki muloqot jarayonini qiyinlashtiradi.

Duduqlanuvchi bolalarda turli xil nutq tortilishlaridan bilan birga qator patologik belgilar ham mavjud bo'ladi. Masalan, umumiy motorikaning temp-ritmik tashkil etilishining buzilishi. Skelet mushaklarida sinkenezia yoki hatto giperkinezlar, shu bilan birga bolaga duduqlanishni yashirishga va nutqni ritmlashtirishga yordam beradigan nayranglar. Misol uchun, agar bola "suv" so'zida birinchi "s" tovushida duduqlansa, u holda "s" tovushi bo'lmagan boshqa so'zni qidiradi va uni boshqa "choy, ichishga" kabi so'zlar bilan almashtiradi. Asta-sekin, bolada nuqsonga psixologik fiksatsiya paydo bo'ladi. Shu paytdan boshlab gapirish qo'rquvi – logofobiya shakllanishi mumkin bo'lib, u maktabgacha yoshning oxiriga kelib namoyon bo'ladi.

Duduqlanish har qanday yoshdagi bolalar va kattalarda paydo bo'lishi mumkin. Duduqlanish ko'pincha 2 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda uchraydi. Jumlati nutqi tez rivojlangan ba'zi bolalar 2-3 yoshida duduqlana boshlaydi. Nutqning umumiy rivojlanishi kech bo'lgan bolalarda duduqlanish 4-5 yildan keyin paydo bo'lishi mumkin. Qanday bo'lmasin, ba'zi bolalarda duduqlanish jumlati nutqning shakllanishi paytida, nutq aloqa vositasiga aylanganda paydo bo'ladi.

Duduqlanishni oldini olish yoki bartaraf etish yo'llarini aniqlashda, nutqning buzilishiga olib kelgan sabablarni belgilash muhim ahamiyatga ega. Buning uchun mutaxassislar keng qamrovli tekshiruv o'tkazadilar va sababsiz pauzalar bilan nutqning uzilishiga olib keladigan klonik yoki tonik tortilishlarni aniqlaydilar. Tekshiruv duduqlanishga irsiy moyillik, noto'g'ri tarbiya, travmatik vaziyatlar va boshqa muhim omillarni aniqlashi mumkin. Tekshiruv natijalarini olgandan so'ng, logoped bola bilan korreksion-logopedik ish mashg'ulotlarining individual dasturini tuzadi.

Mutaxassislik mashg'ulotlariga qo'shimcha ravishda, bolalar qatnovchi maktabgacha ta'lim tashkilotida ham, uydaham korreksion nutq rejimini saqlab turish muhimdir: "nutq qoidalari" va psixik-emotsional yuklamalarga nisbatan korreksion tavsiyalarga qat'iy amal qilish joiz. Duduqlanuvchi bola bilan shug'ullanadigan mutaxassis tomonidan belgilanadigan bunday tavsiyalarga quyidagilar kiradi: "sukut rejimi", "nutqni cheklash rejimi", "nutqni himoyalovchi rejim", "maxsus himoya rejimi" va boshqalar.

Duduqlanuvchi bola uchun korreksion rejimni yaratish bo'yicha tavsiyalar maktabgacha ta'lim muassasasida ham, uydaham bajarilishi kerak. Ota-onalar va pedagoglar tomonidan tavsiyalarga rioya qilish duduqlanishni bartaraf etishga va to'g'ri ravon nutq qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Duduqlangan bolalar uchun nutq qoidalari

Pedagog xodimlar, tarbiyachi va ota-onalar bu nutq qoidalarini puxta egallab, duduqlanuvchi bolaga nutqning to'g'ri namunalarini ko'rsatishlari kerak. Sekin sur'atda va xotirjam gapirish, barcha unli tovushlarni aniq talaffuz qilish kerak. Unli tovushlarni talaffuz qilishda ularni aniq artikulyatsiya qilish va og'izni ochish kerak. Barcha unli tovushlar lablarning aniq va faol harakatlari bilan talaffuz etilishi lozim. Masalan, "i" tovushi uchun lablar yon tomonlarga cho'zilib, tabassumga keltiriladi, "u" tovushi uchun lablar naycha shaklida cho'ziladi.

Nutq paytida unli tovushlarga tayanib, ularni reduksiyaqlanmagan (qisqartirilmagan) holda urg'u bilan va aniq talaffuz qilish kerak, undoshlar esa aksincha, yengil, oson, yuzaki va urg'usiz talaffuz qilinishi maqsadga muvofiq. Barcha tovushlar faqat nafas chiqarayotganda talaffuz qilinadi. Bola jumlati aytishdan avval nima demoqchi ekanligini, qanday savol berishni, qanday javob berishni o'ylab, so'ng aniq, to'liq va tugallangan shaklda so'zlashi joiz.

Suhbatdoshning, siz murojaat qilayotgan odamning ko'ziga qarash tavsiya etiladi. Savolga javob berayotganda ham birinchi navbatda savol bergan odamning ko'ziga qarash, shoshilmasdan o'ylab javob berish kerak.

Nutq paytida optimal ovoz balandligini tanlash, past yoki juda baland ovozda gapirmaslik kerak. Nutq paytida qad-qomatni nazorat qilish, bosh va oyoq-qo'llarning holatini kuzatish kerak. Agar tik turib gapirish kerak bo'lsa, unda qad-qomatni rostlab, tik turish, oyoqlar yelka kengligida bo'lishi lozim. Agar o'tirib gapirish kerak bo'lsa, unda oyoqlar stol ostida bir-biriga qo'yilmagan holda, yelkalar kengligida turishi kerak. Bundan tashqari, belni tekis qilib o'tirish, stulning orqa tomoniga tayangan holda, yelkalar esa ko'tarilmagan holda bo'lishi muhim. Qo'llar mushtlarga siqilmasligi kerak. Boshni orqaga tashlash, iyakni ko'krakgacha tushirish tavsiya etilmaydi, iyak bo'yinga nisbatan to'g'ri burchak ostida bo'lishi kerak.

Nafas chiqarishda gapirishni boshlash kerak. Baland ovozda gapirmaslik va iloji bo'lsa, ovozning tonini pasaytirish tavsiya etiladi. Agar jumlaning birinchi so'zi unli bilan boshlansa, gapirishni sekin va bir oz pasaytirilgan ovoz ohangida boshlash kerak.

Uzun jumalarni mazmunli qismlarga bo'lish kerak. Har bir bunday qism qisqa jumla sifatida talaffuz qilinishi kerak. Jumlaning qismlari orasida pauzalarni qilish tavsiya etiladi. Nutq xotirjam va ishonchli bo'lishi uchun jumladagi birinchi unilarning talaffuzini cho'zish va jumlaning barcha so'zlarini bir-biri bilan bog'lash kerak.

Nutqni ifodaliligidan juda muhim vositasi – bu intonatsiya vositalari (pauzalar, mantiqiy urg'u, ifodali intonatsiyalar, ovoz balandligi va kuchini modulyatsiyalari, aniq diksiya, vazmin nutq tempi va yumshoq ovoz tembridan) foydalanishdir.

Kinetika og'zaki muloqotda muhim rol o'ynab, u o'z ichiga turli xil ifodali imo-ishoralar, mimik harakatlari, tabassum va boshqalarni qamrab oladi. Nutqning kommunikativ tomoni buzilgan duduqlanuvchilarga qo'shimcha ifodalilik vositalarini taqdim etish muhimdir.

Ravon va ifodali nutqning yangi to'g'ri ko'nikmalarini rivojlantirish uchun duduqlanuvchi bola bilan korreksion ishlarini yanada muvaffaqiyatli qilish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish kerak.

Pedagog va ota-onalar uchun maslahatlar

Agar bola duduqlansa, unga "to'g'ri gapi", "sekin gapir", "o'zingni bo'sh qo'y", "gapirishdan avval chuqur nafas ol" kabi nutqga oid tanbehlar berish mumkin emas. Bolaning oldida unung duduqlanishi haqida gapirmaslik joiz. Agar duduqlangan bola maktabgacha ta'lim tashkilotidagi guruhga qatnasa, u holda tarbiyachilar boshqa bolalarning ko'z o'ngida duduqlanuvchi bolaning chalkash nutqiga e'tibor bermasliklari, duduqlanishi



sababli tugata olmagan jumlasini aytmasliklari kerak. Agar pedagog bolaning nutqidagi duduqlanishlarga e'tibor bermasa, boshqa bolalar muammoni sezmaydilar.

Pedagog duduqlanuvchi bola tengdoshlari tomonidan masxara qilinishi, laqablar qo'yilishi yoki umumiy o'yinlardan chetlatilishini oldini olishi va yo'l qo'ymaslik kerak. Suhbat davomida duduqlanuvchi bola uni diqqat bilan va xotirjam tinglayotganliklarini, shu bilan birga, tinglovchilar bolaning qanday gapirayotganligiga umuman e'tibor qaratmayotganliklarini his qilishiga imkon berish muhim. Bolaga gapini oxirigacha aytishga imkon berish, to'xtatib qo'ymaslik yoki shoshiltirmaslik kerak. Bola bilan doimiy nigoh orqali aloqa saqlab turish va bola gapirib bo'lishini sabr bilan kutish kerak.

Bolaga ko'p savol berish tavsiya etilmaydi. Bola bilan muloqot jarayonida pedagog va ota-onalarning nutqi vazmin va sekinlashgan bo'lishi joiz. Duduqlanuvchi bolani iloji boricha tez-tez va o'rinni rag'batlantirish va maqtash kerak. Bunda, bolaning boshini silash va umuman boshiga tegish tavsiya etilmaydi. Duduqlanuvchi bola bilan ishlashda uning qiziqishlarini hisobga olish va o'yindagi tashabbusini qo'llab-quvvatlash kerak. Boladan o'ziga xos xususiyatlari tufayli uddalay olmaydigan amallarni talab qilmasligingiz kerak. Bolani boricha qabul qilish va sevishtirish kerak.

Duduqlanishni bartaraf etish tibbiy-psixologik-pedagogik kompleks ish bo'lib, ikki blokdan iborat. Birinchi blok tibbiy va sog'lomlashtiruvchi faoliyatga qaratilgan. Ushbu tadbirlarni maxsus dori-darmonlar bilan davolashni amalga oshiradigan, tibbiy muolajalarni, fizioterapiya mashqlarini va hokazolarni tayinlaydigan shifokor tashkil qiladi.

Ikkinchi blok korreksion pedagogik ta'sirga bag'ishlangan. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi korreksion-pedagogik jarayonining barcha ishtirokchilari, shuningdek, duduqlanuvchi bolaning ota-onalari ishtirok etadilar. Asosiy korreksion ishlar logoped va psixologlar tomonidan amalga oshiriladi. Logoritmik mashg'ulotlar majburiy va muntazam bo'lishi kerak. Barcha maktabgacha tarbiya tashkiloti pedagog hodimlari logoped, psixolog va shifokorlarning tavsiyalariga binoan psixologik-pedagogik korreksion tadbirlarini amalga oshiradilar.

Duduqlanish nafaqat nutqqa, balki bola hayotining boshqa sohalariga – somatik, nevrologik, psixologik, motor, shaxsiy va boshqalarga ta'sir qiluvchi eng tug'un og'ir nutq buzilishlaridan biri bo'lganligi sababli, duduqlanishni korrektsiyalashdan ko'ra oldini olish osonroq degan xulosaga kelish mumkin. Shu sababli, duduqlanishni erta aniqlash, pedagog va shifokorlarning profilaktik psixologik-pedagogik yordami duduqlanishni mustahkamlanishini oldini olishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Белякова Л.И. Основные логопедические технологии, формирование плавной речи у заикающихся // Дефектология. 2001. №4.
2. Богомолова А.И. Устранение заикания у детей и подростков. Из опыта работы: [Электронный ресурс] / А.И. Богомолова // www.pedlib
3. Борисова ЕА. Совместная работа воспитателя и логопеда по преодолению заикания и ОНР у детей старшей группы.
4. Волкова Г.А. Логопедическая ритмика. – М.: Владос. 2002.
5. Ворошилова Е.Л. Система работы с заикающимися дошкольниками // Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. 2006. №2.
6. Гегелия Н.А. Родителям о заикании детей и подростков // Дефектология. 1998. №4.
7. Гладковская Л.М. Использование песка и воды в индивидуальной работе с заикающимися детьми 5-6 лет // Логопед. 2008. №1.
8. Гладковская Л.М. Подгрупповые комплексные занятия для старших дошкольников, страдающих заиканием // Логопед. 2008. №8.
9. Гончарова Н. Коррекция заикания // Дошкольное воспитание. 2005. №3.
10. Казбанова Е.С. Развитие темпо-ритмической организации детской речи как способ профилактики заикания // Логопед. 2005. №6.
11. Картушина М.Ю. Конспекты логоритмических занятий с детьми 6-7 лет. – М.: Сфера. 2006.
12. Комплексный метод преодоления заикания у детей в условиях санатория: [Электронный ресурс] / www.kved // Курортные ведомости. 2009. № 1 (52).
13. Морозова Н.Ю. Как преодолеть заикание. – М.: Эксмо-пресс, 2002.
14. Руденко И.И. Логопедическая ритмика для дошкольников с речевой патологией // Воспитание и обучение детей с нарушениями развития. 2005. №1.
15. Селиверстов В.И. Заикание у детей: Психокоррекционные и дидактические основы логопедического воздействия. – М.: Владос, 2000.
16. Скрыпник И. Примерные конспекты логоритмических занятий с детьми, страдающими заиканием // Дошкольное воспитание. 1996. №5.

ALALIYA NUTQ NUQSONIGA EGA BOLALAR NUTQI LEKSIK-SEMANTIK TOMONINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sh.E.Toxtiyarova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

“Logopediya” kafedrası o'qituvchisi, PhD

Yu.R.Maxamadiyeva, mazkur universitet magistratura bosqichi talabasi

В статье рассмотрены особенности формирования семантического поля детей с алалией. Описаны результаты экспериментального исследования по выявлению особенностей формирования лексического развития детей в условиях нормального и нарушенного речевого развития в процессе онтогенеза.

Ключевые слова и понятия: алалия, дошкольники, лексико-семантическая сторона речи, семантическое поле.

The article considers the features of the formation of the semantic field of children with alalia. The results of an experimental study on the identification of the features of the formation of the lexical development of children under conditions of normal and impaired speech development in the process of ontogenesis are described.

Key words and concepts: alalia, preschoolers, lexico-semantic aspect of speech, semantic field.



Huquqiy demokratik jamiyatda bolalar, umuman har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo, bilim o'z yo'liga, mustaqil fikrlash ham katta boylikdir. Biz boshlang'ich sinfdayoq bolalarning lug'at boyligini oshirishga, so'zlarning shakl va munosabatlariga ko'ra turini aniqlashga kirishmog'imiz lozim.

Bola nutqining to'g'ri shakllanishi asosan boshlang'ich maktabda izga solinadi va u o'rta maktabga o'tganida to'lagicha takomillashadi.

Nutq –kishi faoliyatining turi, til vositalari asosida tafakkurini ishga solishdir. Nutq o'zaro aloqa va xabar funksiyasini, o'z fikrini his- hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta'sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biridir, bola uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish qurolidir.

Maktabgacha ta'limda bolalarning og'zaki nutqini o'stirishi rejalı tashkil etilsa, bu sohadagi tadbirlar muntazam ravishda amalga oshirib borilsagina u bolaning butun vujudiga, uning hissiyotiga, tasavvuriga, iroda va xarakteriga, nihoyat fikrlash faoliyati va qobiliyatiga ta'sir etib nutqning ravon ifodali bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yo'l bilan nutq malakalarini rivojlantirish orqali, ularda to'g'ri so'zlash va aniq, mantiqiy fikr ifodalash salohiyati shakllanib boradi. Ularning ijodiy faoliyati va iste'dodlarini rivojlantirib ro'yobga chiqaradi.

Logoped bolalarning og'zaki nutqini o'stirish uchun barcha mashg'ulotlarda ularning lug'at boyliklarini aniq maqsadga yo'naltirilgan reja asosida so'zlarni nutqda faol qo'llashga o'rgatish orqali mustahkamlab borish kerak. Bolalar yetarli so'z boyligiga ega bo'lmasdan turib aniq va ravon fikr yuritmaydilar. O'rgatilgan har bir yangi so'z bolalarning so'z zaxirasini oshiradi, fikr ifodalash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuning uchun xam bolalar bilan so'z va uning ma'nolarini egallash ustida uzluksiz ish olib borish lozim.

Bu davrda bolalar o'zlarining nutqiga nisbatan ma'suliyatli bo'la boshlaydilar, atrofdagilar bilan munosabat o'rnatish uchun uni tashkil etishga o'rganadilar.

Shuningdek, bu davrda intizomga rioya qilish ko'nikmalari shakllanadi, yakka hamda jamoali faoliyatni tashkil etish malakalari rivojlanadi, muloqot qilish, boshqa odamlar bilan hamkorlikning ahamiyati anglanadi. Bolada butun hayoti davomida foydalanadigan muloqotning qoidalari va me'yorlari shakllana boshlaydi.

Butun dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va boshqa o'zgarishlar, ekologik muammolar, shuningdek, tibbiyot va farmakologiyaning yutuqlari natijasida alohida yordamga muhtoj, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan, ta'limda alohida ehtiyojli bolalar soni ko'payib bormoqda va bunda birincha navbatda og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalar sonining oshib borishi ko'zga tashlanadi. Og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarda kuzatiladigan nutq kamchiliklari tizimli xarakterga ega bo'ladi, bunda nutqning barcha komponentlari: fonetik-fonematik, leskik va grammatik tomonlari buziladi. Bunday bolalarga yordam ko'rsatish masalalari juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus pedagogikaning hozirgi vaqtidagi rivojlanish bosqichida muammoli bolaning shaxsini tarbiyalash, uni ijtimoiy hayotga moslashtirish va ijtimoiylashtirish masalalari birinchi o'ringa chiqib bormoqda. Chunki mutaxassislar ma'lumki, bolalar rivojlanishidagi birlamchi nuqsonlar bolaning jamiyatdan "chetga chiqib qolishi"ga olib keladi (Boryakova N.V.).

Nutqning leksik-semantik tomonini muvaffaqiyatli shakllantirish alaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga

o'zining tengdoshlari va kattalar bilan gaplashish, suhbat qurish, ma'lum bir mavzuda suhbatni olib borish, hikoya tuzish, matnni so'zlab berish, nutqiy madaniyat qoidalariga ro'ya qilishga imkon yaratadi.

Alaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bola dastlabki bosqichda so'zning mohiyatini qiyinchilik bilan o'zlashtiradi. Maktabgacha yoshda nutqning leksik-semantik tuzilishining buzilishlariga e'tibor qaratilmasa kichik maktabgacha yoshga o'tadi, natijada quyi sinfda dasturni o'zlashtirishda qiyinchiliklar tug'iladi. Hozirgi kunda bu masala o'rganilayotgan bolalar toifasi uchun quyi sinf bolalari nutqining leksik-semantik tomonini shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirishga qaratilgan dasturni ishlab chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarda alaliya nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar uchun o'quv-tarbiyaviy jarayonining sifatini oshirishga, shu jumladan ular nutqining leksik-semantik tomonini shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirishga qaratilgan metodik va nazariy materiallar (metodlar, dasturlar va texnologiyalar) zarurligini ko'rsatadi.

Maxsus pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish asosida biz og'ir nutq nuqsonlariga ega bolalar nutqining semantik tomoni rivojlanishida bir qator kamchiliklar yuzaga kelishi, mazkur muammolar avvalambor, so'z semantikasi, ya'ni so'zni boshqa so'zlar bilan bog'lanishlari tizimini shakllanishida aks etishini aniqladik. Mazkur fenomenni tadqiq etish uchun eksperimental tadqiqot metodlarini tanlash va metodikasini tuzish davomida uning tarkibiga assotsiativ eksperiment metodlarni ham qo'shish maqsadga muvofiq deb topildi.

Ta'kidlovchi eksperiment maqsadi 2-sinfda ta'lim oluvchi og'ir nutq nuqsonlari va shu jumladan, alaliyalı o'quvchilar nutqi leksik-semantik tomonining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda uni nutqi me'yorda bo'lgan tengdoshlari bilan taqqoslashdan iborat edi.

Amalga oshirilgan eksperimental tadqiqot asosida alaliya nutq nuqsoni tashxislangan o'quvchilar nutqi semantik tomonining bir qator xususiyatlarini aniqlash imkoni yaratildi. Kichik maktab yoshidagi alaliya nutq nuqsoniga ega o'quvchilarning nutqi semantik tomoni nutqi me'yorda rivojlangan tengdoshlariga nisbatan so'zlarni sodda bog'lanishlari afzalligi bilan farq qiladi. Mazkur xususiyat alaliya nutq nuqsoniga ega bolalarda til tizimidagi aloqalarni shakllanishi orqada qolayotgani bilan izohlanadi. Nutqida og'ir nuqsoni bo'lgan bolalar uchun paradigmatic vaziyatli aloqalar xos emas. Biroq paradigmatic tushunchalar, bog'lanishlar nutqi me'yordagi bolalar uchun ham xos emasdir. Ular faqatgina nutqi yuqori darajada rivojlangan bolalarda kuzatiladi.

Nutqiy rivojlanishning orqada qolishi me'yorga nisbatan so'z ortida turgan bog'lanishlar miqdorini kam bo'lishiga olib keladi. Bundan tashqari tadqiqot asosida quyidagilar aniqlandi: og'ir nutq nuqsoniga ega o'quvchilarning semantik tizimlari nisbatan juda torligi, bo'sh, nomustahkamligi va pereferiyalarning ishlanmaganligi bilan farq qiladi. Shu bilan birga so'z semantikasiga noverbal nutq vositalaridan foydalanish tajribasi, mazkur lingvistik tekkislikka xos "so'z hosil qilish" o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biroq mazkur xususiyat eksperimentdagi assotsiativ topshiriqlarni bajarishda namoyon bo'lmaydi, chunki noverbal nutq vositalarida murakkab harakatlar kompleksini tashkil etuvchi leksik birliklar ko'p hollarda bu yoshdagi, hatto nutqi me'yorda bo'lgan bolalar uchun notanishdir. Shu bilan birga, tadqiqotda qo'llangan ba'zi bir ma'noli so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar, so'z birikmalarining leksik ma'nosini tushuntirishda qiyinchiliklar



yuzaga kelishi semantik tomondan mustahkamlanmaganidan dalolat beradi.

Amalga oshirilgan eksperimental tadqiqot asosida alaliya nutq nuqsoni tashxislangan o'quvchilar nutqining semantik tomoniga xos bo'lgan ikki xususiyat aniqlandi:

– Birinchisi, alaliyaga ega bolalardagi nutq rivojlanishining umumiy orqada qolishi bilan bog'liq bo'lib, so'zlarning semantik bog'lanishidagi nisbatan soddalik, ya'ni paradigmatic bog'lanishlar sonini kamligi hamda eshitishi me'yorda bo'lgan o'quvchilarga nisbatan semantik bog'lanishlarning umumiy miqdori ozligi, ifodalanish doirasining torligidir. So'nggi xususiyat so'zning faqat asosiy (keng tarqalgan) ma'nosigagina asoslanishda namoyon bo'ladi.

– Ikkinchisi, alaliya kabi og'ir nutq nuqsoniga ega bolalar tomonidan nutqni egallash xususiyati bilan bog'liq bo'lib, nutqi me'yorda bo'lgan o'quvchilarga nisbatan imo-ishorali "omonimiya" tipidagi hamda imo-ishora tilini "so'z hosil qilish" qoidalari bilan bog'liq bog'lanishlar miqdorining juda ko'pligi, paradigmatic tushunchali munosabatlarda ekvoniimik bog'lanishlarning katta ahamiyatga egaligi.

Adabiyotlar

1. Апухтин В.Б. Психолингвистический метод анализа смысловой структуры текста: Дис. ...канд.фил.наук. – М.: 1997.

2. Беккер Р. Речевые и познавательные способности детей с отставанием в речевом развитии, дисграфией, дислексией и детей без нарушений // Проблемы патопсихологии речи. Тезисы Всесоюз. симпозиума. – М.: 1989.

3. Береснева Н. И. Модель внутреннего лексикона в позднем онтогенезе: Автореф..... канд. филол.наук. – Пермь: 1997.

4. Власенко И.Т. Особенности словесного мышления взрослых и детей с нарушениями речи. – М.: 1990.

5. Гуменная Г. С. Психолого - педагогическая типология детей с недоразвитием речи // Теория и практика коррекционного обучения дошкольников с речевыми нарушениями. – М.: 1991.

6. Медведева Е.Ю. Особенности работы по обогащению лексико-грамматической стороны речи у дошкольников с нарушением речи // Вестник Мининского университета. 2014. №3.

7. Парфенова Э.Б. Оптимизация процесса понимания речевого сообщения.: Автореф.....Канд. пед.наук. – М.: 1999.

8. Ушакова Т. Н. Психологическое содержание речи ребенка 3-5 лет / Т. Н. Ушакова // Вопросы психологии. 2000. №2.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MULTIMEDIYA VOSITALARI ORQALI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

N.M.Kayumova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
"Maktabgacha ta'lim psixologiyasi va pedagogikasi" kafedrasida dotsenti

В статье рассматривается важность использования мультимедийных технологий в организации деятельности в дошкольном образовании, формировании компьютерной грамотности детей и обеспечении их самостоятельной работы на компьютере.

Ключевые слова и понятия: ориентированная на детей учебная программа, грамотность, материально-техническая база, дошкольное образование, компьютерные игры.

The article discusses the importance of using multimedia technologies in organizing activities in preschool education, the formation of children's computer literacy and ensuring their independent work on the computer.

Keywords and concepts: child-oriented curriculum, literacy, material and technical base, preschool education, computer games.

Bugungi kunda barkamol avlodni tarbiyalashda yoshlarni intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish va ularning har tomonlama rivojlangan shaxs etib voyaga yetkazish – davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishiga aylangan. Chunki jismoniy sog'lom va ma'naviy yetuk shaxslargina buyuk kelajakni yaratadi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasida 2016 yil 29 dekabrda "2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2707-son, 2017 yil 9 sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3261-son hamda 2018 yil 30 sentyabrda

"Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3955-son kabi qator qaror, qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilindi.

Barkamol avlodni shakllantirish dastlab oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Xalqning aniq maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bolishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog'liq [1]. Ushbu fikrlar maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ham taalluqlidir. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 7-moddasida ta'lim turlari sanab o'tilib, uning birinchi turi – "Maktabgacha ta'lim-tarbiya" ekanligi ta'kidlangan. Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish tartibi ushbu Qonun, shuningdek "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilanadi [2].



“Maktabgacha ta'lim” atamasi 1997 yilda YUNESKO qarori bilan kiritilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu albatta quvonarli hol. YUNISEF tashkilotining “Bolaga yo'naltirilgan ta'lim dasturi”da MTTlarning ta'lim-tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish dolzarb masala ekanligi ta'kidlangan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarda kompyuter savodxonligini shakllantirish, ularni kompyuter bilan elementar tarzda muomala qilishga o'rgatish va maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshiradi. Natijada, ularning aqliy rivojlanishi shakllana boradi. Multimediyali kompyuter o'yinlari tarbiyalanuvchilarning qiziquvchanlik xususiyatini oshirishi quyidagilar asosida namoyon bo'ladi:

1) ekranda ko'rsatiladigan o'yin obyektiga animatsiya samarasi berilgan bo'lishi va ular doimiy ravishda harakatlanib, jilolanib turishida; 2) tovushda; 3) musiqada; 4) animatsiyada; 5) multifikatsiyada.

O'yin davomidagi ushbu “kompyuterli” psixologik-pedagogik ta'sirlar yosh bolalarning faqat qiziquvchanlik xususiyatini oshiribgina qolmasdan, balki bilim olishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ldiki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyasini shakllanishida axborot texnologiyalari ya'ni, multimedialardan foydalanish uni maktabgacha ta'lim tashkilotlarida samarali qo'llash hozirgi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Multimediya vositalarini tayyorlash va bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish metodikasi shaxsiy kompyuterlar multimediya texnologiyasining asosiy texnik vositasi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishda qo'shimcha vositalar – kompakt disklar, turli xil taqdimotlar, slaydlar va hokazolar talab etiladi. Multimediya vositalaridagi ta'lim-tarbiya materiallari dinamik xarakterga ega bo'lib, ular animatsiya bilan berilgan bo'ladi. Ta'lim tizimida foydalanib kelinayotgan an'anaviy ko'rgazmali materiallar statik xarakterga ega. Masalan, tarbiyachi maktabga tayyorlov guruhi bolalariga “Til va nutq markazida” A harfini an'anaviy usulda o'rgatish mobaynida, bolaga uning qog'ozdan yoki kartondan yasalgan shaklini ko'rsatadi (statik vosita). Multimediya vositasida ko'rsatilganda A harfi kompyuter (monitor) ekranida tebranib, bolalarning diqqatini o'ziga jalb etadi (dinamik vosita). Hozirgi kunda turli xil multimediyali ta'lim vositalarini ishlab chiqish va ularni ta'lim -tarbiya jarayoniga tatbiq etish jadal rivojlanayapti. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida ularidan foydalanish metodikasi ishlab chiqilmagani uchun tarbiyachi-pedagoglar multimediya vositalarini multimediya texnologiyasi sifatida qabul qilmoqdalar. Kezi kelganda shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, multimediya vositalarini ishlab chiqaruvchi maxsus muassasadan tashqari, har bir maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining o'zlari tayyorlashi mumkin bo'lgan dasturli va rolli multimediya vositalarini (DVD-disk) qo'llash mumkin. DVD video diski multimediyaning texnik vositasi sifatida bir necha afzalliklarga ega. Diskdan foydalanib, o'rganiladigan materialni bosqichlar bo'yicha to'la, ba'zi hollarda alohida elementlarini ko'rish mumkin, zarur bo'lganda material qayta namoyish etiladi. DVD video diskda sxemalar, rasmlar, grafiklar ham joylashtirilgan bo'ladi. Multimediya texnologiyasining didaktik vositalari ta'limning didaktik talablariga to'la mos keladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida multimediyali kompyuterli ta'limni amalga oshirishning asosiy talablaridan biri – bolalarning kompyuter savodxonligini shakllantirish va ularni kompyuterda mustaqil ishlashini ta'minlashdan iborat.

Tarbiyalanuvchilarning kompyuter savodxonligini shakllantirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda kompyuterdan foydalanishga qaratilgani

sababli, tarbiyachi o'zining nazorati ostida “Sichqoncha” yordamida turli ta'lim o'yinlarini, matematik amallarni, ekologik topshiriqlarni va shularga o'xshash vazifalarni bajartirishga o'tadi. Tarbiyalanuvchilar “Sichqoncha”dan foydalanish bo'yicha to'la amaliy malaka va ko'nikma hosil qilganlaridan so'ng mustaqil ish bajara boshlaydilar. Bu holda ham tarbiyachi ularning ishini doimiy kuzatib turadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida kompyuter savodxonligini shakllantirishning yana bir qulay tomoni shundan iboratki, multimediya texnologiyasidan foydalanish jarayonida tarbiyalanuvchilarning bilimni baholash ham kompyuter xotirasiga kiritilgan test savollari, rasmlar, o'yinlar, mashqlar, taqdimotlar orqali amalga oshiriladi. Bu holda tarbiyalanuvchilar berilgan savollarga to'g'ri javob topishlari shart.

Ma'lumki, maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirishda hozirgi asr axborot asri ekanligidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr taqozosidir.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining asosiy vazifalari bolalarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat. Shunga ko'ra, tarbiyachi mashg'ulotlarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobiy natijaga erishiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kuzatishlar shuni ko'satadiki, 80-90% bolalar kompyuter o'yinlarini o'ynashga qiziqishar ekan. Bundan dalolat beradiki, yosh bolalarni qiziqishlariga qarab turli xildagi o'yinlar, mashg'ulotlar, rangli tasvirdagi chizmalarni ko'rsatish orqali ularning dunyoqarashini, axloqiy madaniyatini shakllantirish mumkin ekan. Xulosa qilib aytish mumkinki, kompyuter texnologiyalari multimediya vositalari orqali o'qitishda qo'llanilishi, bolalarning bilish qobiliyatlarini, bilishga bo'lgan motivatsiyalarini kuchaytiradi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan marosimdagi ma'ruzasi
2. O'zbekiston Respublikasi “Ta'lim to'g'risida” Qonuni. 2020y
3. Sh.M.Mirziyoyev. “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. T.:2016 y. 29-dekabr.
4. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. Uslubiy qo'llanma T.: O'zPFITI 2015y
5. “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi, T- 2018 y.
6. www. pedagog. uz
7. www. ziyonet. uz



KICHIK YOSHDAGI BOLALARNI KITOBGA MEHR UYG'OTISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH

D.R.Babayeva, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
“Maktabgacha ta'lim texnologiyalari” kafedrası professori

X.Sh.Ochilova, mazkur universitet magistratura bosqichi talabasi

Одной из приоритетных задач дошкольного образования является приобщение ребенка к чтению, этим можно оказывать благотворное влияние на нравственное становление личности ребенка, формирование его духовных ценностей.

Ключевые слова и понятия: дошкольное образование, любовь к чтению, герои сказок, выражать свои мысли, свободное мышление.

One of the priorities of preschool education is to introduce the child to reading, this can have a beneficial effect on the moral formation of the child's personality, the formation of his spiritual values.

Key words and concepts: preschool education, love of reading, heroes of fairy tales, express one's thoughts, free thinking.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli bilim olishidir. Hozirgi vaqtda maktabgacha ta'lim tashkilotlari ustuvor yo'nalishlarni, dasturlarni, ta'lim xizmatlarining turlarini, pedagoglar va ota-onalarning manfaatlariga qaratilgan yangi ish shakllarini tanlashi mumkin. Bolalar tarbiyasi jarayoniga o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan, kreativ salohiyatga ega pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi [1].

Mamlakatimizda bola tarbiyasi bilan oila, davlat tizimidagi ta'lim va tarbiya beruvchi tashkilotlar, madaniy- ma'rifiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televizor, kino), ularni o'rab turgan tashqi muhit shug'ullanadi. Ayniqsa bolalarga atalgan matbuot nashrlar ularga ta'lim va tarbiya berishda juda katta o'rinni egallaydi. Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manbalardan biri kitobdir. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, kitob qanchalik qiziqarli, hissiyotlarga boy bo'lmasin, agar kitobxon qalbiga yetib bormasa, hayajon solmasa, bunday kitoblarning tarbiyaviy ta'siri kam bo'ladi.

Bolalarga atalgan kitoblarning maqsadi ularga tabiat ato etgan his-tuyg'ularni o'stirishdan iborat. Bunday kitoblarning bilvosita ta'siri bolalarning aqliga emas, balki ularning his-tuyg'ulariga qaratilmog'i kerak. Bolalar uchun yozilgan barcha kitoblar axloq va odob mavzusi bilan bog'liq. Ushbu yo'nalishdagi tarbiya umumiy tarbiya tizimining bir bo'lagi hisoblanadi va doimo boshqar tarbiyaviy yo'nalishlar bilan birga olib boriladi. Chunki biz yosh avlodni pok, vijdonli iymonli, insofli, intizomli, halol va odobli qilib tarbiyalashni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yamiz. Bu murakkab jarayonda kitob vositasida tarbiyalashga katta e'tibor berish zarur. Ayniqsa kichik yoshdagi bolalar o'ta ta'sirchan va hissiyotga beriladigan bo'ladi. Bu yoshda kitoblarda yozilgan fikrlar, kattalar tomonidan aytilgan nasihatlar tezda qabul qilinadi. Ular o'zlarinikidan ko'ra boshqalarning axloqiy tomonlariga, qilgan ishlariga tezda baho beradilar. Ana shularni e'tiborga olib tarbiyachi suhbat, ifodali o'qish, ertak aytib berish, so'zlab berish kabi mashg'ulotlar orqali, ertaklar qahramonlarning xilma-xil xislatlarini, ularning o'zaro munosabatlarini, vaziyat va sharoitlarni tushuntirib berar ekan, shunday xislatlar bolalarning o'zlarida ham borligini aytib o'tadi.

Masalan, bolalarning juda ko'pchilgida uchraydigan maqtancholikning yomonligi va uni nimalarga olib kelishi haqida o'zbek xalq ertaklaridan “Maqtanchoq quyon”ni o'qib bersa, halollik, to'g'rillikning afzalligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi va mustaqil fikrlashga o'rganib boradilar. “O'g'ri va

to'g'ri”, “Bo'ri bilan Tulki” ertagi, Gulxaniyning “Toshbaqa bilan chayon” ertagini aytib berish, do'stlik va ayyorlik haqida suhbatlashish orqali shunday odamlar bizning ichimizda ham bo'lib, birov boylikka, birov qo'rqqanidan, birov mansabga o'tirish uchun do'st bo'lishi va keyinchalik ular baribir aldab ketishini tushuntiradi. Haqiqiy do'st yaxshi va yomon kunlarda ham do'st bo'lib qolaveradi, deb xulosa qiladi. Katta guruh yoshidagi bolalar bilan ishlaganda tarbiyachi bog'cha hayoti bilan bog'liq bo'lgan asarlarga ko'proq e'tibor beradi. Tarbiyachi bolalarga estetik tarbiya berishda quyidagi asoslarga tayanadi:

- shoir yozuvchining mahorati, uslubi, imkoniyati;
- kitobning mazmuni, ma'nosi, kuchi, g'oyasi, badiiyligi;
- tarbiyachining tayyorgarligi, uslubi, bilimi.

Mana shu uch holat birlashgandagina, hamkorlik bilan muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiyachi badiiy va san'at asarlari bilan ishlaganda estetik tarbiyaga ko'proq ahamiyat beradi. Chunki bu asarlarda insonning ruhiyati, xarakteri, faoliyati, his-hayajoni, kechinmalari, tabiati dunyoda bo'layotgan voqea va hodisalarning hammasi bir butunligicha aks ettiriladi va bu bolaga ta'sir etadi. Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy adabiyot “Bolada badiiy so'zga qiziqish va muhabbat tuyg'usini, badiiy asarlardagi go'zallikni his etish ko'nikmasini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy kamolotiga alohida e'tibor qaratish; kitobxonlik savodini, kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashda davom etish; bolani maqol, tez aytish, sanamalarni, yoshiga mos kulgili latifalarni mustaqil aytishga, topishmoqlarga o'ylab, fikrlab javob berishga o'rgatish; bolani hikoyalarda aks etgan voqealar ma'nosiga tushunish, qahramonlar harakatlarini kuzatib, mulohaza yuritish; bolaga turli mavzudagi badiiy asarlarni tushunish, mazmunini so'zlab berayotganida shoshilmay, voqeani izchil bayon etish; savollarga o'ylab, aniq va to'g'ri javob berishini rag'batlantirish; fikrlarini erkin bayon etish ko'nikmasini shakllantirish; tushunmagan joylari haqida tortinmasdan izohlab berishni so'rash, “Nega?”, “Nima uchun?” kabi savol orqali murojaat etishga o'rgatishda davom etish” talablari qo'yilgan.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari - birovning dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu printsiptalik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir.

Badiiy adabiyot bilan tanishtirish orqali “Bolani ertakning o'ziga xos xususiyatlari (boshlanma, takror, tugallanma) haqidagi



tushunchalarini aniqlash; turli eʼtkarlardagi oʻxshash qahramonlarni, oʻxshash voqealarni qiyoslash; eʼtkakni sheʼr va hikoyadan farqli tomonlari haqida maʼlumot berish asosida, badiiy asar janrlari (sheʼr, hikoya, eʼtkak) haqidagi tushunchalar mustahkamlab boriladi.

6-7 yoshli bolalarda “Oʻqish va savod malakalarini egallash”, “Bolaning 20-25 daqiqa davomida zerikmay kitob tomosha qilishini ragʻbatlantirish; bir necha mashhur asarlar va adabiy qahramonlarni aytib berish, adabiy asardan ayrim parchani soʻzlab berish, yodlagan sheʼrlarini ifodali oʻqish malakasi rivojlantiriladi.

Eʼtkaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning xayvonot olamini, fantaziyasini rivojlantiradi. Eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar oʻz hikoyalarida va eʼtkaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali oʻzlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar. Bolalar estetik, ayniqsa axloqiy tasavvurlarni kattalarning (otonalar, pedagoglar) oʻqib chiqilgan asarlar boʻyicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. Oʻqib chiqilgan asar boʻyicha haddan tashqari koʻp nasihat qilish katta, koʻpincha esa tuzatib boʻlmaz ziyon yetkazadi: mayda-chuyda savollar bilan “sochib tashlangan” asar bolalar koʻz oʻngida oʻzining barcha jozibadorligini yoʻqotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yoʻqoladi. Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga toʻliq tayanish zarur.

Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi illyustratsiyalarni koʻzdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, illyustratsiyalar va oʻyinchoqlar qahramonlarini tanib olishga, qahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek badiiy matning ayrim ifodali qismlarini aytib berishga (“Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim momomdan...”) undashi darkor. Ayniqsa, 4-5 nafar boladan iborat boʻlgan kichik guruhlar bilan kitoblarni koʻrib chiqish va oʻqish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingan va guruhda saqlanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratish alohida ahamiyatga egadir. Bolalarga barcha notanish soʻzlar maʼnosini darhol tushuntirib berishga, xususan obrazli tavsiflash yoxud u yoki bu eʼtkakdan kelib chiqadigan maʼnoni oʻz soʻzlari bilan aytib berishga intilmaslik, katta yoshdagi bolalarga badiiy adabiyotni tanishtirish jarayonida ularda bilish va nutqiy qobiliyatlarini hamda nisbatan tegishli munosabatni rivojlantirish zarur.

Nutq oʻstirish yoki badiiy adabiyot bilan tanishtirish mashgʻulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga yoʻnaltirishda qoʻl keladigan didaktik oʻyinlardan yana biri “Inson va hayvonlar” deb nomlanadi. Bu oʻyin bolalarning mustaqil fikrlashi bilan birga dialogik nutqini, suhbat uchun mazmun tanlash imkoniyati taraqqiyotini taʼminlaydi. Bu oʻyinni oʻynashdan avval tarbiyachi tomonidan bolalarga hayvonlar haqida eʼtkak kitob oʻqib beriladi va eʼtkaklar orqali uy hayvonlarining odamlarga keltiradigan foydasi haqida tushuntirib beradi.

Tarbiyachi bolalarni har biriga uy hayvonlari va parrandalarining suratini tarqatib chiqadi va quyidagi hikoyani boshlaydi: “Qadim-qadim zamonda odam yolgʻiz oʻzi yasharkan. Tabiatda qattiq qurgʻoqchilik boʻlibdi va hayvonlarning koʻpi qirilib ketibdi. Shunda tirik qolgan hayvonlar va qushlarning bir qismi odamning oldiga kelishibdi va:

– Bizni boq. Bizni boqsang biz sening barcha ishlarini yengillatamiz, senga yordam beramiz, – deyishibdi.

– Sizlar nima qilishni bilasizlar? – deb soʻrabdi odamzod...».

Shundan keyin tarbiyachi bolalardan birma-bir javob berishni talab qiladi. Bolalar qoʻllaridagi suratda aks etgan uy hayvonining nomini va u bajarishi, foyda keltirishi mumkin boʻlgan ishlarini gapirib beradilar. Qaysi bola qoʻlidagi uy hayvonining xususiyatlarini toʻliq ochib bera olmasa, tarbiyachi boshqalarni koʻmakka chaqiradi. Shu tariqa ularda bilganlaridan amalda foydalanish, bilmaganlarini oʻrtoqlari koʻmagida bilib olish, ayni

zamonda, mustaqil fikrlash va izlanish koʻnikmalari shakllanadi.

Shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi, unda mustaqil fikrlash koʻnikmasini takomillashtirishga yoʻnaltirilgan navbatdagi didaktik oʻyin “Tugʻilgan kun” deb nomlanadi. Bu oʻyinda mashgʻulot jihozlari yovvoyi hayvonlar, ularning uyalari va yeydigan taomlari tasviri tushirilgan kartochkalar boʻladi. Tarbiyachi bugun quyunchaning tugʻilgan kuni ekanini, u oʻrmon hayvonlarini mehmonga chaqirmoqchiligini aytadi. Mehmon kutish uchun koʻpgina taomlar pishirganini aytadi va taxtaga har xil oziq-ovqatlarning rasmini qoʻyadi. Soʻngra bolalarga murojaat qilib deydi: “Qani shu ovqatlarga qarab topinglarchi, quyon oʻz tugʻilgan kuniga kimlarni taklif qilibdi?”. Bolalar bochkadagi asal, likopchadagi yongʻoq, koʻzachadagi sut, savatchadagi pichan, kosachadagi qurt-qumirsqalar va h.k.k. taomlarga asoslanilgan holda ularni isteʼmol qiladigan hayvonlarning nomlarini aytadilar. Soʻngra tarbiyachi oʻsha ovqatlarning oldiga hayvonlar suratini yopishtiradi va soʻraydi: “Oʻylab koʻringlarchi, quyon kimlarni tugʻilgan kuniga chaqirmabdi? Nima uchun?” Bolalar qarashsa, quyon boʻri bilan tulkini tugʻilgan kuniga chaqirmagani ayon boʻladi. Soʻngra buning sabablarini bilganlaricha aytadilar. Keyin tarbiyachi hikoyani davom ettirib: “Hayvonlar tugʻilgan kunda maza qilib ovqatlanishibdi, oʻynashibdi va kech boʻlganda uylariga qaytishibdi”, deydi va har xil uyalarning suratini darstaxtaga yopishtirib, bolalarga topshiriq beradi: “Har bir hayvonning suratini oʻz uyasi oldiga yopishtiring”. Bolalar birma-bir chiqib ayiqni oʻz uyasiga, olmaxonni daraxtga, quyonni butalar ostiga, qushlarni daraxt shoxlariga joylashtirishadi. Shundan soʻngra hikoya davom ettiriladi: “Ertalab turib barcha hayvonlar quyonning tugʻilgan kuni qanday oʻtganini gapirib berishibdi”.

Tarbiyachi shu oʻrinda bolalarga savol bilan murojaat qiladi: “Qani, oʻylab koʻringlarchi, qaysi hayvon qanday hayvonchalarga quyonning tugʻilgan kuni haqida gapirib beribdi?” va barcha hayvonlarning bolalari suratlarini chiqaradi. Bolalar har bir hayvon bolasining nomini aytib, kichik jonivorlarni onalarining oldiga yopishtirib chiqadilar. Toʻgʻri javoblar oldiga tarbiyachi har xil baholarni aks ettiruvchi belgilarni yopishtirib qoʻyadi. Toʻgʻri bajarilgan topshiriqlarning yulduzcha yoki “smaylik”lari koʻpayaveradi. Shu tariqa bolalar ham bilim oladilar, ham mustaqil mulohaza yuritib kashfiyotlar qiladilar. Bolalarni mustaqil fikrlashga yoʻnaltiruvchi bunday didaktik oʻyinlarning barcha jihozlari avvaldan tayyorlab qoʻyilishi, oʻyinlarning chegarasi belgilab olinishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. –T.: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017y.
2. Musayev J. Mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish mashqlari. // Xalq taʼlimi, 2007.
3. Karimova V. M., Sunnatova R.I. Mustaqil fikrlash. –T.: Sharq. 2000.
4. Oʻzbek xalq eʼtkaklari. 3 jildlik. – T.: Oʻqituvchi. 2013.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA EKOLOGIK ONG SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

M.R.Akramov, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi (PhD)

Данная статья посвящена теме психологического подхода формирования экологического сознания. В статье также рассматриваются феномен экологического сознания учителя и ученика, онтогенетическое развитие экологического сознания, экологическая культура и ценности человека, психологические особенности экологического сознания, психологические аспекты экологического поведения.

Ключевые слова и понятия: экологическое сознание, личность, психология, окружающая среда, взаимодействие, социогенез, экологическое сознание, технологии, природный мир, экологическая культура, этика, потребность, общество, забота о природе.

This article is devoted to the topic of the psychological approach to the formation of environmental consciousness. The article also discusses the phenomenon of ecological consciousness of a teacher and a student, ontogenetic development of ecological consciousness, ecological culture and human values, psychological characteristics of ecological consciousness, psychological aspects of ecological behavior.

Key words and concepts: ecological consciousness, personality, psychology, environment, interaction, sociogenesis, ecological consciousness, technology, natural world, ecological culture, ethics, need, society, concern for nature.

Ma'lumki, bugungi kunda ta'lim tizimida psixologiya fanining boshqa fanlar bilan aloqasi tobora oshib bormoqda. Bunga asosiy sabab sifatida, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro yaqinlashib borayotganligi hamda "jamiyat-inson-texnologiya-tabiyy muhit" tizimining o'zaro integratsiyasi kabilari tan olinmoqda. Shuningdek, hozirgi global sharoitda inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, ekologik muhitni asrash, insonlarda ekologik ong va madaniyatni shakllantirish, tabiatga inson omilining ta'sirini kamaytirish kabi ishlar ko'plab fanlar oldiga dolzarb vazifalar quymoqda. Hozirgacha ekologik masalalar bo'yicha ko'plab sotsiologik, pedagogik, falsafiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularda asosan shaxsda ekologik madaniyatni shakllantirish, jamiyat hayotining atrof-muhitga ta'siri, ekologik xulq-atvorni tarbiyalash kabi mavzular atroficha o'rganilgan. Biroq, mahalliy psixologik tadqiqotlarda ekologik ong shakllanishining psixologik jihatlariga doir ilmiy tadqiqotlar aytarlacha amalga oshirilmagan. Ekologik ong shakllanishi o'ziga xos psixologik hodisa sanalib, uni tadqiq etish nafaqat psixologiya fani uchun, balki ekologiya fani uchun ham o'ta qiziqarli va muhim ma'lumotlarni taqdim etishi ehtimoldan holi emas.

Bizningcha, "Ong" – bu faoliyat va muloqotda vujudga keladigan va namoyon bo'ladigan bilim va munosabatlarning yig'indisidir. Ekologik ong esa, o'z mazmunida atrof-muhit, tabiiy dunyo, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar shuningdek, unga tegishli inson strategiyalari, tabiat bilan ishlash texnologiyalari kabilarni ham qamrab oladi. Ekologik ong keng ma'noda, insonning tabiiy dunyo bilan o'zaro ta'sirlashuvining psixologik komponentiga qaratilgan. Bunda, odamlarning hayvonlar va o'simliklar bilan o'zaro ta'sirlashuv mexanizmlari o'z aksini topgan.

Ekologik ong psixologiyasining markaziy tushunchasi "tabiiy dunyo" tushunchasidir. Ya'ni, "tabiiy muhit" inson hayotini ta'minlaydigan va ob'ektiv ishlaydigan yaxlit tizimdir [1]. Bir so'z bilan aytganda, tabiiy muhit tizimlari tabiiy ob'ektlardan tashkil topgan bo'lib, uni asrash, avlodan-avlodga yetkazish har bir insonning yuksak burchlaridan biridir.

Ekologik ongni tushunishning quyidagi jihatlarini ajratiladi [2]:

– Tabiat – "tabiiy muhit" sifatida emas, balki "tabiiy dunyo" sifatida tushunilishi kerak;

– Ekologik ong tahlilida, asosiy e'tibor insonning tabiat bilan ob'ektiv aloqalariga emas, balki sub'ektiv aloqalarga qaratilishi lozim;

– Ekologik ongni o'rganish uchun, ijtimoiy-psixologiya, shaxs psixologiyasi, zoopsixologiya, salomatlik psixologiyasi kabi sohalarining ma'lumotlari ham o'ta muhim hisoblanadi;

– Ekologik ong – pedagogik psixologiya o'rganadigan muammo. Ya'ni unda, ekologik tarbiya, ekologik xulq-atvor, ekologik madaniyat kabi tushunchalar mavjud.

Hozirgi zamon psixologiyasida ekologik ongni quyidagi masalalar negizida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq sanalmoqda:

– Sotsiogenez jarayonida –turli davrlardan boshlab ekologik muammolar o'rganib kelingan. Ya'ni, tashqi dunyoning paydo bo'lishi, materiya, o'simliklar, hayvonlar, tabiiy resurslar va boshqalar. Vaqt o'tishi bilan jamiyat, yerdagi hayot ijtimoiy sivilizatsiya orqali tubdan o'zgardi;

– Ekologik xabardorlik, bilimdonlik jarayonida tabiiy muhit haqidagi insonning bilimlari, ko'nikmalari, malakalari hamda ekologik kompetensiyalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, insonning yoshlikdan boshlab tashqi muhit bilan hamnafas yashashi, yoshlikdan shakllangan ekologik xulq-atvor kabilari ham e'tiborga olinadi;

– Ontogenez jarayoni tahlili negizida – insonning tug'ilgandan umrining oxirigacha bo'lgan ijtimoiylashuv jarayoni, unga xos ekologik ong va madaniyat shakli va hokazo.

Mazkur tasniflardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, insonda tabiat haqidagi bilimlar bolalik davridanoq shakllana boradi. Shuningdek, bunda insonning tabiat haqidagi tasavvurlari, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar, tabiat obrazi, dunyo tasvirida shaxs kabi tushunchalar ham ajratiladi. Ba'zi psixolog olimlar ekologik ong tushunchasini "ekologik xulq", "Ekologik madaniyat" kabi tushunchalar bilan birga tahlil qilishga harakat qilishadi.

Ilm-fan yutuqlari va yangi texnologiyalardan inson manfaatlari yo'lida foydalanish, iqtisodiy samarali yoki boshqa xayrli maqsadlarga yo'naltirishda, ayrim hollarda inson hayotiga tazyiq o'tkazuvchi hayotiy sharoitlariga va tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi vositaga aylanib

qolmoqda. Bu jarayonni to'g'ri anglashimiz va unga to'g'ri munosabatda bo'lishimiz lozim bo'ladi. Bu holatga tushib qolishimizning bosh sababi ravshan, ya'ni biz o'z manfaatlarimizni tabiat manfaatlaridan ustun darajada qo'yib, uning boyliklaridan ochko'zlik bilan foydalanish va tabiat qonunlarini mensimaslik oqibatlariga duch kelmoqdamiz. Ayni paytda boshqa bunday salbiy ko'rinishlarning muhim sababi jamiyat a'zolarida ekologik



tafakkurning yetishmasligi, ya'ni "ekologik tafakkur tanqisligi"ni ham alohida ta'kidlash lozim.

Ekologik ongning tabiatga estetik munosabatiga transformatsiyasi masalalari psixologiyaning alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Xususan, hozirgacha ekologiya va estetikaning o'zaro aloqadorliklari yoritilgan ilmiy ishlar tahlili: shaxs ekologik ongi, madaniyatini, tabiatga estetik munosabatni shakllantirishga bir tomonlama yondashish ustuvorlik qilmoqda.

O'quvchilarda ekologik ong shakllanishining psixologik mexanizmlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar natijalari tabiat bilan o'xshashlik va tabiat bilan o'zaro ta'sir kabi shkalalarda alohida farqli natijalarni namoyon etgan. Insoniyat oldida ochlik, o'z-o'zini zaharlash, irsiyatning biologik asoslarini buzish xavfi tobora ortayotir. Bugungi kunda chuchuk suvning yetishmasligi, korxonalar hamda boshqa manbalar tufayli havoning ifloslanishi, tuproqning ishdan chiqishi, afsuski, tabiiy hodisaga aylandi. Demak, tabiatni egallash ma'lum darajada insoniyatning o'z hayotiy, faoliyatining tabiiy asoslarini izdan chiqarishga olib keldi. Qomusiy olim V.I.Vernadskiy shunday deb yozadi: "Bioqatlamning geologik tarixida insoniyat uchun katta kelajak ochiladi, faqat u buni tushunmog'i va o'z aqli hamda mehnatini o'zini qurbon qilishga sarflamasligi lozim".

Zamonaviy madaniyatda mualliflar antropotsentrik deb ataydigan va uni bir qator belgilar yordamida tasvirlaydigan ekologik ong ustun turadi: eng oliy qadriyat deb e'lon qilingan inson ierarxiya shaklida taqdim etilgan dunyo ko'rinishining yuqorisida turibdi; qolgan hamma narsaning qadri tabiatda inson uchun foyda orqali belgilanadi; inson pragmatik ravishda tabiat bilan o'zaro aloqada bo'ladi, undan o'zining ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadi; bu o'zaro aloqa "pragmatik imperativ" tomonidan boshqariladi, unga ko'ra insoniyat uchun foydali bo'lgan narsa to'g'ri va shuning uchun ruxsat etilgan bo'ladi; axloqiy me'yorlar va prinsiplar faqat insonlar dunyosiga taalluqlidir; tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan faoliyat pragmatik xarakterga ega, ya'ni tabiat kelajak avlod tomonidan foydalanish uchun saqlanadi va bu holatda ta'sir ob'ekti sifatida harakat qiladi.

Ekologik ongning antropotsentrik turiga alternativa sifatida ekologik ongning ekotsentrik turi ajratiladi, u quyidagi xususiyatlarga ega: dunyoning ko'rinishida ierarxiyaning to'g'ri kelmasligi: inson aqlining mavjudligi unga imtiyozlar bermaydi, balki tabiatga nisbatan majburiyatlarni yuklaydi; tabiat dunyosi va odamlar dunyosi taqqoslanmaydi, ular bitta tizimning elementlaridir; inson va tabiatning rivojlanishidagi uyg'unlik eng oliy qadriyat deb tan olingan; inson tabiat uyushmasining a'zosi hisoblanadi, tabiat uning mulki emas; insoniyat va qolgan tabiat uyushmasining ehtiyojlarini qondirishda teng huquqqa ega: tabiat inson bilan teng huquqli sub'ekt sifatida o'zaro ta'sir qiladi; tabiat bilan o'zaro munosabatlar "ekologik imperativ" orqali boshqariladi: faqat tabiatdagi ekologik muvozanatni buzmaydigan narsa to'g'ri va ruxsat etilgan hisoblanadi; atrof-muhitni muhofaza qiladigan faoliyat tabiatning mavjudlik mantiqiga bo'ysunadi: tabiatni o'zi uchun saqlab qolish kerak.

O'qituvchilarda ekologik ong shakllanishining psixologik mexnizmlarini tashkil etuvchi psixologik birliklar: tabiat bilan o'xshashlik, ekologik sub'ektivlik, tabiat bilan o'zaro ta'sir va ekotsentrizm kabi xususiyatlar o'rtasida sezilarli farqlar aks etgan.

Tabiatni buzib, so'ng uni qayta tiklashdan ko'ra ehtiyotkorlik choralarini ko'rish, uni saqlab qolish 2-3 marta arzon bo'ladi. Chiqindi suvlarini tozalashni takomillashtirish, qulay, arzon, yuqori darajada suv tozalash usullarini ishlab chiqish, targ'ibot ishlarini yaxshilash, shaharda yashovchi odamlarda yoshlikdan ekologik bilimni oshirish, ularni ozodagarchilikka, tejamkorlikka o'rgatish yaxshilansa, tabiatning ifloslanishi, kasallarning ko'payishi hozirgidek ko'p bo'lmas edi.

Bizning fikrimizcha, tabiat bilan o'zaro ta'sirga kirish

motivatsion uslublari bilan simmetriyaga intilish hissi o'rtasida mantiqiy aloqadorlik mavjud bo'lishi mumkin edi.

Ekologik ong psixologiyasi ekologik ongning nafaqat individual, balki guruhning o'ziga xos xususiyatlarining tahlili bilan ham shug'ullanadi. Ushbu yo'nalish doirasida u yoki bu ijtimoiy-professional guruh vakillarining ekologik ongi tadqiq qilinadi, ushbu guruhga mansubligi va ekologik tasavvurlarning xususiyatlari o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatiladi, bunday guruhlarda tabiat bilan o'zaro munosabatlarning afzal strategiyalari ko'rib chiqiladi.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalardan, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

- Shaxsda tabiat ob'ektlaridan zavq olish hissi ularni tasarruf etish hissiga qarshi qo'yiladi, shu bilan birga shaxsda tabiat bilan o'zaro ta'sirga kirishishning pragmatik komponenti ushbu munosabatlarning kognitiv komponentiga qarshi qo'yiladi, bu esa tabiat bilan o'zaro ta'sirga kirishishning pragmatik motivatsion munosabati tabiatga nisbatan o'zining sub'ektiv munosabatiga muvofiq o'zgartirish kiritishga qaratilgan shaxs faolligini taqozo etadi.

-Tabiat bilan o'zaro munosabatlarga kirishish motivatsion uslublari ma'lum darajada sub'ektning shaxsiy tajribasi hosilasi ekanligi, ushbu munosabatlarda ko'p jihatdan shaxsning o'ziga, sotsiumga, ekzistensial voqeyeliklarga munosabatlar tizimi o'z ifodasini topishi, ularning "sof" mazmuni psixologik himoya mexanizmlari ta'siri ostida transformatsiyaga duch kelishi mumkinligi tadqiqotlar davomida o'z isbotini topdi.

Adabiyotlar

1. Медведев В.И. Экологическое сознание: Учебное пособие / В.И. Медведев, А.А. Алдашева – Г.: Логос. 2001.
2. Ясвин В.А. Исследование структурных характеристик личностного отношения к природе // Психологический журнал. 1995. Т. 16. №3.
3. Абрамов Ю.Ф., Алешкевич М.П., Буровский А.М., Костин А.К. Лицей эколога-информационных технологий. – Иркутск: 1998.
4. Арсеньев В.Р. «Эмпатический подход», или Принцип всеединства в изучении архаики // Своя и чужие культуры. Сознание. Искусство. Образ / СПбГУ. Материалы теоретического семинара «Теория и методология архаики». – СПб.: 1998.
5. Акромов М. Р. Психолого-педагогические особенности экологического образования //The Way of Science. 2014.
6. Акромов М. Р. Экологическое сознание как предмет психологического исследования //Научная платформа: дискуссия и полемика. 2020.
7. Akramov M. R. The ethical awareness behavior of students during higher education (in the condition of uzbekistan) //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2016. – Т.: 4. №. 10.
8. Медведев В.И. Экологическое сознание: Учебное пособие / В.И. Медведев, А.А. Алдашева. – Г.: Логос. 2001.



TEKNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHISINI TAYYORLASHDA AXBOROT TALIMI MUHITIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIIY JIHATDAN ZARURLIGI

F.S.To'rabekov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Innovatsion ta'lim" kafedrasi dotsenti

В статье описывается состояние подготовки учителей технологического образования, профессиональный уровень учителей, методическая подготовка, использование информационных и коммуникационных технологий, рекомендации ЮНЕСКО «Работа над ИКТ-компетенциями для учителей».

Ключевые слова и понятия: технологическое образование, информационно-коммуникационные технологии, компетентность, информационная среда обучения.

The article describes the state of the training of teachers of technology education in the information education environment, the professional level of teachers, methodological training, the use of information and communication technologies, UNESCO recommendations «Work on ICT competencies for teachers».

Key words and concepts: technological education, information and communication technologies, competence, information learning environment.

Jamiyatning barcha sohalari jadal rivojlanishi, davlat tuzilmasi va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardagi o'zgarishlar pedagog kadrlar tayyorlash jarayonlarini qayta tashkil etishga olib keldi. O'qituvchilarni tayyorlashni modernizatsiya qilish g'oyalari O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va Davlat ta'lim standartlari bilan belgilangan. Bizga ma'lumki, umumta'lim muassasalarida zamonaviy tizimning sifatini oshirish bevosita o'qituvchining kasbiy saviyasiga bog'liq. Zamonaviy maktab nafaqat fan va uslubiy tayyorgarlik jihatdan kompetensiyalarga ega bo'lishi, balki axborot jamiyati rivojlanishi sharoitida o'quvchilarning yuqori ta'lim natijalariga erishishini ta'minlaydigan mutaxassisga muhtoj [1].

Umumiy ta'limning zamonaviy tizimini shakllantirishda an'anaviy talablar qo'yilmoqda va o'qituvchilarni tayyorlash sifati va umuman kasbiy faoliyat darajasiga yangi talablar belgilanmoqda. Shu boisdan aytib o'tish joizki, zamonaviy o'qituvchini tayyorlash tizimida "ta'lim, ta'lim va rivojlanish borasidagi kasbiy faoliyat standartiga muvofiq ularning yangi kasbiy fazilatlarini rivojlantirish lozim".

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda Respublikamizning 20 ta Oliy ta'lim muassasalarida "Texnologik ta'lim" o'qituvchilarni tayyorlash dasturlari bo'yicha bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash amalga oshirilmoqda, ularda 7073 (yetti ming yetti yuz uchta) nafarga yaqin talaba tahsil olmoqda.

So'nggi yillarda maktab bitiruvchilarining pedagogik kasbiga oid ta'lim olishga bo'lgan qiziqishlari sezilarli darajada oshgan. Mutaxassisliklarni o'qitishga bo'lgan qiziqish kelajakdagi o'qituvchilarning ish bilan ta'minlanishining yuqori foizi bilan izohlanadi [2].

Ammo aytib o'tish joizki, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasida o'qituvchilarni tayyorlashda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimini kengaytirishda oliy o'quv yurtlarini ko'paytirish siyosati katta rol o'ynadi. O'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xosliklar va uzoq yillik an'analarni hisobga olib, reytingi bo'yicha samarali bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining filiallari ochildi. Pedagogika oliy o'quv yurtlarini keng ko'lamda qayta tashkil etish sifatli mutaxassislarni tayyorlab berishda raqobatbardoshlikni yuzaga keltirmoqda.

Demak, axborot ta'lim muhiti takomillashishining zamonaviy

sharoitida Davlat ta'lim standartini joriy etish va "Ta'lim to'g'risida" gi qonunni amalga oshirish orqali ta'lim tizimidagi innovatsion o'zgarishlar ta'limni axborotlashtirish sharoitida o'quvchilarning yuqori ta'lim samaradorligiga erishishini ta'minlay oladigan zamonaviy kasbiy kompetensiyalarga ega bo'lgan o'qituvchilarga ehtiyoj borligini tushunishga olib keladi.

Zamonaviy sharoitda texnologik ta'lim o'qituvchisi multimedia, interfaol va tarmoqli axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalaridan foydalanish bilan bog'liq ko'plab yangi kasbiy muammolarni o'zlashtirishi kerak. Bu oliy ta'lim muassasining mavjud tizimini modernizatsiya qilishni va kelajakdagi texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatning mazkur yo'nalishi bo'yicha tayyorlashga zamonaviy yondashuvlarni izlashni nazarda tutadi.

Texnologik ta'limni modernizatsiya qilish va texnologik ta'lim o'qituvchilarini malakasini oshirish, o'qitish, rivojlantirish, tarbiyalashning zamonaviy o'quv-axborot vositalari hamda uslublarini o'zlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Biroq, bu zamonaviy axborot ta'lim muhitida o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash ta'lim tizimini yaxshilashga katta xizmat qilmaydi. Pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlovchi oliy ta'lim muassasalari o'qituvchining kasbiy mahorati talablariga javob beradigan va asosiy umumiy ta'limning davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishga qodir bo'lgan o'qituvchilarni tayyorlashlari zarur. Zamonaviy ta'lim dasturlari o'zgarishlarning bosh quroliga aylanishi lozim.

Dunyoning boshqa mamlakatlarida ham o'qituvchilarni o'quv jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlash muammosini yechishga harakat qilinmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirish asosiy rejasining muhim tarkibiy qismi bu YuNeSKOning "O'qituvchilar uchun axborot kommunikatsion texnologiyasidan foydalanish kompetensiyasi bo'yicha ish" tavsiyalaridir [3]. Ushbu hujjat har bir mamlakatga axborot kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish, o'qituvchilarning malakasi bo'yicha strategiya va yo'riqnomalarni ishlab chiqishda xizmat qilishga qaratilgan. YUNESKOning ishlab chiqilgan tavsiyalarida zamonaviy o'qituvchining axborotlashtirish sohasida savodli bo'lishi va o'quvchilarda tegishli ko'nikmalarni shakllantira olishi yetarli emasligi keltirib o'tilgan. Tavsiyalardan ma'lumki, o'qituvchi talabalarga axborot



kommunikatsion texnologiyalaridan samarali foydalangan holda interfaol yordam berish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

YuNESKO xalqaro tashkiloti o'qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish, bilimni rivojlantirish, bilim ishlab chiqarish kabi uchta yo'nalishni keltirgan. Shu bilan birga, o'qituvchi faoliyatining quyidagi turlari axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasiga kiritilgan: "Ta'limda axborot kommunikatsion texnologiyalarining rolini tushunish; o'quv rejasini va uni baholash; pedagogik amaliyotlar; axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning apparat va dasturiy ta'minoti; o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish; kasbiy rivojlanish"[3].

O'qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasining jihatlari va yo'nalishlari to'plami foydalanish mumkin bo'lgan axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarining ma'lum bir o'lchovidan iborat.

Axborot ta'limi muhitini rivojlantirish vaqtida texnologik ta'lim o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga yo'naltirishda o'qituvchilarning axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyalarini rivojlantirish borasida xalqaro tajribani hisobga olish zarur deb o'ylaymiz.

Demak, axborotlashgan jamiyat rivojlanishining jadal sur'atlari va asosiy umumiy va oliy pedagogik ta'limni modernizatsiya qilish jarayonlari bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarni muhim kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlash uchun zamonaviy shart-sharoitlarni vujudga keltirishni talab qiladi. Mavjud oliy ta'lim tizimining holatini o'rganishdan ma'lum bo'ladi, ta'limning barcha bosqichlarini modernizatsiya qilish va o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilash jarayonida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarni axborot ta'lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi dolzarbdir.

Adabiyotlar

1. To'rabekov F. S. Bo'lajak mehnat ta'limi o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash metodikasi: Ped. fan. nom.... diss. – T.: TDPU. 2011. T. 177.
2. Соколев, А.Б. Программа развития педагогического образования: новые вызовы (Актуальное состояние и тенденции развития государственной политики в сфере высшего педагогического образования) / А.Б. Соколев // Психологическая наука и образование. 2015. № 5.
3. Структура ИКТ-компетентности учителей (ICT Competency Framework for Teachers, или ICT-CFT) [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214694.pdf> (Дата обращения 22.07.2015).

INTELLEKTIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH

A.R.Muxamedjanova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-kurs magistranti

В данной статье рассматриваются теоретические основы здорового образа жизни детей с ограниченными интеллектуальными возможностями, также даны практические советы и навыки работы с детьми с ограниченными возможностями.

Ключевые слова и понятия: дети с ограниченными интеллектуальными возможностями, система образования, здоровый образ жизни, режим дня, практика.

This article discusses the theoretical foundations of a healthy lifestyle for children with intellectual disabilities and gives practical advice and skills to work with children with disabilities.

Keywords and concepts: children with intellectual disabilities, education system, healthy lifestyle, daily regime, practice.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'ziga xos xususiyatlarining murakkablik tamoyillari va individual yondashuv asosida psixologik va pedagogik yordamni tashkil etish zarurligi, zamonaviy korrektsiyalash va bilish jarayonlarini rivojlantirish texnologiyalarini yaxshi biladigan va intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarga yordam bera oladigan mutaxassislarining ko'p tarmoqli guruhining mavjudligi ma'lum. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlaydigan pedagog-psixolog o'z oldiga o'quvchilarini maxsus maktabda o'qishga tayyorlash, kelajakda esa ishlab chiqarish, ijtimoiy-maishiy mustaqil hayotga va mehnatga tayyorlash vazifasini qo'yadi. Bu bolalarning rivojlanish nuqsonlarini to'liq tuzatish va kompensatsiyasini, aqliy rivojlanishini normal holatga maksimal yaqinlashtirishni talab qiladi.

Hozirgi vaqtda jamiyatining eng muhim vazifalari - bu bolaning ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash, uning hayotga moslashish qobiliyatini oshirish, ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishdan iborat. Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar sonining ko'payishi borasida tibbiyot hodimlari, psixologlar

va o'qituvchilarning diqqatini muhim muammoni - ularning ijtimoiy va biologik moslashuvini hal qilishni talab qiladi. Bola onining atrofida dunyo bilan muvozanatini ta'minlash, ijtimoiy funktsiyalarni bajarish va muvaffaqiyatli moslashishni ta'minlash uchun o'qituvchi-psixologning aqli zaif bolalar bilan ishlashini samarali tashkil etish muhim element hisoblanadi.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash va ularda sog'lom turmush tarzini tashkil qilishda o'qituvchi va psixologning maqsadlarini ko'rib chiqamiz.

Ta'limda psixologning maqsadlari quyidagilardan iborat:

– aqli zaif bolalarni tarbiyalash, o'qitish va ijtimoiylashtirish jarayonida ularning aqliy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratish;

– bolalarning individualligiga mos keladigan rivojlanishning ijtimoiy holatini yaratishga ko'maklashish va bolalar, ularning ota-onalari, o'qituvchilari va ta'lim jarayonining boshqa ishtirokchilarining psixologik va ruhiy salomatligini himoya qilish uchun psixologik sharoitlarni ta'minlash.

Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'lom turmush



tarzini shakllantirishda o'qituvchi-psixologning faoliyati har bir bolaga jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishning maksimal darajasini ta'minlashga qaratilgan. Har bir bolaning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlashda ikkilamchi og'ishlarni tuzatish, kompensatsiya qilish va oldini olishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Psixologning intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash tizimi sog'lom turmush tarzini tashkil etishdagi muvaffaqiyatsizlikni oldini olish, ta'limdagi ijtimoiy buzilishlarni oldini olish maqsadida bolaga bir xil talablar bilan tuzatish-pedagogik jarayonni tashkil etishga qaratilgan.

O'qituvchi-psixologning intellektida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashning butun tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Diagnostika bosqichi. Bu bosqichda intellektida nuqsoni bo'lgan bolani har tomonlama tibbiy, psixologik va pedagogik o'rganishni tashkil etish

2. Tuzatish va rivojlanish bosqichi. Bu bosqichning maqsadi - bola faolligini shakllantirishning kompensatsion mexanizmlarini ishlab chiqish, ikkilamchi og'ishlarni bartaraf etish va oldini olish.

3. Salomatligini asrash bosqichi. Bu erda bolaning shakllanadigan organizmning funktsiyalari yaxshilanadi.

4. Tarbiya va ta'lim bosqichi. Shaxsning axloqiy asoslarini shakllantirish, jamiyatda ijtimoiy maqbul xatti -harakatlar, yo'naltiruvchi va kognitiv faoliyatni rivojlantirish, aqliy faoliyatning asosiy komponentlari o'rtasidagi munosabatni mustahkamlash.

5. Ijtimoiy-pedagogik bosqich. Tarkibi: tashkiliy masalalarni hal qilish, o'qituvchi-psixologning boshqa tashkilotlar va ijtimoiy xizmatlar bilan o'zaro ta'siri haqida ota-onalarga ma'lumot berish.

Bolalarda sog'lom turmush tarzini amalga oshirish uchun kun tartibiga amal qilish lozim. Kun tartibiga amal qilish sog'lom turmush tarzining asosi. Kun tartibi nafaqat intellektida nuqsoni bor bolalar uchun, balki barcha bolalar uchun zarurdir. Kun tartibi bolalarning dunyoga kelgan kundan boshlab amalda bo'luvchi doimiy jarayon sanalib, bolalarning turli mazmundagi faoliyati - o'yin o'ynashi, dam olish, ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va hokazolarning muayyan vaqtda, tartib bilan, ketma-ket bajarishidir.

Tabiiyki, kun tartibi hamma bolalar uchun bir xil bo'la olmaydi va u bolaning yoshi, sog'lig'i, ish qobiliyatiga muvofiq tuziladi va uning umumiy talablariga: kun tartibini ishlab chiqishda amaliy mehnat bilan jismoniy mehnatning to'g'ri taqsimlanishi, o'yinlarning o'z vaqtida dam olish bilan almashtirilishi, har kuni muayyan ovqatlanish, ma'lum vaqtda uyquga yotish va barvaqt uyqudan uyg'onishga odatlanish, ochiq havoda sayr etish kabilar kiradi. Bolaning sog'lom, nosog'lom turmush tarzi ham kun tartibining to'g'ri, noto'g'ri uyushtirilganligiga bog'liq.

Ma'lumki, bugungi bolalar qayerda yashashidan qat'iy nazar, doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ekologiya, ilmiy, texnikaviy va industrial sohalaridagi o'zgarishlar bilan to'qnash kelishlariga to'g'ri keladi, ushbu o'zgarishlar pirovardida jamiyat uchun zarur kasblar majmuining ham o'zgarishiga olib keladi. Hozirgi dunyoda sodir bo'layotgan tezkor o'zgarishlar bolalarning doimiy ravishda yangi narsalarni o'zlashtirishini, butun umri davomida o'qishini taqozo qiladi bu esa sog'lom turmush tomon bosilgan qadam bo'ladi.

Bugungi kun yoshlardan XXI asr muammolarini hal etish uchun hayotiy zarur qobiliyatlar asosini yaratishga harakat qiladi. Bunday qobiliyatlar jumlasiga biz quyidagilarni kiritamiz:

- o'zgarishlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- tanqidiy fikrlash;

- tanlashni amalga oshirish;
- muammolarni qo'yish va hal etish;
- ijodni, fantaziyani va ixtirochilikni namoyon etish;
- odamlar, jamiyat, mamlakat, atrof-muhit to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

To'g'ri bu qobiliyatlarni intellektida nuqsoni bor bolalarda ko'rish birmuncha mushkul. Lekin qisman amalga oshirilsa bo'ladi. Har bir bola alohida holda o'sadi va rivojlanadi, biroq shunga qaramay barcha bolalar rivojlanishning ma'lum ketma-ketlikdagi bosqichlaridan o'tadilar. Ushbu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi.

Rivojlanish sohasidagi izlanishlar shundan dalolat beradiki, bola hayotining dastlabki to'qqiz yili o'sish davrining muayyan davomiyligida o'tadi, bu umumiy va oldindan aytib berish mumkin bo'lgan bosqichdir. Bu bosqichlar rivojlanishning har bir sohasidagi o'zgarishlar bilan ajralib turadi: jismoniy, hissiy, ijtimoiy va kognitiv. Bolalar o'sishining o'ziga xosligi to'g'risidagi bilimlar tarbiyachilarga ta'lim muhitini yaratishga va faoliyatning muvofiq turlarini rejalashtirishga tayanch bo'lib xizmat qiladi. Rivojlanish xususiyatlariga mos kelish usullarini muvaffaqiyatli qo'llash uchun tarbiyachilar me'yordagi rivojlanishning borishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Bunda bolalar bilan shug'ullanuvchi inson shuni yodda tutishi lozimki, bolalar rivojlanishning bir xil bosqichini bosib o'tishlariga qaramasdan, ularda bu jarayon bir vaqtning o'zida kechmaydi. Bir xil yoshdagi bolalarda o'ziga xos individual farqlar bo'lishi muqarrar.

Xulosa qilib aytganda intellektida nuqsoni bor bolalarni sog'lom turmush tarziga tayyorlashda ta'lim muassasalarida hozirgi kunda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, sog'lom turmush tarzi jismoniy va axloqiy salomatlikning asosidir, sog'liqni saqlashga faqat pedagogik, tibbiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali erishish mumkin. Bolalarda faol hayot tarziga ijobiy munosabatda bo'lishni shakllantirish, kelajakda ularning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash ota-onalarning muhim vazifasidir.

Ta'lim muassasasi va oilaning tarbiyaviy vazifalari bir-biridan farq qiladi, lekin bolaning barkamol rivojlanishi uchun ularning o'zaro aloqasi zarur, uning sifati ota-onalarning pedagogik madaniyati darajasiga va shunga mos ravishda bolalar tarbiyasiga bog'liq. Ota-onalar va o'qituvchilar bola shaxsining shakllanishi uchun mas'uldirlar.

Adabiyotlar

1. Александрова Е.Ю. «Оздоровительная работа в дошкольных образовательных учреждениях по программе «Остров здоровья» издательство «Учитель» Волгоград 2007г.
2. Алямовская В.Г. «Как воспитать здорового ребенка» Москва 2007г.
3. Казаковцева Т.С., Косолапова Т.Л. «Растим здоровое будущее» Киров 2004г.
4. Картушина М.Ю. «Быть здоровыми хотим» ООО «ТЦ Сфера» Москва 2004г.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARINING QAROR QABUL QILISH FAOLIYATIDA SHAXS KREATIVLIGINING O'RNI

A.S.Nazarov, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o'qituvchisi

В статье анализируется вопрос о творческом подходе руководителя к принятию управленческих решений, а также рассматриваются основы личностных качеств и творческие особенности руководителя.

Ключевые слова и понятия: общее среднее образование, школа, творчество, личность, персонал, индивидуальные особенности личности, менеджмент, принятие решений, управленческие решения, осознанный выбор, детерминизм, индетерминизм.

The article analyzes the issue of a manager's creative approach to making managerial decisions, and also considers the basics of personal qualities and creative characteristics of a manager.

Key words and concepts: general secondary education, school, creativity, personality, personnel, individual personality traits, management, decision making, managerial decisions, informed choice, determinism, indeterminism.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, rahbarning o'z faoliyati davomida qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan rahbar shaxsidagi kreativlik kompetentligiga bog'liq bo'ladi. Rahbar shaxsidagi kreativlik bugungi kun ta'lim jarayoniga qo'yilayotgan zamonaviy talablar yechimini berish bilan bir qatorda, umumiy o'rta ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasi rahbarining qaror qabul qilish jarayonidagi kreativligi - o'rganilayotgan aniq ob'ektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyat elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalarning shakllanganligi ma'nosida tushuniladi. Masalan, o'rganilayotgan ob'ektlarga nisbatan rahbarlar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini tanlay bilishi qabul qilinayotgan qarorning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Rahbarning o'z-o'zini takomillashtirish kompetentligi ma'naviy, motivatsion, intellektual va amaliy jihatdan o'z-o'zini rivojlantirish, irodaviy va hissiy jihatdan o'z-o'zini boshqara olishga qaratilgan bo'ladi. Rahbar shaxsiy manfaatlari va imkoniyatlariga ko'ra faoliyat usullarini egallaydi, bu unga o'zida zamonaviy rahbarga xos bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish, tafakkurini, madaniyati va xulqini shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun ham rahbarning kompetentligida kreativlik muhim rol o'ynaydi. «Rahbarning kreativlik qobiliyati» tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjud.

Ta'lim muassasi rahbarining kreativligi - bu rahbarning innovatsion yondashuvlari bilan shakllanadi. Rahbarning kreativligi - tashabbuskorlikni, samarali muloqotni, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqeyi, oldindan ko'ra olish intuitsiyasi rivojlanganligini bildiradi va tashkilot faoliyatining yo'nalishini belgilaydi. O'ziga ishonchi bo'lmagan rahbar vaziyat o'zgarishi bilan o'z qarorini o'zgartirib turadi. Bunday rahbar qo'l ostida ishlaydigan xodimlar o'z rahbari timsolida suyanchiq ko'rmaydilar, tashkilotda o'tkazayotgan kunlari vaqtinchalikdek tuyuladi. Boz ustiga, bunday rahbar o'zgalar bilan muzokaralar olib borishga ham qodir emas. Chunki o'z shaxsiga va qobiliyatiga ishonmagan odam o'zgalarda ham ishonch uyg'ota olmaydi.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Rahbarning kreativligi - boshqaruv jarayonga ijodiy yondashuviga aytiladi.

Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60 yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi:

- fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish;
- o'ziga xoslik (originallik)
- qiziquvchanlik;
- farazlar yaratish qobiliyati;
- xayol qila olish, fantastiklik (fantaziya).

Kreativ boshqaruv muassasa va tashkilotning faoliyati zamon bilan hamnafas olib borilishini ta'minlab beradi. Chunki, kreativ ish olib borish degani rahbarning o'z faoliyatiga har tomonlama yondashishi, ya'ni ijodiy-innovatsion yondashuvdir. Demak, rahbar kreativ fikrlab borishini "Rahbarning kreativ tafakkuri" deb tushunamiz. Rahbarning kreativ tafakkurida taraqqiyot takomili, o'sishi, rivojlanishi, kengayishi va mo'tadil saqlanishining instrumenti, uning ongli quroli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda boshqaruvning va qaror qabul qilishning eng muhim funksiyalarini amalga oshiradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasi rahbarining kreativ tafakkuri:

- Aqlning peshqadamligi
- Tezlikda qaror qabul qilish
- Qarorlarni qabul qilishdan cho'chimaslik
- Ish vazifasi va sohasiga sodiqlik
- Tafakkurning egiluvchanligi
- Noan'anaviyligi
- Nostandart qarorlar va yechimlar qabul qilishdan cho'chimaslik
- Istiqbolni ko'rish

Prognoz qila olish kabi xususiyatlarning maqsadli tarbiyalanishi va shakllantirishiga bog'liq pedagogik jarayondir.

Aqlning peshqadamligi - belgilangan muddatda ko'pchilik o'ylab ko'rishga ulgurmaydigan muammolar bo'yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko'rsata olish hamda ularning barchasini o'ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyati.

Ta'lim muassasi rahbari tafakkurining egiluvchanligi - ta'lim jarayonida qabul qilingan va an'anaviy mavjud bo'lgan, aslida to'g'ri deb o'ylangan yo'nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyoti uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo'nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechiminining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.



Ta'lim jarayonida prognoz, bashorat qila olish esa – ta'lim rivojidadagi istiqbol o'zgarishlar mohiyati, kelib chiqish sabablari va yuzaga kelish muddatlarini tafakkur tahlili orqali oldindan anglash tafakkuri hisoblanadi. Masalan mehnat unumdorligining ko'tarilishi va pasayishi, konyuktura yoki bozorning o'zgarishi hamda mazkur o'zgarishlarning sohaga bo'lgan ta'siri, narxlarning ko'tarilishi va pasayishi v.b.

Boshqaruvda va qaror qabul qilishda ta'lim muassasasi rahbari doim mas'uliyatni his qilishi lozim. Rahbar kreativ tafakkuridagi aqlning peshqadamligi va egiluvchanligini maxsus abstrakt mashqlar va bilimlar asosida tarbiyalash mumkin hisoblanadi. Kreativ tafakkur maqsadga yo'naltirilgan, ammo shu vaqtgacha ma'lum bo'lmagan va an'anaviy tarzda tajribaga kiritilmagan batamom yangi usul, yo'l, vositalarning tanlanishi va ishlab chiqilishini anglatadi. Zamonaviy menejmentda kreativ tafakkur amaliyotini bildiruvchi ma'lum tizim shakllantirilgan, ularni quyidagicha belgilab ko'rsatish mumkin:

Analitik tahlil jarayoni - tayyorgarlik, axborotlarni yig'ish va tahlil qilish. Mavjud ahvol tahlili, axborotlarni umumlashtirish, ko'rsatkichlarni taqqoslash.

Konsentratsiya jarayoni – muammo atrofida aqliy salohiyatning mujassamlashuvi, ma'lum faktlar, ular sistemasi tahlili. Aqliy salohiyat yetishmovchilik jarayonidan o'tish. Mazkur jarayonni bosib o'tishga intilish. Ong faolligining dam badam ko'tarilishi yoki pasayishi. Insonning muammo tahliliga berilishi, natijada turli yangi nostandart g'oyalarning tug'ilishi va shakllanishi.

G'oyalar inkubatsiyasi jarayoni – aqliy konsentratsiya jarayonida yuzaga kelgan barcha mavjud g'oyalar ong ortiga o'tib, ular mudroq holga keltiriladi. Tafakkur qilish jarayonida ular metodologik asoslarda qayta tahlildan o'tkaziladi. Shaxsiy senzura yangi g'oyalarning barchasini axloqiy – ma'naviy va qadriyatlar nuqtai nazaridan nazoratdan o'tkazadi. So'ng mazkur g'oyalar pishib yetilgan tarzda inson psixikasiga o'tkaziladi.

G'oyalar qidirish yo'lidagi past-balandligi, to'liqlik taraqqiyot jarayoni – g'oyalar tahlilini amalga oshirilganda inson tafakkuri o'zini tinch va osuda tutmaydi, balki turli keskin harakatlarga moyil bo'ladi. Shu bois odam birdaniga bir mavzuga, saldan keyin boshqa bir mavzuga o'tib ketadi.

Analiz va sintez jarayoni – kreativ tafakkur faoliyati natijalarini tahlil qilish jarayoni.

Mantiqiy tahlil jarayoni. Bu davrda pishib yetilgan barcha g'oyalar yaxlitlik va umumiylikda tahlildan o'tkaziladi hamda kreativ tafakkur mehnatining natijasi sifatida so'nggi qaror qabul qilinadi. Mazkur kreativ tafakkurning amal qilish va ish olib borish uslubiyatiga doir qarashlar uning uzoq davom etishini emas, balki qanchalik murakkab jarayon ekanligini, shu bilan birga tezlik bilan amalga oshirilishini anglatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim muassasasi rahbarining qaror qabul qilish jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida ular shaxsida kreativlikni tarbiyalash bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

– o'z tafakkuringizni muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilishning original yechimlarini topish va ularni targ'ib qilishga chaqiring, qaror qabul qilishda yangi usul va g'oyalarni ishlab chiqishga o'zingizni majburlang;

– qarorlar qabul qilayotganingizda boshqa insonlar siz to'g'ringizda noto'g'ri tushunchaga borishidan cho'chimang;

– qarorlar qabul qilishda muammoli vaziyatni keng mushohada eting, an'anaviy bo'lmagan usullardan foydalaning, o'z tafakkur tarzi, milliy mentalitet va stereotiplar qobig'idan me'yori darajasida chiqib ketishga harakat qiling;

– agar qaror qabul qilishda birinchi tajribangiz muvaffaqiyatsiz

bo'lsa ham, o'z tajribalaringizdan voz kechmang, noan'anaviy usullarda fikrlashni davom ettiring, masala yechimining boshqa variantlarini toping, boshqa yo'llarni qidirishda davom eting;

– qarorlar qabul qilishda munozara va bahs uchun doimo ochiq bo'ling, bahsni o'zingizga qaratilganligiga ishonmang, bahsni to'g'ri tashkil qiling, o'z fikrlaringizni bahs jarayonida nazorat qilib borishga harakat qiling;

– qarorlar qabul qilishda kutilmagan, anglab yetish qiyin bo'lgan va tushunarsiz narsa va hodisalarning mohiyatini anglashga harakat qiling.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktabi rahbarining qaror qabul qilish jarayonidagi kreativligi - o'rganilayotgan aniq ob'ektlar bilan bog'liq mantiqiy, metodologik va ijtimoiy faoliyati elementlaridan iborat bo'lgan mustaqil fikrlash kompetentliklarining to'plami bo'lib, unga maqsadni ko'ra bilish, faoliyatni rejalashtirish, uning mazmunini tahlil qilish, refleksiya, faoliyatga shaxsiy baho berish borasidagi bilim va malakalarning shakllanganligi ma'nosida tushuniladi. Masalan, o'rganilayotgan ob'ektlarga nisbatan rahbarlar kreativ ko'nikmalar, ya'ni bilimlarni bevosita borliqdan olish, nostandart vaziyatlarda muammoni hal etishning harakat usullari va evristik metodlarini tanlay bilishi qabul qilinayotgan qarorning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Анфилов В.С. Системный анализ в управлении – М.: Финансы и статистика, 2002.
2. Воробьев С.Н. Управленческие решения Текст. / С.Н.Воробьев, В.Б.Уткин, К.В.Балдин. – М.: ЮНИТИ-ДАНА. 2003.
3. Назаров А. Принятие управленческих решений как психологическая проблема // Вестник интегративной психологии. – Международный научный журнал. – Ярославль: 2019. №19.
4. Назаров А. Принятие управленческих решений как основная функция современного менеджера // Вопросы экономики и управления. – Международный научный журнал. – Казан: 2020. №2.
5. Nazarov A. Psychological analysis of levels of administration of management decisions. // Вопросы экономики и управления. – Международный научный журнал. – Казан: 2020. №3.
6. Nazarov A. Adoption of management decisions as the main function of the modern manager // Проблемы современной экономики: материалы IX Междунар. науч.конф. – Казань: апрель. 2020.



5E TA'LIM MODELIDAN BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FAN DARSLARIDA FOYDALANISH

M.K. Shirinov, Toshkent shahridagi YoDJU texnika institutining
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasida dotsent v/b.

В данной статье дана научная информация об образовательной модели 5Е и практические рекомендации по возможности использования этой образовательной модели на уроках в начальных классах.

Ключевые слова и понятия: образовательная модель 5Е, методы обучения, интерактивность, творческое мышление, объяснение, речь, наблюдение, оценка.

This article provides scientific information about the 5E educational model and practical recommendations on the possibility of using this educational model in the classroom in primary grades.

Keywords and concepts: educational model 5E, teaching methods, interactivity, creative thinking, explanation, speech, observation, evaluation.

Milliy pedagogikamiz yaqin yillarga qadar o'quvchilarga insoniyat tomonidan shu paytgacha qadar egallangan mavjud bilimlarni o'rgatishni eng maqbul yo'l deb qabul qildi. Bunda mavjud bilimlar o'quvchi ong va tafakkuriga tayyor holda singdiriladi. Bu jarayonda bilimlar adabiyotlarda tayyor holda mavjud bo'ladi va buni o'zlashtirish o'quvchilar uchun ham, o'qituvchilar uchun ham qanoatlanarli hisoblanadi. Ammo bu o'quvchilarda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bu turdagi pedagogikaning bosh maqsadi sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda o'quvchining qanchalik ko'p bilimni yodda saqlaganiga qarab uning bilimi haqida xulosa chiqariladi. Bu, to'g'ri, ammo bilim olish jarayoni ikki bosqichdan iboratligini, birinchi bosqich bilimlarni egallash, ikkinchi bosqich undan xulosalar chiqarish ekanligini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika sifatida o'zini oqlamasligi oydinlashadi. Bilim bilim uchun xizmat qilmas ekan, uning oddiy ma'lumotdan farqi qolmaydi. Ya'ni, mavjud bilimlar yangi bilimlarni kashf etish uchun poydevor sifatida xizmat qilmasa, bu jarayonda zanjirli reaksiya hodisasi kuzatilmasa, fan va ishlab chiqarishda kutilgandek rivojlanish va taraqqiyot kuzatilmaydi.

Avtoritar pedagogikaning eng muhim oqibati o'quvchilarda pedagogik jarayonda eng muhim bo'lgan nostandart fikrlashga bo'lgan rag'batni yo'qotadi [1].

Nostandart fikrlash kishilarning odatiy fikrlash tarziga nomuvofiq, g'ayrioddiy fikrlashi, noodatiy usul va yo'llar bilan xulosalar chiqarishi; vaziyatdan chiqishning hatto g'ayritabiiy, ammo eng maqbul muqobillarini izlab topish, masalalar va hodisalarga nisbatan har doim ijodiy fikrlash orqali yondashish ko'nikmasidir. Har qanday kuchli iqtidor egasi nostandart fikrlash tarzi mahsulidir. Nostandart fikrlash va uning inson tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati shubhasiz. Ilmda, biznesda, siyosatda yoki boshqa sohalarida muvaffaqiyatga erishgan insonlarning barchasi odatdagi insonlardan u yoki bu xususiyati bilan farq qiladi, ammo fikrlash tarzidagi farq esa shubhasizdir. Darhaqiqat, fikrlash, tafakkur yuritish bu bizning muvaffaqiyatlarimiz yoki muvaffaqiyatsizliklarimizning eng muhim shartlaridan biridir. «Tafakkur yuritishga harakat qilgan inson, hech shubhasiz, o'zi intilayotgan so'nggi darajadagi baxt-saodatga erisha oladi» – deydi buyuk faylasuf. Abu Nasr Forobiy [2].

Nostandart fikrlashga o'rgatishda interfaol usullar ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos innovatsion yondashuvdir. U o'qitishning ma'ruza, suhbat kabi usullarining o'zi bilan cheklanmay, balki, o'quvchining bilish faoliyatini boshqaruvchi, tashkilotchi, maslahatchi, yakuniy natijaga erishishga yo'llovchi bo'lmish ustoz rahbarligida uning ko'proq mustaqil ishlashini tashkil etish

imkoniyatining mavjudligidir.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf tabiiy fanlarini o'qitishda 5e ta'lim modelidan foydalanish o'quvchilarni nostandart fikrlashga yo'naltiradi. 5e modelidan bir yoki bir necha dars uchun boblar va bo'limlar yuzasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir [3].

5e ta'lim modelini bajarilish qoidalari quyidagicha:

5e ta'lim model qoidalari:

Shug'ullanish - 5e modelining birinchi bosqichida o'quvchilarni aqliy jihatdan biror hodisa, ob'ekt, muammo, vaziyat yoki hodisaga qaratish nazarda tutiladi. Shug'ullanish (Engage) bosqichidagi jarayon o'quvchilarga o'tmishdagi va hozirgi o'quv tajribalari o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish, oldingi konsepsiyalarni ochib berish va muhim savollarga va o'quv ketma-ketligining o'quv natijalariga qarab fikrlashni tashkil qilish uchun mo'ljallangan. “Nima uchun bunday bo'ldi?” “Bu haqida nima bilasiz?” “Bu muammo qanday hal qilinishi mumkin?” kabi savollarga javob topishadi. Qiziquvchanlik va hayratlanish ifodasi orqali mavzuga qiziqish, fikrlarni ifodalash, kuzatishlar almashish va dastlabki modellarni yaratish orqali ishtirok etish ko'rsatiladi.

Kashf eting - o'quvchilar faoliyati bilan shug'ullanuvchi savollarni bilgandan keyin, ular g'oyalarni kashf etishi uchun vaqt kerak. Barcha o'quvchilar ob'ektlarni tadqiq qilish uchun vaqt, imkoniyat, vaziyatlar yaratadi. O'quvchilar aqliy va jismoniy ishtirok natijasida, hodisalarni mohiyatini aniqlash sabablari va o'ziga xos xususiyatlarini kashf etadilar. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga ob'ektlar, materiallar va vaziyatlarni o'rganish uchun vaqt va imkoniyat beradi. O'quvchilar bilan muloqotda bo'lib kuzatadi, tinglaydi va maslahatchi vazifasini bajaradi hamda o'quvchilarni o'zaro hamkorlikka chorlaydi.

Tushuntirish - tushuntirish bosqichi ikki qismdan iborat. Birinchidan, o'qituvchi o'quvchilardan dastlabki modellar va fazalarni o'rganish bo'yicha tajribalar bilan o'rtoqlashishlarini so'raydi. Ikkinchidan, o'qituvchi o'quvchilar ta'limini qo'llab-quvvatlash uchun resurslar va ma'lumotlar beradi va ilmiy yoki texnologik tushunchalar bilan tanishtiradi. O'quvchilar o'zlarining dalillarga asoslangan modellari va tushuntirishlarini qurish yoki qayta ko'rib chiqish uchun ushbu manbalar va ma'lumotlardan, shuningdek, boshqa o'quvchilarning g'oyalaridan foydalanadilar. Boshqa o'quvchilarga modellar, tushuntirishlar, javoblar yoki mumkin bo'lgan yechimlar ko'rsatiladi, ular tomonidan taklifni tanqidiy tinglanadi va savollarga javob beriladi. Bunda o'quvchilar tushuncha va ta'riflarni o'z so'zlari bilan izohlashga o'rganadi.

Ishlab chiqish - o'quvchilar hodisani tushuntirishlarini yoki muammo uchun dizayn yechimlarini yaratgandan so'ng, ularni o'rganayotgan tushunchalar, jarayonlar yoki ko'nikmalarni qo'llaydigan, kengaytiradigan yoki ishlab chiqadigan keyingi



tajribalarga jalb qilish muhimdir. Ba'zi o'quvchilar hali ham noto'g'ri tasavvurga ega bo'lishi mumkin yoki ular faqat kashfiyot tajribasi nuqtai nazaridan tushunchani tushunishlari mumkin. O'qituvchi mashg'ulotlarda o'quvchilarga murakkab tushuncha va ko'nikmalar haqidagi tushunchalarini qo'llash uchun vaqt beradi. Ular o'z tushunchalarini o'xshash hodisalar yoki muammolarga qo'llashlari mumkin. Qo'shimcha dalillar, tushuntirishlar yoki mulohazalarni taqdim etadi. Ilgari kiritilgan ilmiy atama va tavsiflardan o'quvchilarning foydalanishini mustahkamlaydi va o'quvchilarga dalillar va ma'lumotlardan asosli xulosalar chiqarishga yordam beradigan savollar beradi.

Baholash – o'quvchilar o'zlarining tushuntirishlari sifati haqida fikr-mulohazalarini olishlari muhimdir. Bu norasmiy tarzda, o'rganish ketma-ketligi davomida sodir bo'lishi mumkin. Rasmiy ravishda, o'qituvchi o'rganish ketma-ketligi oxirida umumlashtiruvchi baholashni ham boshqarishi mumkin. Baholash bosqichida o'quvchilarning qobiliyatlari, ya'ni bunda o'quvchilarning o'quv maqsadlari va natijalariga erishish yo'lidagi yutuqlari baholanadi. Kuzatishlar, dalillar va ilgari qabul qilingan tushuntirishlardan foydalangan holda ochiq savollarga javob beradi. Bu yerdagi o'qitish strategiyasida "Siz nima uchun...?" kabi ochiq savollarni beradi. "Sizda qanday dalillar bor?" "Savolga qanday javob bergan bo'ladingiz?" O'qituvchi har bir o'quvchining tushunchalar va ko'nikmalarni tushunganligini namoyish qilishini kuzatadi, qayd qiladi va o'quvchilarning tushunishini isbotlash uchun turli baholardan foydalanadi hamda o'quvchilarga o'z yutuqlarini baholash imkoniyatini beradi.

Se ta'lim modelini boshlang'ich sinf tabiiy fanlarini o'qitishda qo'llashda bo'lim va boblar yuzasidan takrorlash darslarida o'quvchilarning bilim, ko'nikmalarni mustahkamlashda samaradorlikka erishish mumkin.

Masalan, "O'simliklar dunyosi" bobiga tegishli mavzu misolida bayon etamiz.

Se ta'lim modelini boshlang'ich ta'lim tabiiy fanlarda qo'llash orqali o'quvchilarning fanni o'zlashtirishdagi bilim va amaliy ko'nikmalari shakllanadi. Buning natijasida o'quvchilar quyidagi kompetensiyalarga ega bo'ladi:

1. O'quvchilarda dars jarayonida guruhlariga birlashish orqali

Se ta'lim modeli	O'quvchilar faoliyati	O'qituvchi faoliyati
Shug'ullanish	Tabiatda madaniy va yovvoyi o'simliklarni kuzatish, ularning yashash sharoitlari va hayotiy shakllarni o'rganish	O'qituvchi mavzu yuzasidan guruhlariga topshiriqlarni beradi.
Kashf etish	O'simliklarni yashash tarzi, rivojlanish jarayonlari, oziqlanishi, har bir guruhga ega o'simlik turining o'ziga xos xususiyatlarini, hayot tarzini kashf eting	O'quvchilar faoliyatini kuzatadi va ularga yo'nalish beradi.
Tushuntirish	Kuzatilgan va o'rganilgan o'simliklarning turlari, hayot shakli, vegetativ va generativ organlarining o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini tushuntirish.	O'quvchilarni o'rganan va bilgan narsalarni tushuntirish so'raladi, mustaqil ravishda tushuntirish talab qilinadi.
Ishlab chiqish	O'simliklarni yashash sharoiti, iqlim, relef, oziqlanishi hosildorligi va tabiatda, xalq xo'jaligidagi ahamiyati haqida yangi g'oyalar ishlab chiqish	O'quvchilar qanday ko'nikmalar hosil qilinganligini nazorat qiladi, ular tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalar tahlil qilinadi
Baholash	Guruhlarda bajarilgan har bir ish natijasi o'quvchilar tomonidan baholanadi va guruhlar bir-birini baholaydi va baholash ko'nikmalari ham rivojlanadi.	Guruhlarning o'zaro baholashlari va tahlillarini nazorat qiladi

jamoa bo'lib ishlash, o'rtoqliq, do'stlik fazilatlarini shakllanadi.

2. O'quvchilarda bir-birlari bilan muloqot qilish natijasida kommunikatsion kompetensiya shakllanadi.

3. O'quvchilarda guruh bo'lib ishlash va mustaqil tayyorgarlik ko'rish orqali intellektual imkoniyatlari rivojlanadi.

4. O'quvchilarda o'zaro bir-birlarini eshitish, tushunish va baholash orqali o'z-o'zini baholash ko'nikmalari shakllanadi.

5. O'quv jarayonida berilgan topshiriqlarni bajarish orqali idrok qilish kuzatuvchanlik, diqqat, xotira taffakur rivojlanadi.

6. Bularning natijasida tabiiy va ijtimoiy borliqni tez anglab olish ko'nikmalari rivojlanadi.

Adabiyotlar

1. G'.Muhammedov, U.Xo'jamqulov, Yoshlarni nostandart fikrlashga o'rgatishning zarurati. <https://diyor24.uz/4888>

2. K.Xoshimov va S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent. O'qituvchi NMU.2010 52 bet.

3. <https://ngss.sdcoe.net/Evidence-Based-Practices/5E-Model-of-Instruction>

4. Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi. Toshkent, "Shafolat Nur Ziyo" nashriyoti. 2020 y.

TA'LIM JARAYONINI DIFFERENSIALLASHTIRISHNING IMKONIYATLARI

Sh.E.Mamarajabov, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Innovation ta'lim" kafedrasi dosenti, pedagogika fanlari nomzodi

В этой статье рассматриваются возможности дифференциации образовательного процесса.

Ключевые слова и понятия: дифференциальное образование, общая компетентность, линейная образовательная траектория, нелинейная траектория образования, компетентный подход.

In this article, the possibility of differentiation of the educational process was allocated.

Keywords and concepts: differential education, competence, linear education trajectory, nonlinear education trajectory, competent approach.



Rivojlangan mamlakatlarda ommaviy o'rta maktablarning yaratilishi ta'lim-tarbiya differentsiatsiyasi muammosini yanada keskinlashtirdi. Bunday holat umumiy ta'lim diversifikatsiyasining sifat darajasi boshqacha tizim zaruratini keltirib chiqardi. O'quvchilarning iqtidori, qiziqishi, o'zlashtirishiga ko'ra differensial tayyorgarlikni kuchaytirish va murakkablashtirish - zamonaviy maktabning global yo'nalishiga aylandi. Differentsiatsiyaning asosiy shakllari – o'quv muassasalarini turli tiplarga bo'lish, bir maktab ichida profillarga, sinfda guruhlariga ajratish nazarda tutiladi.

Differensial ta'lim muammosi bir xil hal bo'lmaydi va qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiy tomondan differentsiatsiya ijtimoiy tanlov usuliga aylanadi. Pulli ta'lim va imtihonlar tizimi bunda tanlov vositasi bo'lib hisoblanadi. Odatda tabaqalanish (differentsiatsiya) boshlang'ich maktabni bitirgandan keyin boshlanadi. U turli tipdagi ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Masalan, Angliyada grammatik va zamonaviy maktablarda, Germaniyada real bilim yurti, gimnaziya va asosiy maktablarda, Fransiyada texnologik, kasbiy va umumta'lim litseylarda, Rossiyada oddiy o'rta maktab, litsey, kollej, gimnaziyada va boshqalar.

Bu o'quv muassasalarida differentsiatsiyaning asosiy o'ziga xos belgisi dasturlardir. Bir o'quv muassasasi doirasida differentsiatsiya keng yoyilgan. Masalan, AQSh va Yaponiya katta o'rta maktablarda 2 tipdagi umumta'lim va maxsus dasturlar mavjud. Ular turli qirralarda o'quvchilarning turli guruhlarini o'rganishadi. Germaniyada gimnaziya ta'limning 6 profilini taklif etadi, asosiy maktab esa differentsiatsiyaning KKAM tizimi asosida amalga oshiradi. Unga ko'ra ta'lim dasturning quyidagi variantlariga ko'ra tashkil qilinadi: kasbiy kurs (K), kengaytirilgan kurs (K), asosiy kurs (A), moslashtirilgan kurs (M). To'liqsiz o'rta maktab differentsiatsiya vositasi hisoblanadi.

1930 yil AQShda, 1950 yil Yaponiyada, 1970-1980 yillar G'arbiy Yevropada, 1990 yil Rossiyada differensial ta'lim amalga oshiriladigan o'quv muassasalarida paydo bo'la boshladi. Bu yerda gap AQSh va Yaponiyadagi kichik o'rta maktab, Buyuk Britaniyadagi birlashgan maktab, Germaniyadagi yagona kollej, Rossiyadagi 6 yillik o'rta ta'lim maktabi haqida ketyapti. Bu kabi ta'lim muassasalarida 11-12 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar o'qitiladi. Bu o'quv muassasalarda tabaqalanishning pedagogik asoratlari ijobiy, tabiiy maqsadga yo'naltirilgan xarakterga ega, turli guruh o'quvchilari imkoniyatlari hisobga olinadi. Umumiy dastur o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirishga mo'ljallangan. Masalan, Fransiyadagi ilk yagona kollejlarda yaxshi o'zlashtiruvchilar foizi shu yoshdagi parallel ta'lim muassasalarida yaxshi o'zlashtiruvchilar sonidan yuqori chiqdi. AQSh va Yaponiya kichik o'rta maktablarda to'liqsiz o'rta ta'lim beriladi. Mazkur dastur qator afzalliklarga ega. Tanlov fanlar ta'limni davom ettirish yoki mehnat faoliyatini boshlashni nazarda tutadi.

1950 yil oxirida Dj.Konant boshchiligidagi pedagoglar guruhi umumqamrab oluvchi maktab modelini taklif etdi. Bu model bo'yicha umumta'lim o'quv muassasasida ijtimoiy daraja, qobiliyat, qiziqishidan qat'iy nazar barcha bolalar o'qishadi, lekin turli-tuman ta'lim dasturlari amalga oshiriladi. Konant tavsiyalari AQShdagi kichik o'rta maktablarda differensial ta'limni joriy qilishda foydalanildi.

Buyuk Britaniyada birlashgan maktablar kichik grammatik sinflar va zamonaviy maktablarni o'z ichiga oladi. Ilk 3 yillikda o'quvchilar zamonaviy maktab dasturi bo'yicha shug'ullanadilar, keyin yoki shu dasturni davom ettiradi, yoki grammatik maktab dasturi bo'yicha o'qishadi. Birlashgan maktablarda yoshiga ko'ra 90 foiz o'smirlar shug'ullanadilar. Germaniyada umumiy maktablarda yoshiga ko'ra 5 foiz o'quvchilar tahsil olishadi.

Umumiy maktabning kooperativ va integral tiplari yuzaga keldi. Kooperativ maktablar asosiy, real maktab va gimnaziyalarni birlashtirdi. 9-sinfdan keyin o'quvchilar asosiy maktabdagi kabi diplom oladilar, 10-sinfdan keyin esa diplom real maktab va gimnaziyaning o'rta bosqichiga teng keladi. Kooperativ maktablarda mashg'ulotlar majburiy va elektiv dastur birgaligida amalga oshiriladi.

Fransiyada yagona kollejlarda guruh bo'yicha ta'lim doimiy tashkil etiladi. Turli tipdagi guruhlar tuziladi: gomogen guruhlar-tayyorgarlik darajasi bir xil, yarim gomogen guruhlar-tayyorgarlik darajasi yaqin, geterogen-tayyorgarlik darajasi har xil. Guruhlarga o'qituvchilar psixologlar, yo'nalishlari bo'yicha maslahatchilar tavsiyasiga ko'ra bo'linadi. Guruhlar maktab dasturi variantlarini o'zlashtiradilar. Ikkita bitiruvchi sinfda kuchli va kuchsiz bosqichli guruhlar yuzaga keladi. Bu ikki xil guruhni bitirgan kollej o'quvchilariga ta'limning keyingi tiplari tavsiya etiladi.

Yaponiya maktablarda guruhli ta'lim yaxshi mavqega ega, uni musobaqa tarzida tashkil etishadi. Sinfidagi guruhchalar kim ko'p ingliz tilidagi so'zlar, ieroglif va she'r yod olish bo'yicha bellashadilar. Baho butun guruhga qo'yiladi. Yapon pedagoglari guruhli ta'limga har xil nuqtai nazar bilan qarashadi. Guruhli ta'lim pedagogik jihatdan to'g'ri, lekin guruhlarda shug'ullanuvchi bolalar va o'smirlar dunyoqarashini toraytirish xavfi bor, deb hisoblashadi. Masalan, guruhni kuchlilar va zaiflar guruhiga bo'lganda 2ta holat yuzaga keladi: yoki kuchlilarga, yoki kuchsizlarga e'tibor qaratiladi, bu har ikkala guruhga ham zarur.

Keyingi yillarda yagona yevropa ta'lim muhitini yaratilishi Boloniya jarayoni doirasida ta'lim siyosatining umumiy mezonlarini ishlab chiqilishiga va ta'limning rivojlangan davlatlar ijtimoiy infrastrukturasi muhim elementlaridan biriga aylanishiga olib keldi.

Boloniya Deklaratsiyasining barcha qoidalari O'zbekistonda oxirgi yillarda qabul qilingan bir qator me'yoriy hujjatlarda o'z aksini topmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga ko'ra mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan edi. Shu asosda mamlakatdagi deyarli barcha OTMlar kredit-modul tizimida faoliyat yuritib boshladi. Ushbu tizimning e'tiborli jihatlaridan biri – talabalarda fanlarni tanlash imkoniyatining mavjudligidir.

Ushbu me'yoriy hujjatlarda ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy jamiyat rivojlanishida ta'lim - davlatning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'lib, ta'limning yangicha shakl va metodlarini tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

DTSlarining kompetent yondashuv asosida ishlab chiqilishi ham bitiruvchilarning kompetensiyasi orqali professional ta'lim sifatini baholanishini nazarda tutadi. Bu esa, kasbiy kompetentlikni ta'lim sifatini baholash mezonini ekanligini ilgari suradi va u nafaqat bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va ularni faoliyatga tatbiq eta olish qobiliyatlarida, balki atrof-muhit bilan o'zaro aloqadorligini muvaffaqiyatli o'zlashtirish darajasi bilan ham aniqlanadi.

Ta'lim tizimi doirasiga tegishli me'yoriy hujjatlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ta'lim olishda shakllanuvchi kompetensiyalarning ro'yxatida fanlarni an'anaviy o'qitish doirasida ikkita kasbiy kompetensiyani shakllantirish mumkinligini ko'rsatadi:

- (KK-1) pedagogik faoliyatda axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- (KK-2) ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish.

An'anaviy ta'limda o'quv materialini uzviyiligi va uni o'rganilishida bir xillilik tavsiya etiladi, barcha ta'lim oluvchilarga



yagona talab qo'yiladi, ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilariga ta'lim natijalariga erishishning yagona yo'li tavsiya etiladi va bunga mos ravishda ichki tabaqalanish yo'qoladi. Bu holda traektoriyani shartli ravishda chiziqli deb atash mumkin. Ular chiziqsizlardan farqli ravishda, o'qish vaqtini sezilarli iqtisod qilish imkonini bersa-da, ta'lim oluvchilarni rivojlantirish emas, balki ma'lumotlarni olish jarayoniga urg'u beradi, ya'ni ularning individual xususiyatlarini inobatga olish imkonini bermaydi. Binobarin, fanlarni o'qitishda shakllantiriladigan kompetensiyalar doirasini kengaytirish uchun maxsus choralarni ko'rish lozim bo'ladi, shuningdek, ta'lim jarayonining shunday modeliga o'tish kerak bo'ladi, unda ta'lim oluvchi bilimlarni tayyor holda oluvchi pedagogik ta'sir ob'ektidan umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarni egallaydigan ta'lim jarayoni sub'ektiga aylanishi uchun sharoit yaratiladi.

Xo'sh ushbu muammoni qanday hal etish lozim? Mazkur muammoni hal etish yo'llaridan biri, bu talabalarni chiziqsiz ta'lim traektoriyasi asosida bilim olishlarini qurish bo'lishi mumkin. Bunday sharoit talabalarining chiziqsiz ta'lim traektoriyalarini qurishi orqali vujudga keltiriladi. Chiziqsiz ta'lim traektoriyasi deganda ta'lim oluvchilarning ta'lim natijalariga erishish yo'llarining ko'p variantlili bilan xarakterlanadigan va ularning intellektual hamda ijodiy potensialini to'plash, rivojlantirish va amalga oshirishga imkon beradigan ta'lim traektoriyasini tushunish lozim.

Chiziqsiz ta'lim traektoriyasi bo'yicha harakatlanib, ta'lim oluvchilar o'quv material mazmunining variativligi, uni o'rganishning uzviyligi va chuqurligi asosida, shuningdek bilish faoliyatining metodlari va shakllari, individual xususiyatlari, ehtiyojlari, bo'lajak kasbiy qiziqishlari va maqsadlaridan kelib chiqib, mustaqilligi va o'z-o'zini rivojlantirishning yetakchi roli natijasida ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi mumkin.

Ular an'anaviy ta'lim shaklidan o'zining variativligi bilan farq qiladi va ta'lim oluvchiga o'quv rejasida keltirilgan fanlardan tanlashda yetarlicha katta erkinlik berilishini, fanni o'rganishning murakkablik darajasini erkin tanlash, ya'ni oliy ta'limni individuallashtirishning yuqori darajasini ta'minlaydi.

Chiziqsiz ta'lim jarayonini amalga oshirish masalalari G.V.Gordiyanova, A.K.Burseva, A.Yu.Mel'vil ishlarida qarang chiqilgan. Ularda asosiy e'tibor ta'lim oluvchilar tomonidan tanlanadigan kurslar haqida, ya'ni OTMdagi ta'lim jarayonining

variativ qismi haqida fikr yuritilgan. Har bir sub'ektning chiziqsiz ta'lim jarayonida maqsad, mazmun, bilimlarni olish uslublarini tanlash imkoniyati o'zlashtiriladigan bilimlarning shaxsiy ahamiyatga egaligi bilan, bilish jarayonining mahsuli sifatida ma'lum inson mulkiga aylanishi uchun sharoit yaratadi, ular shaxsiy xususiyatlar bilan uzviy bog'langan va umummadaniy, umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish manbai hisoblanadi.

Differensiallashgan ta'limni qo'llash samaradorligi yuqoriligi turli fanlarni o'qitishda uni qo'llanilishiga olib kelgan bo'lib, afsuski, asosan umumta'lim maktablarida amalga oshirilgan. Ta'lim jarayonini differensiallashtirish maqsadi umumiy o'rta va oliy ta'lim uchun farq qiladi: birinchi holda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish maqsadi asosiy bo'lsa, ikkinchi holda talabalar kasb tanlash bilan allaqachon aniq yo'lni belgilagan bo'ladi va bunda o'quv materialini chuqur o'zlashtirishi, bakalavriat talabalarining kompetensiyalarini shakllantirish uchun ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini to'laqonli ochib berishi va rivojlanishi uchun imkoniyatlarni yaratish maqsadi yetakchilik qiladi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash mumkinki, "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi"ni o'qitishda ichki tabaqalashtirishni qo'llash nafaqat fan doirasida bakalavrlarning chiziqsiz ta'lim traektoriyalarini qurishni amalga oshirish, balki ularning individual xususiyatlarini e'tiborga olish imkonini beradi. Bu esa mutaxassislar tayyorlashda ta'lim sifatini oshirilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Мамаржабов Ш. "Дифференциалашган таълим-бўлажак мутахассисларнинг умумкасбий компетенциясини шакллантириш омили сифатида." Архив научных исследований (2021).
2. Пурешева Н.С. Методические основы дифференцированного обучения физике в средней школе: дис...д-ра пед.наук: 13.00.02 / Пурешева Наталья Сергеевна. – М.: 1995.
3. Осмоловская, И.М. Дифференциация обучения в современной школе / И.М. Осмоловская. – М.: 2004.
4. Павлуцкая Н.М. Дифференциация обучения физике бакалавров технических направлений подготовки как условие формирования их общекультурных и общепрофессиональных компетенций дис...д-ра пед.наук: 13.00.02 / Павлуцкая Нина Максимовна. – М.: 2016.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM KLASITERI SHAROITIDA IQTISODIYOT BILIM ASOSLARI FANINI O'QITISHNING ZARURLIGI

A.N.Rasulov, Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

В данной статье рассматривается вопрос преподавания основы экономики в общеобразовательной школе в контексте современного образовательного кластера.

Ключевые слова и понятия: современное, образование, среда, ученик, педагог, учитель, экономика.

This article discusses the issue of teaching the basics of economics in a secondary school in the context of a modern educational cluster.

Key words and concepts: modern, education, environment, student, teacher, teacher, economics.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritib bozor iqtisodiyoti tomon dadil kirib bormoqda. Bu iqtisodiyotning muhim sharti aholining, ayniqsa yosh avlodning savodxonligini oshirish, ularda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish bo'lib qolmoqda. Davr iqtisodiy tafakkurga ega bo'lgan, dunyoga yangicha

nuqtai nazar bilan qaraydigan yoshlarni talab qilmoqda. Shu bois iqtisodiyotning tushunchalari, qonun-qoidalarini, uning sir-asrorlarini yoshlarga o'rta ta'lim maktabi davridanoq singdirib borish zarur.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni,



shuningdek Davlat ta'lim standartlarida o'z aksini topgan g'oyalar, maqsad va vazifalardan kelib chiqilsa, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berish bo'yicha olib borilayotgan ishlar bugungi kundagi real ehtiyojlardan ortda qolmoqda.

Buning sababi, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni iqtisod fani bo'yicha o'qitayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi masalalar, mashqlar, testlar yechish bo'yicha o'qitish tajribasiga ega emaslar va metodik qo'llanmalarga muhtojlik sezmoqdalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars jarayonida nazariy bilimlar berish bilan birga amaliy mashg'ulotlar ham juda yaxshi natija beradi. O'quvchilarga iqtisodiy masalalarni, mashqlarni, testlarni yechishni o'rgatish bilan bilim, malaka, ko'nikma hosil qilinadi. Darslarda nazariy bilimlar bilan birga amaliy mashg'ulotlardan ham foydalanish, ya'ni masalalar, mashqlar, testlar yechishdan foydalanish ham o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi.

1. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarni o'rganishda masalalardan foydalanish metodining tutgan o'rni

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni o'rganishda markaziy o'rinni masala, mashq yechish egallaydi. Sababi: 1) masala, masq yechishni mukammal bilish olgan bilimni amaliyotda qo'llash imkonini beradi;

2) masala, masq yechish orqali o'quvchilarning bilim olishdagi faolligi ortadi;

3) masala, mashq fikrlashga o'rgatadi.

Shuning uchun ham masalaga faqat topshiriqni hisob kitob asosida bajarish, javobini aniqlash emas, balki fikr yuritish ob'ekti sifatida qaralishi bejiz emas. Masala yordamida fanni o'rganganda aniq raqamlar, dalillar, hujjatlar asosida tahlil qilish imkoniyati keng. Undan tashqari modellashtiruvchi o'yin, kichik guruhlariga bo'lish, konkurs o'tkazish va boshqa metodlar asosida dars o'tishda ham masala, masqlardan keng foydalanish imkoniyati katta.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy fanlardagi mashqlar o'quvchilarning mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatish bilan birga kam vaqt sarflashga, ayrim masalalarda ikkilanib turgan o'quvchilarni to'g'ri javob topishga o'rgatadi. Masala, mashq yechish jarayonida o'quvchilarning qabul qilingan qonunlar, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalarni qay darajada bilishlarini ham aniqlash mumkin. Ulardan munozara, debatlar metodini qo'llashda ham keng foydalansa bo'ladi.

Masala, mashqlar o'quvchilar bilimni sinashda ham eng qulay metod. Masala, mashqlardan fanni o'rgatish uchun targatma material tayyorlashda keng foydalanish mumkin. Ulardan darsda turli interaktiv metodlarni qo'llab, dars o'tishni tashkil etishda foydalanish imkoniyati nihoyatda katta.

Masala, mashqlardan foydalanib darsni tanlov o'tkazish shaklida tashkil etish mumkin. Bunda teng kuchli masala, mashqlar tayyorlanib, kichik guruhlariga, juftlik yoki individual tarzda yechishga qarab darsga qo'yilgan maqsad amalga oshiriladi.

Masala, mashqlar murakkabligi jihatidan tabaqalashgan holda tuzilib, o'quvchilarning salohiyatiga ko'ra beriladi. Natijada murakkab masalani yecholmay hafsalasi soviydigan o'quvchilarni ham diqqatini darsga, o'rganilayotgan mavzuga qaratish mumkin.

Xullas masala, mashqlar bir tomondan sinalgan, qadimiy dars o'tish uslubi bo'lsa, ikkinchi tomondan, imkoniyatlari nihoyatda ko'pligi tufayli eskirmaydigan, doimo zamonaviy, uchinchidan, universal, barcha iqtisodiy fanlarni o'rganishda qo'llash mumkin bo'lgan metoddir. Iqtisodiy fanlarni o'rganishda bu metod, shubhasiz, nihoyatda katta ustunliklarga ega, ya'ni:

– masalalardan foydalanish amaliyot yo'nalishiga ega bo'lgani uchun mavzuni o'rganish va o'quvchilar bilimni nazorat

qilishning samarali usuli hisoblanadi va ayniqsa, o'quvchilarning bilimni nazorat qilishda imkoniyati katta;

– masala mavzusi uchun har qanday vaziyatni tanlash mumkin. Masalalar o'quvchilar bilimni butun dastur bo'yicha nazorat qilish, shu bilan birga, asosiy yoki qiyin kategoriyalar yoki mavzularni tushunishga qaratilgan bo'lishi mumkin;

– masalalarning muntazam yechib turilishi hamda uni muhokama qilish o'quvchilarning olgan bilimni uzluksiz nazorat qilish, tushunmagan kategoriyalarni tushunib olish imkoniyatini beradi.

O'qituvchi masala va mashqlarni o'quv jarayonida turli shakllarda qo'llashi mumkin. Masala va mashqlar iqtisodiy kategoriya, qonunlarni sifat xarakteristikasi bilan birga miqdor aloqalarini ham o'zida mujassamlashtirilishi bilan muhim rol o'ynaydi.

Masala va mashqlar hisob kitob qilishni taqozo qiladi. Bu esa o'quvchilarning aniq miqdorlar, raqamlar yordamida qonun va kategoriyalarni tushunishni osonlashtiradi.

Chunki, iqtisodiyotni nazariy jihatdan o'rganishda, ko'pincha, ilmiy abstraktsiyadan foydalaniladi. Ko'pchilik o'quvchilar ilmiy abstraktsiya metodini tezda tushunishmaydi. Masala va mashqlardan nazariy darslarda foydalanishga ikki nuqtai nazardah yondashish mumkin:

A) Umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kollejlardagi iqtisodiy va nazariy jihatdan o'rganadigan fanlar: "Iqtisodiy bilim asoslari", "Iqtisodiyot asoslari", oliy o'quv yurtlarida o'rganiladigan "Iqtisodiyot nazariyasi" fanlarini o'rganishda masala, mashqlardan foydalanish.

B) Barcha iqtisodiy fanlardan nazariy dars o'tishda masala, mashqlardan foydalanish.

Masala, mashqlar uchun quyidagi qoidalar umumiy hisoblanadi.

1. Nazariy darslarda masala, mashqlardan foydalanish me'yorini bilish zarur. Masala, mashqlardan keragidan ortiq foydalanilsa, nazariy masalalarni yoritishda vaqt yetmay qoladi.

2. Ma'ruza darsi ushun qisqa vaqtda yechiladigan masala tuzgan yoki tanlagan ma'kul.

3. Ma'ruzada qo'yilgan masala, mashqni oxirigacha yechish shart emas. Ba'zan masala, mashqni ma'ruza jarayonida boshlab, mustaqil ravishda davom ettirishni o'quvchilarga topshirish mumkin. Ma'ruza jarayonida o'qituvchi masala, mashqni doskada yoki og'zaki shaklda yechishi mumkin. Ularni oldindan ko'rgazmali qurol yoki tarqatma material sifatida tayyorlanadi. Amaliy darslarda masala, mashqlardan foydalanish va ularni takomillashtirish.

Amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilarga individual yondashishning imkoniyati katta. Ularda u yoki bu turdagi qiyinchilik kelib chiqsa, o'qituvchining tushuntirishi, ayrim nazariy qoidalarni aniqlashtirishi, yo'l yo'riq ko'rsatishi orqali tezda yordam berib yuborishi mumkin bo'ladi.

Amaliy mashg'ulotlarda masala va mashqlardan foydalanish metodlariga uch xil yondashuv mavjud. Nisbatan eng ideal varianti bo'lib, amaliy mashg'ulotda nazariy savollarni muhokama qilib bo'lgach, masala, mashq yechib, nazariy bilimni mustahkamlash hisoblanadi. Bunda o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan dars soati imkon berishiga qaraladi. Masalan, ish bilan bandlik, ishsizlik va uning shakllarini muhokama qilib, nazariy bilimni mustahkamlash maqsadida masala yechish mumkin.

Har bir o'quv fanini o'qitish fanni o'rganishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari haqidagi fan ma'lumotlari asosida quriladi, bu fan o'qitish uslubiyoti deb ataladi. Iqtisodiyot fanini o'qitish uslubiyoti shu fanning o'ziga xos tomonlarini va



o'quvchilarni yosh xususiyatlarini e'tiborga oladi. U yana shu bilim yurtlaridagi o'qitishning vazifasi mazmuni metodlari va uni tashkil etish formalari bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlarga egadir. Ta'lim berish ikki tomonlama jarayondir, u o'qituvchining faoliyati o'quv materiallarini bayon qilishdan o'quvchilardan fanga qiziqishini, fikrlarini tarkib toptirishidan, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholashdan iborat. Bilimlar bajarilayotgan harakatning nazariy asosi hisoblanadi. Bilimlar tufayli harakatlarining ayrim bosqichlari va ularning ketma-ketligi tushunarli bo'ladi.

Ko'nikma – kishining ma'lum bir harakatini ongli ravishda bajarish qobiliyatidir, bu qobiliyat bilimlar va eng oddiy tajriba asosida hosil qilinadi. Ular amaldagi bilimlardir. Ko'nikmalarning turlari juda ham xilma xildir. Malaka-mashq qilish yo'li bilan hosil bo'ladigan ish-harakatdir. Mashq qilish natijasida o'qish, o'rganish va idrok etish, xilma-xil mehnat jarayonlarini bajarish malakalari hosil qilinadi. O'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish jarayoni bir qator bosqichlardan iborat bo'ladi.

Ta'lim berish bilish faoliyatining ajralmas qismi sifatida insonning tevarak atrofdagi dunyoni bilishning umumiy qonunlari asosida sodir bo'lar ekan, uni shaxsni o'qitish, tarbiyalash, barkamol avlod qilib yetishtirish jarayonida bir butunlikda amalga oshirish zarur. O'qituvchi qachon ta'lim tamoyillaridan xabardor bo'lgandagina uni samarali boshqarish, o'qitishning samarali usullarini to'g'ri tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda ma'lum bo'lgan quyidagi tamoiillar mavjud;

a) ta'limning ilmiy bo'lishi;

b) ta'limda nazariy bilan amaliyotning bog'liq bo'lishi

d) ta'limdagi onglik va faol harakatda bo'lish;

e) ta'lim jarayonini ko'rsatmali bo'lishi;

f) bilimlarni puxta va sistemali o'zlashtirib olish;

g) ta'lim jarayoni va tizimini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish;

h) ta'lim jarayonida shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

Ilmiylik ta'limning mazmuniga ham, usullariga ham aloqadordir. Shunday ekan, bilim, ilm-fan bilan o'quv predmeti o'rtasida hamkorlik, o'zaro bog'liqlik bo'lishiga erishish lozim. Ta'limning hamma bosqichlarida ilmiy izohlardan foydalanmoq kerak. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan, turmush tajribasi bilan bog'liq olib borish ta'limining yetakchi qoidalaridan hisoblanadi. O'quv materiallarining mazmuni bilan bog'liq tarbiyaviy maqsadlar aniq belgilansa, bilim olishga qiziqtirilsa, ko'proq muammoli jumboqlar qo'yib mustaqil fikrlashga undalsa va albatta ko'rgazmali qurollardan foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000.

2. Sayidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. 3. Tolipova J.O., G'ofurov A.T.. Biologiya ta'limi texnologiyalari. – T.: O'qituvchi. 2002.

4. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya o'qitish metodikasi. Pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T.: Moliya-iqtisod. 2007.

TA'LIM SOHASIDAGI KLASSTERLI YONDASHUV-TA'LIM RICHAGI SIFATIDA

**X.Sh.Yunusova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi**

Образовательный кластер – это система образовательных учреждений, направленная на повышение качества образовательного процесса в интересах развития приоритетных социально-экономических отраслей регионов, интеллектуального развития подрастающего поколения.

Ключевые слова и понятия: кластер, инновация, технология, структура, устойчивость, гибкость, вариативность, компетенция, подход.

An educational cluster is a system of educational institutions aimed at improving the quality of the educational process in the interests of the development of priority socio-economic sectors of the regions, the intellectual development of the younger generation.

Keywords and concepts: cluster, innovation, technology, structure, sustainability, flexibility, variability, competence, approach.

Klastrer yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lim sifatini oshirishga e'tibor qaratilganligi sababli dastlab, klastrer tushunchasiga, uning tarixiy taraqqiyoti va davriy o'zgarishlar mazmuni bo'yicha keltirilgan tavsiflarni tahlil etish lozim.

Klastrer tushunchasi birinchi bo'lib iqtisodiyot sohasida joriy etildi. Iqtisodiyotdagi klastrer nazariyasining asoschisi Garvard biznes maktabi professori M.Porter klastrerining shakllanish mexanizmini o'zaro raqobatbardoshlikning o'sishiga sabab bo'ladigan bir-biriga bevosita bog'liq sohalarning jamlanishi, deb tushuntirdi va ushbu hamkorlikning davlat iqtisodiyotidagi rolini aniqlab berdi.

Rus olimasi T.I.Shamova esa klastrerini raqobatbardosh, samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan alohida sohalar

birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi, deya tavsiflaydi. L.Bespalova klastrerini ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma, deb hisoblaydi.

Ta'lim sohasiga klastrer yondashuvining kirib kelishi innovatsion jarayon bo'lib, umumiy o'rta ta'lim tizimida amalga oshirilishi lozim bo'lgan yangicha yondashuvlar sifatida ta'lim turlari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqadorlikning innovatsion-integratsion yondashuvlardagi mexanizmlarini keltirib o'tish mumkin. Ta'lim tizimiga nisbatan bu kabi innovatsion yondashuv haqiqiy rivojlanish jarayonining mantig'iga mos kelsa, ta'lim sifati samaradorligi ortadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarining boshqaruv tuzilmasida mavjud muammolarga nisbatan munosib innovatsion



yondashuvlar joriy qilinsa, mavjud vaziyatni oldindan baholay olish, hodisalarning rivojlanishini to'g'ri taxmin qilish, o'z vaqtida choralar ko'rish va tashkiliy boshqaruv tuzilmasiga tuzatishlar kiritish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Ta'lim klasteri bu kabi muammolarning yechimiga nisbatan to'g'ri yondashuvni qaror toptiradi. Zero, klasterli integratsiya jarayonlari yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, moddiy, moliyaviy, texnologik, informatsion, uslubiy va kadrlar sohasidagi barcha resurslar jalb qilinganligi bilan ham eng kuchli mexanizm sanaladi.

Klaster moslashuvchan tarzda o'z tuzilmalari uchun boshqaruv tizimini yaratish, o'zaro ishonchni ta'minlash uchun haqiqiy rivojlanishni oldindan taxmin qilish imkonini beradi. Ta'lim tizimining tarkibiy qismlarida sifat o'zgarishlari bo'lishi, mazmunli faoliyat, umumiy va maxsus boshqaruv funksiyalari, dastur, texnologiya va usullari, ishtirokchilarning kadrlar salohiyatini rivojlantirishi bilan bog'liq jarayonlar klaster muhitini yaratish imkoniyatini beradi.

Ta'lim klasterlarining modellari Yevropa amaliyotida yetarli darajada mavjud bo'lib, Rossiya tajribasida klaster siyosati asosan ularni shakllantirish va rivojlantirish tamoyiliga asoslanadi. T.I.Shamova ta'limni rivojlantirishga klaster yondashuvi individual sub'yektlar va klaster ishtirokchilarining o'ziga xos afzalliklarini kuchaytiradigan ijtimoiy hamkorlik asosida amalga oshirishga asoslanganligini ko'rsatadi.

Ta'lim klasterlari modelining yagona tipologik xususiyatlari M.Yu.Barishnikov, I.I.Chinnova, A.V.Simonovlar tomonidan taklif qilingan. Tadqiqotchi G.E.Zaxidov tomonidan ham klasterni shakllantirish usullari normativ-huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy-kommunikativ sohalar bo'yicha tahlil qilingan.

L.V.Ovsienko, I.V.Zimina, N.N.Klinsova kabi olimlarning tadqiqotlarida ta'lim klasterlari ijtimoiy sheriklik doirasida universitetlar, umumta'lim maktablari, korxonalarning tarmoq aloqalari o'rtasidagi faoliyat sifatida tushuniladi. Aynan shu mazmun tadqiqot doirasida taqdim qilinadigan ta'lim klasteri tuzilmasida o'z aksini topmoqda.

Ta'lim sohasidagi klasterli yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlash, ularni analiz-sintez qilgan holda tavsifini berish imkonini berdi.

Klaster yondashuvi bu:

- alohida soha (ta'lim, iqtisodiyot va b.) bo'lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo'lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi;
- zamonaviylik va muntazam yondashuvdan kelib chiqqan holda bir tashkilotning tuzilishiga birlashtirilgan bir-biriga bog'liq bo'lgan turli soha xo'jalik sub'yektlarining majmui;
- ixtiyoriy komponentlar qatorida o'zining to'liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo'laklardan iborat bo'lgan tuzilma;
- ishlab chiqarish va ta'lim dasturlarining ehtiyojlarini birlashtirish;
- tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovatsion samarali usuli;
- ta'lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi;
- turli ta'lim muassasalarini (bolalar bog'chasi-maktab-kollej-OTM) integratsiyalashuvi natijasida ta'lim tizimini izchillik tamoyili asosida qayta tashkil etish va h.k.

Ta'limga nisbatan tatbiq qilinayotgan klaster yondashuviga mualliflik asosidagi ilmiy farazlarni ham taqdim etish maqsadga muvofiq:

- ta'lim sohasida uning rivojlanish nazariyasi va

texnologiyasini tartibga solish uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat turlarini joriy etish, uzviylik, uzluksizlik va izchillik asosida ta'lim sohasi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan tuzilma tuzish;

ta'lim turlarining innovatsion-integratsion hamkorlik tamoyillari asosidagi hamda maqsad umumiyligi va manfaat xususiyatidan kelib chiqqan holda belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minlashga qaratilgan pedagogik-texnologik faoliyat uyg'unligini ta'minlash va hokazo. Demak xulosa qilib aytish mumkinki, ta'limga nisbatan tatbiq qilinayotgan klaster yondashuvi bu alohida bir sohada samarali hamkorlikka yo'naltirilgan tuzilma tuzish, uning rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar beradigan yangi xizmat bo'lib, undagi uzviylik, uzluksizlik va izchillik soha faoliyati samaradorligini intensiv oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sohasidagi klaster yondashuvi belgilangan ijtimoiy buyurtmani ta'minlashning qulay tuzilmasini tizimga tatbiq etishni nazarda tutadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqot doirasida "ta'lim klasteri"ga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "ta'lim klasteri ta'lim turlarining gorizontaal va vertikal holatdagi o'zaro bog'liq tarkibiy bo'limlardan, o'ziga xos integral belgilardan iborat, jamiyat ehtiyojidagi ijtimoiy buyurtmani maqsad umumiyligi va manfaat xususiyligi tamoyili asosida ta'minlovchi, ilmiy-texnologik infrastuktura hamda inson resurslari integratsiyalashuvini, tezkor mulqot tizimini taqdim qiluvchi, turli darajalarda (davlat, mintaq, hudud, muassasa) raqobat muhitini shakllantiruvchi, innovatsion loyihalarni samarali ommalashtiruvchi tuzilma hisoblanadi.

Ta'lim klasterining samarali rivojlanishi uning muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi shart-sharoitlar va omillarga bog'liq:

- talabga javob beradigan texnologik va ilmiy infrastrukturaning mavjudligi;
- qatnashchilarning o'zaro hamkorlikka ruhiy jihatdan tayyorligi;
- klaster subyektlari o'rtasida axborot almashishni ta'minlovchi kuchli axborot texnologiyalari.

Adabiyotlar

1. A.Xoliquov "Pedagogik mahorat" – T.: Iqtisod-Moliya 2011.
2. U.Xodjamqulov "Pedagogik ta'lim klasteri" Monografiya – T.: Universitet 2020
3. "Bola va Zamon" 4/2021.



INGLIZ TILINI O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI

N.Abdanbekova, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

Статья посвящена инновационному подходу преподавания английского языка в общеобразовательных учреждениях.

Ключевые слова и понятия: современное образование, инновационные технологии, учебно-познавательная деятельность, подход, инновационное образование.

The article is devoted to an innovative approach to teaching English in educational institutions.

Key words and concepts: modern education, innovative technologies, educational and cognitive activity, approach, innovative education.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyasi o'qituvchi kasbiy faoliyatining maqsadini belgilab beradi. Uning maqsadi ta'lim oluvchilarning jamiyatga va mehnat bozoriga faol moslashish qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Buning uchun ta'limda innovatsion texnologiyalarning rivojlanish muhim. Innovatsion metodlar o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini yangicha tashkil etish bilan tavsiflanadi. Zamonaviy o'qituvchilar muammoli ta'lim texnologiyasi deganda ijodiy qobiliyatlar, intellektual faoliyatni rivojlantirish uchun maksimal imkoniyatlardan foydalanishni tushunishadi. Muammoli ta'limda ikki guruh: o'rganishga bevosita ta'sir qilish va o'rganishni rag'batlantirishni ajratish mumkin.

Birinchi guruh quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- materialni tushunish;
- yodlash - xotirada saqlash;
- kompensatsiya - muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish.

Ikkinchi guruhga o'rganish uchun sharoit yaratish va tilni o'zlashtirishdagi psixologik qiyinchiliklarni yengishga yordam berish kiradi.

Keyingi o'n yillikda zamonaviy ta'lim texnologiyasining rivojlanishi munosabati bilan ta'lim jarayoniga audio va video yozuvlar, kompyuter dasturlari, masofaviy ta'lim keng joriy etilmoqda. Axborot texnologiyalari bilimning ko'plab sohalarida, turli xil ta'lim sharoitlarida va barcha darajalarda ta'lim jarayonini boyitadi. Bu chet tillarini o'rgatish uchun to'liq amal qiladi.

Innovatsion ta'lim o'quvchilarni faoliyatga, jamoaviy ishlashga, fikr almashishga majburiy jalb qilishni o'z ichiga oladi.

Innovatsion ta'limning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ishlash, rivojlanish;
- yorqin kelajakni ko'ra olish;
- shaxsga, uning rivojlanishiga e'tibor qaratish;
- ijodkorlik elementlarining mavjudligi;
- hamkorlik, birgalikda yaratish, o'zaro yordam va boshqa sheriklikdagi munosabatlar.

Ta'limda innovatsiyalarga ta'lim mazmunidagi, o'qitishning shakl va metodlaridagi, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlaridagi axborot texnologiyalaridan foydalanish, yangi texnika vositalarini joriy etish, o'quv jarayonini tashkil etishdagi innovatsiyalarni boshqarish va boshqalar kiradi.

Innovatsion texnologiyalar ingliz tilini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, fanni tizimli va tarkibiy jihatdan o'rganishdan uni aloqa va fikrlash vositasi sifatida o'rganishga o'tish va bilish faoliyatini samarali va ijodiy darajaga ko'tarish imkonini beradi.

5-sinfda ingliz tili fanidan "Yil fasllari" mavzusini innovatsion texnologiyalar asosida o'tkazish texnologiyasini misol keltiramiz.

Ingliz tili fanidan "Yil fasllari" mavzusini o'qitish uchun dars

ishlanmasi quyidagicha tuziladi:

Subject: English

Form: The V-th

Topic: Round the Year

Type: Mixt

Objectives:

Describing and comparing the months of the year

Talking about the weather

Talking about the seasons of the year

Describing the seasons orally and in written form

Forms and methods of the work: reading, writing, oral work, individual/frontal work, questionnaire, creativity, essay, description, work on the board, work with the textbook, work with pictures and flashcards.

Evaluation: oral questionnaire, exercise.

Stages of the lesson (dars bosqichlari)

Teacher's activity (o'qituvchi faoliyati)

Pupils' activity (o'quvchi faoliyati)

Evaluation (baholash)

Organization moment

Good morning, children!

How are you today?

What date is it today?

Put it down in your copy-books. O'quvchilar o'qituvchini kutib oladilar, savollarga javob beradilar, daftarga sanani yozadilar.

Homework control. You had to do task 1. Match the words with their definitions. Let us check it up. Uy ishini o'qituvchi bilan birgalikda tekshiradilar. Uyga vazifani baholaydilar.

The new topic

Yangi mavzuni boshlashdan avval, quyidagi savollar bilan murojaat qilinadi:

What season is it now?

How is the weather today?

Name the months of the year.

Thank you. Today we'll have a voyage "Round the Year".

Write the topic in your copy-books.

O'qituvchi mavzuni va dars maqsadini e'lon qiladi.

Now you get some flashcards with the questions and answer them orally:

– Which month is the coldest?

– Which month is the hottest?

– When do we have harvest time?

– Which month is the shortest?

You have exercise 2. Read and translate the sentences. Let's remember the months again.

Lug'at bilan ishlash

Words of the topic. Repeat the words after me, put them down,



and read them. Make up word-combinations and sentences with them.

O'quvchilar o'qituvchining savollariga javob beradilar.

Mavzuni daftarga yozib oladilar.

O'qituvchini tinglaydilar. Savollar yozilgan kartochkalarni oladilar va unga og'zaki javob beradilar. Gapni o'qiydilar va tarjima qiladilar, yil oylarini ingliz tilida takrorlaydilar. Yangi so'zlar bilan ishlaydilar: o'qituvchining ketidan takrorlaydilar, o'zlari so'zlarni o'qiydilar, so'z birikmalari va gap tuzadilar.

Yozma topshiriq

Actualization of the knowledge

Guruh bilan ishlash

Birinchi guruh yil fasllari nomlari, ikkinchi guruh oy nomlarini oladi.

Berilgan so'zlardan yil fasllari va oylarga tegishlisini toping.

Darslik bilan ishlash.

Exercise 5. Read the sentences, translate them and point out the adjectives which describe weather:

It is cloudy in September.

It is wet in March.

Exercise 6 on the board. Read the sentences, choose the adjectives from my table and put it in the blank:

Answer the question:

What is your favorite season and why?

Individual work:

Write an essay on the topic: "My Favorite Season"

Read the essays.

Look at the pictures and name the holidays and the seasons the take place in.

Topshiriqni yozma ravishda bajaradilar.

Gaplarni o'qiydilar, ularni tarjima qiladilar, ob-havoni aks ettiruvchi sifatlarni aytib beradilar.

Doskada ishlash. Gaplarga kerakli sifatlarni qo'yib to'ldiradilar.

Sevgan fasli haqida savollarga og'zaki javob beradilar.

Mustaqil ish. "Men sevgan fasl" mavzusida insho yozish.

Inshoni o'qib beradilar.

Rasm bilan ishlash ko'nikmasi: Rasmda aks ettirilgan yil fasllariga mos bayramlarni sanab beradilar.

Homework

What season is it now? What holidays come soon?

You have to write letters to Father Frost. Some of you have to write sentences with the new words.

O'qituvchining savollariga javob beradilar.

Uyga vazifani yozib oladilar.

Evaluation

What did you learn today?

Did you like our lesson?

Comment on the marks

Thank you!

Good bye!

Bunday innovatsion darsga tayyorgarlik ko'rayotganda matn tanlashga alohida e'tibor berish kerak. Matn yuqori darajada badiiy bo'lishi kerak, shu bilan birga o'quvchilarning yosh xususiyatlarini ham, o'rganilayotgan materialning hajmini ham hisobga olish kerak. Keyinchalik qiyosiy va qarama-qarshi tahlil o'tkazish uchun umumiy mavzu bilan birlashtirilgan turli mualliflarning matnlaridan, turli uslublar va nutq turlarining matnlaridan tahlil qilish uchun foydalanish tavsiya etiladi.

Bunday darsda o'qituvchi an'anaviy darsning nostandart, ijodiy elementlariga murojaat qilishi, leksik diktant yoki krossvord va topishmoqlar tuzishi mumkin. Asosiysi, darsda bolalarning zerikishiga yo'l qo'ymaslik muhim. O'quvchilar o'zlari ishlashni, o'qishni xohlashlari dars muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Adabiyotlar

1. Мировые образовательные технологии: основные тенденции, проблемы адаптации и эффективность. Материалы республиканской научно-методической конференции. 25-26 апреля. Алматы.

2. Мынбаева А.К., Садвакасова З.М. Инновационные методы обучения или как интересно преподавать: Учебное пособие. 2009.

3. Johnson D. W., Johnson R. T., Youtube E. I. Circles of Learning: Cooperation in the Classroom. Minnesota.

4. <https://englishfull.ru/znat/urok-v-5-klasse.html>

DISLALIYA NUTQ KAMCHILIGINI O'RGANISHDA ILMIY-NAZARIY ASOSLARNING AHAMIYATI

S.J.Achilova, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Defektologiya" kafedrasida dotsent v.b., pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.R.Raxmatullayeva, 1 kurs magistratura talabasi

В данной статье описывается содержание научных исследований, проведенных учеными при изучении дислалии и важность применения их в работе с детьми с речевым дефектом.

Ключевые слова и понятия: речь, дислалия, произношение звука, словарный запас, фонетика, общение.

This article describes the content of scientific research conducted by scientists in the study of dyslalia and the importance of their application in working with children with a speech defect.

Key words and concepts: speech, dyslalia, sound pronunciation, vocabulary, phonetics, communication.

Har bir inson ma'lum bir fikrni yetkazishda avvalambor ichki nutqni tahlil etgan holda tashqi nutqida bayon etadi. Jamiyatda inson o'z o'rnini topishda va ma'lum bir kasb egallashda uning nutqi ravon bo'lib rivojlanishi zarurdir.

Ma'lumki, dislaliya nutq kamchiligini o'rganishda olib borilgan

ilmiy tadqiqot ishlari bugungi kunda ushbu nutq kamchiligini bartaraf etishga o'z hissasini qo'shmoqda.

Bolalarda tovushni to'g'ri talaffuz qilish asosan 5 yoshlarda shakllanadi. Bolalarda to'g'ri talaffuzni tarbiyalash ishi nutqning har tomonlama rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Ko'p tarmoqli



maxsus maktabgacha muassasalarda lug'atni boyitishga, to'g'ri talaffuz qoidalarini egallashga, grammatik shakllar bilan tanishtirishga katta e'tibor beriladi.

Nutqning tovush sistemasi hozirda shakl birligi (fonetika) va mazmuni (fonologiya), "ifodalash rejasi" va "mazmun rejasi" birligi, nutq va til vositalari birligi sifatida ko'rib chiqildi.

Mualliflarning ta'kidlashicha, tovush haqida ikki fanni bilish darkor – biri nutqda, ikkinchisi tilda o'z ifodasini topishi kerak. Tekshirishlardan kelib chiqib, tovush haqida ikkita fan tafovut qilinadi – muloqot maqsadida qo'llaniladigan tovush signallari va jismoniy ko'rinish bo'lgan konkret tovushlar.

Tovush ta'sirotlariga bo'lgan reaksiya yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kuzatiladi. Reaksiya tana qimirlashi, imlash, nutqiy nafas va pulsning o'zgarishi ko'rinishida bo'ladi. Bolaning ikki haftaligida eshitish dominantining yuzaga kelganligi haqida xabar beruvchi, tovush ta'sirotlari ostida ba'zi bir tana harakatlarining va yig'ining to'xtalganligi kuzatiladi. To'rtinchi haftada alla ta'sirida bolada tinchlanish holati kuzatiladi. Bularning hammasi shartsiz reflekslardir.

yetti oylikdan boshlab, bola onaning ba'zi bir tovushlariga ta'sir ko'rsatadi va bu tovushlar uning gugulash repertuaridan joy oladi. Bolalar eng oson intonatsiyani yaxshi o'zlashtiradilar, u bolaning ona bilan emotsional muloqoti jarayonida paydo bo'lib, asosan nutqqacha eng muhim vosita hisoblanadi.

Nutqni idrok qilishni tekshirish jarayonida olimlar (V.P.Ananev, V.I.Beltikov, A.N.Gvozdev) bolalarda birinchi fonematik eshituv nutq normal rivojlangan holda juda erta yuzaga kelar ekan, degan xulosaga keldilar. Mualliflarning ta'kidlashicha, bolaning eshitish analizatori funksiyasi erta rivojlanganligi sababli u nutq rivojlanishining boshidayoq akustik jihatdan qarama-qarshi bo'lgan tovushlarni ajrata biladi, rivojlangan fonematik eshituv bolaga faqat to'liq nutqni egallashiga yordam beribgina qolmay ona tilida bemalol muloqot qila olish malakalarini ham shakllantiradi.

Normada rivojlanayotgan 6 va 7 yoshli bolaning umumiy va nutqiy rivojlanish darajasi maktabda ta'lim olishga ma'lum jihatdan yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishini ko'rsatadi. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalarda maktabda ta'lim olishga, savod o'rganishga zarur bo'lgan nutqiy ko'nikma va malakalar yetarli shakllanmagan bo'ladi. Bu esa maktabda ta'lim olish, savod o'rganish jarayonida bir qator qiyinchiliklar tug'diradi.

Nutq nuqsонlari, ularni namoyon bo'lishini o'rganish tarixdan juda dolzarb bo'lib, bu sohada juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borilgan. Nutqning tovushlar tomonini o'zlashtirish uchun tovushlarni idrok etish va talaffuz qilishning rivojlanishi muhimdir. Nutqda tovushlarni, so'zlarning fonetik tarkibini to'g'ri idrok etish darxolda vujudga kelmaydi, balki bu doimiy rivojlanish natijasi hisoblanadi. Nutqning ilk rivojlanish davrida bola so'zlarni umumiy yaxlit idrok etadi. Keyingi bosqichlarda esa, rivojlanish natijasida so'zlarning tarkibidagi tovushlarni ajrata boshlaydi. Bir vaqtning o'zida faol lug'at rivojlanadi va so'zlarni to'g'ri talaffuz etishga o'rganadi. Bolada so'zlar va alohida tovushlarni akustik va artikulyar jihatidan farqlash shakllanadi.

Nutqiy kamchiliklar ustida juda ko'p olimlar ish olib borganlar. Talaffuzdagi kamchiliklar muammosi nutqiy patologiyalar tarixini o'rganishda eng dolzarb bo'lgan ko'pgina ishlarda yoritilgan. Kichik maktab yoshidagi va maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini shakllantirish metodlari tomonidan ishlab chiqilgan. Og'zaki va yozma nutqdagi kamchiliklar ilmiy jihatdan o'rganilgan. Mualliflar og'zaki nutqdagi kamchiliklarni kelib chiqish sabablarini turlicha talqin qiladilar va bartaraf etish uchun turli metodik ko'rsatmalar beradilar.

M.Aleksandrovskeya ma'lumotiga ko'ra, tekshirilgan 1200 ta bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar kuzatilgan, shularning 404 tasi 5 yoshli, 324 tasi 6 yoshli, 244 tasi 7 yoshli, 144 tasi esa 8-9 yoshli bolalarni tashkil etgan. Muallifning fikricha, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning ko'p foizi maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatilar ekan hamda bu kamchilik maxsus pedagogik aralashuvsiz o'z-o'zidan yo'qolib ketmaydi, balki bu kamchiliklar maktabgacha yoshda bartaraf etilmasa kichik maktab yoshda ham namoyon bo'ladi, degan xulosa kelib chiqadi.

Bolalarda, sirg'aluvchi, shovqinli, sonori, l tovushlaridagi kamchiliklar ko'proq uchrar ekan. Qolgan tovushlardagi kamchiliklar yuqorida ko'rsatilgan tovushlarga nisbatan kam uchrar ekan. Shuningdek, bolalarda uchraydigan tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar sababi motor sferadagi va akustik idrokdagi kamchiliklar natijasidir.

Bu borada O'zbekistonda L.R.Mo'minova, M.Yu.Ayupova va boshqalarning olib borgan ishlari alohida e'tiborga loyiqdir. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar qadimgi davrlarga taqalib, birinchi ma'lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilindi. Yuqoridagi mualliflar noto'g'ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog'liq. O'rta asrga kelib, dislaliya haqida yangi fikrlar paydo bo'lmay, qadimgi davr ilmiy g'oyalari takrorlanadi. Tarixning keyingi davrlarida (ya'ni 16-18 asrlarda) italyan professori Merkurialis, nemis fiziologi Alberxt Fon Gallerning ishlari paydo bo'ldi. Ular ham tili chuchuklikni (dislasiyani) pereferik nutq apparati tuzilishidagi kamchiliklar natijasi deb qaraydilar. Merkurialis bu kamchilikni davolash usulining eng mosi deb xirurgik terapiya deb hisoblaydi. Galler esa talaffuzdagi kamchiliklarni mashqlar orqali davolash fikrini ilgari suradi. Keyinchalik bu fikr fransuz olim J.Talma ishlarida ham o'z aksini topadi.

Shunday qilib, 19 asrgacha tili chuchuklikning mohiyatini artikulyatsion organlar ishidagi mexanik buzilishlarga bog'lab o'rganganlar. Chunonchi, bu davrlarda tili chuchuklik «duduklanish» deb nomlanuvchi nutq buzilishining umumiy guruhidan ajratilmagan edi. Nutqdagi talaffuz kamchiliklariga birinchi tasnif 19 asrning boshlarida berildi. Funksional dislaliyaga noto'g'ri nutqiy tarbiya va nutq apparatida mashqlarni, ya'ni harakatning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan nutq kamchiliklarini kiritadi. A.Kussmaul tomonidan birinchi marta ayrim tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni ifodalovchi terminlar kiritildi: rotatsizm-pararotatsizm, lambdatsizm-paralambdatsizm, sigmatizm-parasigmatizm va hokazo. Shunday qilib, A.Kussmaulning xizmatlari shundaki, u dislaliyani dizartriya dan ajratdi va dislaliyani funksional va mexanik shakllarini ko'rsatib berdi.

Adabiyotlar

1. Григоренко Н.Ю., Синяева М.Л. Логопедический и медицинский аспекты органической дислалии и способы ее коррекции //Дефектология 2000.
2. Achilova S.J. Dislaliya. Dizartriya". O'quv qo'llanma. Chirchiq., 2021.
3. Achilova S.J. Maxsus maktabgacha ta'lim muassasalarida dizartriya nutq kamchiligini bartaraf etishda logopedik ish turlari. "Maktab va hayot" ilmiy metodik jurnali. Toshkent 2021, 1 son.
4. Ачилова С.Ж. Логопедическая работа в специализированных учреждениях с диагнозом дизартрия. "Халқ таълими" илмий- методик журналы. Тошкент 2021, 1 сон январь-февраль.



TA'LIM TURLARIDA ARXITEKTURA QURILISH CHIZMACHILIGI O'QITISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

S.X.Mardov, Toshkent arxitektura-qurilish instituti katta o'qituvchisi

В данной статье описаны теоретические сведения, правила и методика преподавания на основе государственного стандарта, что является одним из основных факторов при обучении черчению в общеобразовательных школах.

Ключевые слова и понятия: стандарт, чертежи, пространственное мышление, ученики, репродуктивность урока, дидактические стандарты, правила, требования, продолжительность.

This article describes the theoretical information, rules and teaching methods based on the state standard, which is one of the main factors in teaching drawing in secondary schools.

Key words and concepts: standard, drawings, spatial thinking, students, lesson reproduction, didactic standards, rules, requirements, duration.

Ma'lumki, odamlar bir-birlaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko'rgan-kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtda aniq esga tushura oladilar. Ba'zilar ko'z bilan ko'rgan har qanday ob'ektni mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikirlaydi, kimdir sodda, ravon tilda o'z his-kechirinishlarini ayta olsa, boshqalar turli mazmun va shakldagi fantazyalarga asoslanadi. Qurilish chizmachilik sohasi ham bundan mustasno emas, ya'ni ayrimlar har bir chizmaga albatta, fantaziya elementlarini qo'shishga moyil bo'ladilar. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan taassurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatlari har xil bo'lar ekan. Ikkinchi tomondan, shunday kasb-korlar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatning mukammallashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshqaruv tizimlarida ishlaydigan operator o'z diqqatini har qanday mayda o'zgarishlarga ham qaratishga o'rgansa, konstruktor mavhum matematik hisob-kitoblarga usta bo'lib boradi. Demak, odamning tashqi olamning xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidori o'sishi va professional malakalari rivojlanganligiga bog'liq ravishda kechadi. Shuning uchun ham ongni muhim aks ettirish shakllari bo'lmish bilish jarayonlari—idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur, iroda va hissiyotlarning inson hayoti va professional o'sishidagi roliga to'xtab o'tamiz.

Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Bu jarayonlar — sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq, tasavvur, ko'nikma va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqlik, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan chizmalarigizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgari idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Hattoki, tasodifan qo'limizga chizma geometriya masalalari tushib qolsa, bergan reaksiyamiz ham emotsiyalardan tashqari, o'sha narsalarning bu yerda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi. Bularning hammasi psixologik operatsiyalar, jarayonlar bilan bog'liq xodisalardir. Shuning uchun ham ular ham pedagogika, ham psixologiya fanida muammo sifatida muntazam tarzda tatqiq etib kelinadi.

Murakkab kompyuter texnikasi paydo bo'lgandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta qo'lash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'taradi.

Analogik holat xotiramizda ham tez-tez ro'y beradi. Fanga doir masalani uchratib qolganimizda, o'ylanamiz: qayerda ko'rgan ekanman? Hech eslolmaymiz, lekin masalani tuzilishi, ishlanish prinsipi va boshqa ko'rinishlari tanishday. Buni ham shunday izohlash lozimki, odam ko'rgan-kechirganlari mashqlar tufayli aslida miyada saqlanadi, biz ong sohasiga ayrimlarinigina chiqara olamiz. Faqat, kasal bo'lib yoki biror narsadan qattiq tashvishga tushganimizda miyamizga har xil o'y-fikrlar kelaveradi. O'shalar aslida bor narsalarning beixtiyor tiklanishi.

Kuzatuvlarimiz natijasida shu narsa ayon bo'ladiki, qurilish chizmachilik fanini o'qitishda talabalarda fanni o'zlashtirish ko'rsatkichi pasayib bormoqda. Masalan, grafik ta'lim mazmuniga kiruvchi ayrim nazariy bilim va grafik malakalar maktab chizmachilik kursida shakllantiriladi. Shu bois oliy o'quv yurtlariga kelib ta'lim olish jarayonida talabalarda bu fan bo'yicha bilimlar qaysidir darajada shakllangan bo'ladi. Maktabda geometriya fanidan ta'lim olganlarida qurilish chizmachilik fani uchun ham zamin hosil bo'ladi. Lekin, o'zlashtirilgan bilimlar nisbati chizmachilik fanidan hosil bo'lgan bilimlar ko'rsatkichi past. Shuning uchun ularning ba'zilarida 30%, ba'zilarida 60% gacha fazoviy tasavvurlari shakllanmaganligini ko'rsatadi. Bu chizmachilik fani uchun dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Chunki, buning salbiy oqibatlar pirovard natijasida talabalarda chizmachilik fanining asosiy po'ydevori bo'lgan fazoviy tasavvurni rivojlanmasligi soha bo'yicha mukammal kadrlar etishib chiqmasligiga sabab bo'lmoqda. Bu fanning mohiyatini va negizini fazoviy tasavvurlar shakllangan, rivojlangan, ko'nikma va malakaga ega shaxslargina o'zlashtiradi va tushuna oladi. Bunga quyidagi psixologik, pedagogik va metodik jihatlari sabab bo'lishi mumkin, ya'ni:

- yangi mavzu bayonidagi ma'lumotlar talabaga tanish bo'lib, uning uchun takroriy, ya'ni hech qanday qiziqish uyg'otmasligi;
- fazoviy tasavvurning yo'qligi;
- mavzuni to'liq anglamasligi;
- tasavvur qilishni talab qilgan mavzularda fazoviy tasavvurni bo'lmasligi;
- grafik ta'limga qiziqishi shakllagan talabalar uni kengaytirish, o'stirish, takomillashtirish, rivojlantirishga intimasligida.

Bu kabi holatlar tajribali o'qituvchilar faoliyatida kam bo'lsa-da, lekin uchrab turadi.

Ta'lim maskanlarida o'tilgan mavzular keng va murakkablashtirilgan tarzda o'qitiladi. Shu bois bu fan talabalarda grafik ta'limga qiziqitirish imkonini beradi. An'anaviy ta'lim jarayonida o'qituvchi darsni asosan past o'zlashtiruvchi talabalarga mos holatda tashkil etadi. Bunda a'lochi o'rganuvchi uchun mavzu bayoni zerikarli bo'lib, qiziqishini susaytirishi, aksincha qiyin o'zlashtiradiganlarda o'quv jarayonida orqada qolishi kuzatiladi. Chunki o'rganuvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari orasidagi



tafovut o'quv jarayonining faollashishiga yo'l qo'ymaydi.

O'qituvchi grafik ta'limga qiziqishlari shakllanmagan va past darajada shakllangan o'quvchilarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularning grafik ta'limga qiziqishga undovchi omillarni ishlab chiqishni talab etiladi.

Psixologiyada tasavvur tushunchasi idrok qilingan, his etilgan narsa yoki xodisaning kishi ongida aks etishi, gavdalanishidir. Bu fanlarning grafik ta'limga suyanishidan maqsad fandagi bilimlarni faqatgina qog'ozga tushirish bilan chegaralanganda edi, unda bilim oluvchilar uchun tonna-tonna qog'ozlar va o'quv materiallari kerak bo'lar edi. Bilim beruvchi va bilim oluvchi bilan uzviy bog'liqlikda shunday bir murakkab jarayon yuzaga kelishi bois ham ular o'rtasidagi holatlarni qog'ozda bajarish juda mushkul.

Shuning uchun grafik ta'limga qiziqish orqali bilimlarni mustahkamlash va o'zlashtirish mumkin bo'ladi. O'qituvchi o'quv vositalari orqali o'z bilmini o'quvchilarga yetkazadi hamda grafik ta'limga qiziqishga undovchi omillar yordamida darsni unumli o'tishini ta'minlaydi. Bu vositalar yordamida o'quvchilar bilimlarni o'zlashtiradilar va o'z navbatida grafik ta'limga qiziqish orqali berilgan m'lumotlarni tasavvurlarida shakllantirishga va rivojlantirishga harakat qiladilar. Qurilish chizmachilik darsida masalan, binoning ko'rinishlari, yaqqol tasviri, ikki ko'rinishga asoslanib uning qir-qimini qurish, ko'rinishlarga qarab yaqqol tasvirini chizish kabilar yoki qir-qim va kesimlarda kesuvchi tekisliklar fikran (hayolan) obyektlarda bajarilishi bevosita o'rganuvchilarning tasavvurlari asosida amalga oshiriladi. Bunda grafik ta'limga qiziqish katta o'rin tutadi. Shuning uchun grafik ta'limga qiziqishga psixologik va pedagogik muammo sifatida qaraladi. Bu muhim psixologik va pedagogik muammoni hal etish o'quvchilarning grafik ta'limga qiziqishlarni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Grafik ta'limga qiziqishidan oqilona foydalanish mazkur muammoni yechishning samarali vositasidir.

Ta'lim tizimidagi bu muammolarni o'rganish, o'quv jarayonini faollashtirishda yuqoridagi tartibda salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar psixolog va pedagog olimlarning tadqiqot ishlarida bir qadar yoritilgan. Ularda ta'lim sohasiga yangi metod, uslubiy vositalarni joriy etish kelajakda o'quv jarayonini yanada takomillashishiga olib kelishi ta'kidlanadi. Dars jarayoni o'quvchining aqliy faoliyati, ya'ni tafakkur qilish faoliyatidir. Buning uchun o'quvchilarga muammoli vazifalarni qo'yish, natijada ularni aqliy faoliyatini charxlashga, intilishga o'rgatishdan iborat. Oddiy darslarda o'qituvchi vaqt taqsimotida ko'p vaqtini yangi mavzu bayoniga bag'ishlaydi. Natijada, ko'p hollarda o'tilgan mavzuni mustahkamlash, uni yangisi bilan bog'liqligi va asosiysi, ularning bilimini nazorat qilib baholashga ulgurmaydi. Afsuski, ko'p pedagoglarimiz dars jarayonini tashkil etish - faqatgina yangi bilimlarni yetkazish deb hisoblaydilar va bu bilan o'quvchining faoliyat yuritishiga, ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga ikkinchi darajali masala deb qaraydilar.

O'quv materialini qay darajada tushunarli bo'lishi, ularning ongida akslanishi va shu m'lumotlar yuzasidan bilimning hosil bo'lishi ta'limning ko'rsatmalilik tamoyili bilan belgilanadi. U o'qitish jarayonini sifatini oshiradi, o'quvchilarning bilim olishini osonlashtiradi. Chunki psixologik nuqtai nazardan bu jarayonda o'quvchining barcha sezgi analizatorlari aktiv faoliyat ko'rsatishi

natijasida narsa-buyum haqidagi ilmiy bilimi xotirada akslanib, saqlanadi. U yoki bu hodisani, tarixiy xotirani miyada shakllanishi birinchidan, psixologik jihatidan ilm olishga moyillik darajasini oshirsa, ikkinchidan, undan (ta'limdan) kutiladigan natija pedagogik jihatdan kafolatlanadi. Uzoq muddat o'tgach, ayni shu tasvir, ya'ni me'moriy chizma, surat namoyishi, uning xotirasidagi m'lumotlarni uyg'otishi kuzatiladi. Lekin hozirda an'anaviy o'quv jarayonlaridagi ko'rsatmalilik vositalarni talab doirasida emasligiga guvoh bo'lish mumkin.

O'quv jarayonida mavzularni grafik ta'limga qiziqishlari vositasida o'quvchilarga yetkazilishi asosida ularni quyidagi xususiyatlarni kuzatishimiz mumkin:

- o'quvchidagi individual faoliyat rivojlanadi;
- o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyati yuzaga keladi;
- o'z-o'zini baholash va mustaqil fikr yuritishga o'rgatadi;
- o'quvchining grafik ta'limga qiziqishlarga oid bilim va e'tiborlari shakllanadi;
- o'quvchilarda milliylik g'oyalari shakllanadi va ularni vatanparvarlik ruhiyatida tarbiyalaydi;
- diqqatning barqarorligi ta'minlanadi;

Shaxsning fikrlash qobiliyati, ya'ni tafakkuri fikr yurgizish amallari yordamida rivojlantiriladi. Bu taqqoslash, analiz-sintez, umumlashtirish, abstrakshtirish, konkretlashtirish kabi amallar hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bevosita chizmachilik darslarida grafik ta'limga qiziqishni takomillashtirish har bir mavzuni o'zlashtirish fazoviy tasavvurni rivojlantirish darajasini 100% gacha ko'tarishga xizmat qiladi. Grafik ta'limga qiziqish vositasida tashkil etilgan o'quv jarayonlarida bu faollik yaqqol ko'zga tashlanadi. Ulardagi o'zaro mustaqillik, o'z shaxsiy qarashlarini inobatga olish, chizmachilik fanini o'zlashtirishga intilish bunga misol bo'la oladi. Shuningdek, uning darsda qo'llanishi samaradorlikni o'ttirib, faoliyatni faollashtiradi.

Grafik ta'limga qiziqishlar vositasida tashkil etilgan dars jarayonida quyidagi ijobiy holatlar vujudga keladi:

- xotira va diqqatning uzviy aloqadorligi oshadi;
- o'quv jarayonidagi o'zaro hamkorlik vujudga keladi;
- o'qituvchi o'quvchining bilim saviyasini tez va ob'ektiv baholay oladi;
- mustaqil bilimlarni o'zlashtirishga undaydi;
- adabiyotlardan, o'quv-uslubiy qo'llanmalardan, Internet-tarmog'idan, tavsiya va elektron darsliklardan foydalanishga chorlaydi.

Bu kabi imkoniyatlar bilan uyg'unlashgan dars jarayonida o'quvchi nafaqat mavzuni oson o'zlashtiradi, balki u bilan bog'liq bilim, voqea-hodisalarga individual yondashishga o'rganadi.

Adabiyotlar

1. Жохова Е.Ю. Компьютерная технология решения геометрических задач как средство формирования понятийного аппарата. Дисс. канд. пед. наук. Ярославский ГПУ.
2. Зарпекова Л.В., Николина В.В. Дидактика. – М.: Высшая школа,
3. Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. – Ростов н/Д.: Изд-во Рост. пед. ун-та. 2000.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining 2016 yil 27 apreldagi
0037-sonli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan.
Nashriyot hisob tabog'i 5,11.

Bosmaxona manzili: "IMPRESS MEDIA" M.Ch.J.
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Qushbegi 6. Buyurtma №01-03
Bosishga ruxsat etildi 01.03.2021. Format 60x84, 1/8.
Shartli hisob tabog'i 5,5. Adadi 161 nusxada.